ISSN: 2181-3035



TALQIN VA TADQIQOTLAR

№ 9

Respublika ilmiy-uslubiy jurnali

OPEN ACCESS

15.09.2022

@TALQINVATADQIQOTLAR

- Aniq fanlar
- Tabiiy fanlar
- Tibbiyot fanlari
- Texnika fanlari
- Iqtisod fanlari
- Filologiya fanlari
- Pedagogika fanlari
- Arxitektura
- Qishloq xo'jaligi
- Ijtimoiy-gumanitar fanlar
- San'at va madaniyat fanlari
- Jismoniy tarbiya va sport

(+99891-152-93-14) talqin@bk.ru www.talqinvatadqiqotlar.uz

TALQIN VA TADQIQOTLAR

RESPUBLIKA
ILMIY - USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

9-son 1-qism
15.09.2022

Talqin va tadqiqotlar

ilmiy-uslubiy jurnal

scientific-methodical journal

научно-методический журнал

Bosh muharrir:
I.I.Abdumannonov

Mas'ul muharrir:
O.S.Isroilov

Jurnal bir oyda ikki marta chop etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2022- yil 12 - fevralda 1540 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

ISSN 2181 - 3035

Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru
Сайт: www.talqinvatadqiqotlar.uz

Tahrir kengashi:

Qo‘ldashev Sherali Temiraliyevich
O‘z FA Sharqshunoslik instituti, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Bazarov Odiljon
Filologiya fanlari doktori, Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Abdukarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich
Xo‘jand davlat universiteti dotsenti (Tojikiston)
Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Namangan davlat universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Zokirov Sanjar Ikromjon o’g’li
Farg’ona politexnika institutining “Intellektual muhandiislik tizimlari” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li
O‘z FA Tarix instituti
Ubaydullayev Farxod Baxtiyarullayevich
Toshkent davlat agrar universiteti "O‘rmonchilik va landshaft dizayn” kafedrasi dotsenti
Umarova Maxliyo Yunusovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori
Jo‘rayeva Sobira Eshqurbonovna
O‘zMU jurnalistika fakulteti, o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Raximova Zuxraxon Maxmudovna
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Baymenova Kamshat Saparbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Bazarov Otabek Odilovich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna
Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o‘qitish metodikasi katta o‘qituvchisi
Rahimova Maftuna Odilovna
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
Mirzaahmedova Kamola Toxirovna
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti
Djumaniyozova Enajon Kutimovna
Toshkent arxitektura qurilish instituti xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Urazmetova Shoira Azatbayevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Urganch filiali o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Jo‘rayeva Dilnoza Shokirjonovna
Termiz davlat universiteti algebra va geometriya kafedrasi o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИНИ БАРПО ЭТИШДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ УМУМЖАҲОН ДЕКЛАРАЦИЯСИНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАЗМУНИ-МОҲИЯТИ

Умид Эркинович Фозилов
ИИВ Академияси Давлат-ҳуқуқий фанлар ва инсон ҳуқуқларини таъминлаш кафедраси доценти, юридик фанлар номзоди, доцент
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295822

Аннотация: Фуқаролик жамиятини барпо этишда инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясининг мазмуни-моҳияти аҳамияти беқиёсдир. Инсон ҳуқуқлари бу жамиятнинг энг асосий олий қадриятидир. Мазкур мақолада Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблея томонидан 1948 йил 10 декабрда қабул қилинган «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси»нинг мазмун-моҳияти очиб берилган.

Калитли сўзлар: ҳуқуқ, қонун, конституция, инсон, инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси, фуқаролик жамияти.

Ўзбекистон Республикаси ўзи танлаган йўлидан, ҳуқуқий демократик давлат ва адолатли фуқаролик жамияти барпо этиш йўлидан дадил бормоқда. Ўзбекистон фуқаролари мустақиллик йилларида яратилган муҳим қонуний мезонга таянган ҳолда, барча ҳуқуқий давлатлар қаторида қонун асосида яшамоқда. Туб ислоҳотлар даврида инсон ҳуқуқлари ҳам соҳасида ҳуқуқий асос яратилмоқда ва амалиётда ижобий натижалар яққол кўзга ташланмоқда. Инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳар бир шахснинг муҳим эҳтиёжи ва манфаатларини жамият манфаатлари билан уйғун ҳолда ва тараққиёт манбаи сифатида англаб етмоқдалар.

Инсон ҳуқуқлари – бу жамиятнинг энг асосий олий қадриятидир. Инсон ҳуқуқлари бу муҳим конституциявий институт ҳисобланиб, бутун инсониятнинг интилишлари, орзу-умидлари ва ҳозирги замон тараққиётининг асоси ва давр талабидир.

Тарихга назар ташлайдиган бўлсак, иккинчи жаҳон уруши тугагандан сўнг, тинчлик, хавфсизлик ва давлатлараро ҳамкорликни қўллаб-қувватлаш ва мустаҳкамлаш мақсадида Бирлашган Миллатлар Ташкилоти тузилган эди. Бу ташкилот инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш унинг фаолиятида муҳим йўналиш ҳисобланади.

Бирлашган Миллатлар Ташкилоти[1]нинг дастлабки эришган муҳим ютуқларидан бири Бош Ассамблея томонидан 1948 йил 10 декабр[2]да қабул

қилинган муқаддима ва 30-моддадан иборат «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси» бўлди.

Бош Ассамблея «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси»ни «барча халқлар ва барча давлатлар бажаришга интилиши лозим» эканини эълон қилди. У бутун дунёдаги аъзо давлатларни декларацияда мустаҳкамланган ҳуқуқ ва эркинликларни ҳурмат қилиш ва таъминлашга чақирди. Бутун жаҳонда ҳар йили 10 декабрь «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси» қабул қилинган кун муносабати билан «Инсон ҳуқуқлари куни», деб катта байрамлар ташкил этилади. Ушбу декларациянинг тарихий аҳамияти шундаки, у бутун дунёда тан олинган ва умумий бўлган ҳуқуқ ва эркинликлар рўйхатини ўзида мужассамлаштирган биринчи ягона халқаро ҳуқуқий меъёрий ҳужжатдир.

Бош Ассамблея томонидан 1948 йил 10 декабрда қабул қилинган «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси»да умумэътироф этилган инсон ҳуқуқлари қуйидагича:

Шахсий ҳуқуқ ва эркинликлар:

– яшашга бўлган ҳуқуқ, эркинлик ва шахсий дахлсизлик ҳуқуқи (3-модда.);

– қулликнинг тақиқланиши (4-модда.);

– қийноқларнинг тақиқланиши, инсон қадр-қимматини камситувчи ёки ноинсоний муомала ва жазолашларнинг тақиқланиши (5-модда.);

– ҳар бир инсоннинг ҳуқуқий субъект бўла олишининг тан олиниши 6-модда.);

– асосий ҳуқуқларнинг бузилишига сабаб бўладиган ҳаракатларга қарши суд ҳимоясига бўлган ҳуқуқ (7-модда.);

– ҳуқуқларнинг суд томонидан самарали тикланишига бўлган ҳуқуқ (8-модда);

– ўзбошимчалик билан қамоққа олиш, ушлаб туриш ёки сургун қилишдан ҳимоя қилиш кафолати (9-модда.);

– мустақил ва бетараф судга бўлган ҳуқуқ (10-модда.);

– айбсизлик презумпцияси, қонуннинг орқага қайтиш кучининг йўқлиги (11-модда.).

Инсоннинг уни ўраб турган гуруҳ ва ташқи дунё билан муносабатлари доирасидаги ҳуқуқлари:

– шахсий ҳаётга бўлган ҳуқуқ (12-модда.);

– эркин кўчиб юришга ва яшаш жойини эркин танлашга бўлган ҳуқуқ 13-модда);

– бошпана ҳуқуқи (14-модда.);

– фуқаролик ҳуқуқи (15-модда.);

– никоҳ муносабатларида эркак ва аёлнинг тенг ҳуқуқлилиги. Оиланинг жамият ва давлат томонидан ҳимоя қилинишига бўлган ҳуқуқ (16-модда.);

– мулкка индивидуал ва ўзаро эгалик қилиш ҳуқуқи (17-модда);

Диний эркинликлар, фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар:

– фикр, виждон ва дин эркинлиги (18-модда.);

– эътиқод эркинлиги ва уни эркин ифодалаш. Маълумотларга эркин эга бўлиш (19-модда.);

– тинч йиғилишлар ва ассоциациялар тузиш эркинлиги (20-модда.);

– ўз мамлакатини бошқаришда иштирок этиш ҳуқуқи; муайян муддатларда ўтказиладиган сайловларда иштирок этиш ҳуқуқи (21-модда.).

Иқтисодий, ижтимоий ва маданий соҳалардаги ҳуқуқлар:

– ижтимоий таъминотга ва муносиб ҳаёт даражасига эга бўлиш ҳуқуқи, меҳнат қилиш ҳуқуқи; иш танлаш эркинлиги, тенг меҳнат учун тенг ҳақ олиш (22-модда.);

– касаба уюшмаларига нисбатан эркинлик (23-модда.);

– дам олиш ва бўш вақтга бўлган ҳуқуқ (24-модда.);

– фаровонликка ва соғлиқни сақлашга бўлган ҳуқуқ (озиқ-овқат, кийим-кечак, уй-жой, тиббий муолажа, ижтимоий хизмат кўрсатиш);

– оналик ва болаликни ижтимоий ҳимоялаш ҳуқуқи (25-модда);

– таълим олишга бўлган ҳуқуқ (26-модда.);

– маданий ва илмий ҳаётда иштирок этиш, шунингдек, муаллифларнинг маънавий ва моддий манфаатларини ҳимоялашга бўлган ҳуқуқи (27-модда.).

Бош Ассамблея томонидан 1948 йил 10 декабрда қабул қилинган «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси»нинг учта моддаси Бирлашган Миллатлар Ташкилоти принциплари ва шахснинг жамиятга нисбатан мажбуриятларига бағишланган:

– ҳар бир шахснинг ижтимоий ва халқаро тартибга бўлган ҳуқуқи. Бунда декларацияда мустаҳкамланган ҳуқуқ ва эркинликлар тўлиқ амалга оширилиши мумкин (28-модда.);

– жамият олдидаги мажбуриятлар; бошқаларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини тан олиш. Бу ҳуқуқ ва манфаатларни Бирлашган миллатлар ташкилоти мақсадларига мувофиқ амалга ошириш (29-модда.);

– декларацияда мустаҳкамланган ҳуқуқ ва эркинликларни йўқ қилишга қаратилган хатти-ҳаракатларни оқлаш учун шарҳланиши мумкин эмас.

Бош Ассамблея томонидан 1948 йил 10 декабрда қабул қилинган «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси»нинг 29-моддаси 1-бандида шахснинг мажбуриятлари «Ҳар бир шахс жамият олдида мажбуриятларга эга», деб аниқ ўрнатилган. Мазкур бандда шахс фақат жамиятдагина эркин ва тўлиқ ривожлана олиши тўғрисидаги қоида асослантирилган. Ушбу Бош Ассамблея томонидан 1948 йил 10 декабрда қабул қилинган «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларация»нинг бу қоидаси маънавий моҳият касб этади. Келтирилган қоидага

кўра шахс яшаётган жамиятда умумий юриш-туриш қоидаларини ўрнатади. Бош Ассамблея томонидан 1948 йил 10 декабрда қабул қилинган «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларация»нинг 29-моддаси 1-банди муроса мазмунига эгалиги сабабли, Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеяси томонидан 1948 йил 10 декабрь куни бир овоздан қабул қилинган.

Бош Ассамблея томонидан 1948 йил 10 декабрда қабул қилинган «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларация»нинг 29 ва 30-моддаларида шахснинг жамият олдидаги мажбуриятларини белгиловчи халқаро ҳуқуқий нормалар мустаҳкамланган. Ушбу иккита модда қоидалари биринчидан, «инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликлари», иккинчидан, «инсон мажбуриятлари» тушунчаларига аниқлик киритади. Мазкур 29-модданинг 1-бандида «шахс ҳуқуқлари» тушунчаси берилган бўлса, 30-моддада уни шарҳлашни белгиловчи универсал қўлланиладиган норма мавжуд. Шахснинг барча мажбуриятлари ва ундан келиб чиқувчи муаммолар ушбу икки моддада умумлаштириб мустаҳкамланган.

Бош Ассамблея томонидан 1948 йил 10 декабрдаги «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси» Бирлашган Миллатлар Ташкилоти томонидан барча давлатлар ва миллатлар учун умумий ягона халқаро ҳуқуқий стандарт сифатида қабул қилинган. Юқорида зикр этилганлар эркинлик, тенглик ва биродарлик каби принципларга асосланади. Уларга Бош Ассамблея томонидан 1948 йил 10 декабрда қабул қилинган «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси»нинг «Муқаддима» қисми ва 1 ва 2-моддалари бағишланган.

Бош Ассамблея томонидан 1948 йил 10 декабрдаги қабул қилинган «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси»ни тавсифлар эканмиз, унда инсон ҳуқуқларини таъминлаш ва амалга оширишнинг ҳуқуқий механизмлари ҳар қайси халқ ва барча давлатлар бажаришга ҳаракат қилиши лозим бўлган вазифа сифатида келтирилган.

Бош Ассамблея томонидан 1948 йил 10 декабрдаги «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларация» инсон фундаментал ҳуқуқларини қамраб олган Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Низомини талқин қилишдаги энг муҳим ҳужжатдир. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси бу халқаро шартномадир ҳамда юридик жиҳатдан у мажбурий кучга эга эмас. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Низомининг 10 ва 11-моддаларига мувофиқ, Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг резолюциялари фақатгина тавсиявий аҳамиятни касб этади. Лекин, Бош Ассамблея томонидан 1948 йил 10 декабрдаги қабул қилинган «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларация»си давлатлар инсон ҳуқуқлари соҳасидаги мажбуриятларининг асосий манбаларидан бирига айланди. Бош Ассамблея томонидан 1948 йил 10 декабрдаги қабул қилинган «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси»нинг

нормаларининг катта қисми замонавий дунё мамлакатларини боғлаб турувчи халқаро одат ҳуқуқининг муҳим тимсоли сифатида эътироф этилади.

Шуни таъкидлаш лозимки, инсон ҳуқуқлари ва манфаатлари олий қадриятдир. Ана шу қадрият қарор топган, улуғланган давлатда фуқаролар тинч-тотув, фаровон турмуш кечирадилар. Янги Ўзбекистонимизда олиб борилаётган давлат сиёсати ҳам ана шу мақсадга йўналтирилган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бирлашган миллатлар ташкилоти (БМТ) – Ер юзида тинчликни мустаҳкамлаш ва хавфсизликни таъминлаш, давлатларнинг ўзаро ҳамкорлигини ривожлантириш мақсадида ташкил этилган халқаро ташкилот. 1945-йил 24-октабрда тузилган. //https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Birlashgan_millatlar_tashkiloti&variant=uz-cyrl

2. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг Резолюция 217 A (III) билан 1948 йил 10 декабрда қабул ва эълон қилинган. //constitution.uz/uz/pages/humanrights

ZAMONAVIY RAXBAR SHAXSI MADANIYATI VA MA'NAVIYATI HAQIDA QARASHLAR

Husniddin Norqo'chqor o'g'li Qobilov
Termiz davlat universiteti
Izzat Toshtemirovna Ergasheva
Qumqo'rg'on tumani 53-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295830

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy raxbar shaxsi madaniyati va ma'naviyati haqida qarashlar, boshqaruv tizimida faoliyat yuritayotgan har bir rahbar oldiga qo'yilgan talablar aks ettirilgan.
Kalit so'zlar: Raxbar psixologiyasi, shaxs madaniyati, boshqaruv madaniyati, axloqi psixodiagnostikasi, Tashkilotchilik qobiliyati testi.
Аннотация: В статье отражены взгляды на культуру и духовность современного руководителя, требования, предъявляемые к каждому руководителю, работающему в системе управления.
Ключевые слова: психология лидера, культура личности, культура управления, нравственная психодиагностика, тест организаторских способностей.
Abstract: The article reflects views on the culture and spirituality of a modern leader, the demands placed on every leader operating in the management system.
Key words: Leader psychology, personality culture, management culture, moral psychodiagnostics, Organizational ability test.

KIRISH

Zamonaviy rahbar shaxsi ma'naviyati va faoliyatini baholashda avvalo rahbar faoliyatining samaradorligiga e'tibor qaratiladi. "Rahbar faoliyatining samaradorligi rahbar shaxsning tafakkuri, aql-idrokiga ham bevosita bog'liq bo'ladi. Tafakkur rahbarga keng va chuqur fikrlay olish, yaxshini yomondan, foydani zarardan, muhimni nomuhimdan bexato ajrata olish imkoniyatini beradi. Bu - hammaga ham nasib qilavermaydigan yuksak fazilat. Agar rahbarda shular bu kabi sifatlar shakllangan bo'lsa, bunday rahbar boshqaruvning sir-asrorlarini qiynalmasdan egallaydi hamda o'z jamoasida obro' e'tiborga ega bo'lib, ular ishonchini qozonadi. Demak, har qanday rahbar keng va chuqur fikrlay olishi bilan birga, chaqqon va uddaburon, harakatchan va shijoatli bo'lishi ham kerak. Shuning uchun rahbarlik faoliyatini tafakkur va harakat birligi deyish mumkin. Rahbardagi o'ziga xos talabchanlik, mehribonlik hamda mas'uliyat jamoa a'zolarida ham javobgarlik hissining shakllanishiga sabab bo'ladi.

Malakali rahbar kadrlar tizimini muvaffaqiyatli shakllantirishda ―Ijtimoiy psihologiya‖, ― Rahbar psihologiyasi, ― Boshqaruv psihologiyasi‖ kabi fanlarni yaxshi o‘zlashtirishi uchun bor imkoniyatini ishga solishi kerak. Xullas, jamoaga rahbarlik qilish katta san’at. Rahbar – ustoz, murabbiy, rahbar - millat tarbiyachisi, jamiyatimizdagi mas’ul shaxs. Uning mashaqqatli mehnati natijasi o‘laroq, kelajak vorislari kamol topib boradi. Demak, rahbarlarga qaratilgan e’tibor – Vatan taqdiriga qaratilgan e’tibordir.

TADQIQOT METODI VA METODOLOGIYASI

Xususan, rahbar shaxsining axloqiy madaniyati - shaxsning axloqiy ong orqali jamiyat madaniyatini idrok etish darajasi; axloq talablari inson xatti-harakatlari jamiyatning shakllantiruvchi ta’siri ostida qay darajada chuqur va uyg‘un ekanligi ko‘rsatkichi xisoblanadi.

Jamiyatda rahbar shaxsining axloqiy madaniyatini shakllantirishdan maqsad - an’anaviy va ijodiy elementlarning uyg‘unligiga erishish, shaxsning aniq bir tajribasini jamoatchilik axloqi bilan birlashtirishdan iborat. Rahbar shaxsi ma’naviyati - yaxlit tizim bo‘lib, axloqiy fikrlash madaniyatini qamrab oladi.

O‘z ichiga yana tuyg‘ular madaniyatini, insonning ―axloqiy rezonansga qobilligi, jonkuyarligini; axloqiy tajribada his-tuyg‘u va o‘ylarning amalga oshirilish qiyofasini, ularning kundalik hayotda xatti-harakat me’yoriga aylanib borish darajasini xarakterlovchi xulq-atvor madaniyati; shakllarni reglamentlovchi qoidalarga qay darajada amal qilish sifatidagi etiketni, muloqotda shaxsning o‘zini tuta bilishini oladi.

Ya’ni, rahbar shaxsi ma’naviyati – uning jamiyatning barcha odob-axloqqa oid qoidalarni bilish, ularni chuqur his etishi, xatti harakatlarning eng munosib shaklini qo‘llay bilishi xisoblanadi. Odob-axloqqa oid qoidalarning barcha elementini o‘zlashtirish rahbar shaxsining axloqiy madma’naviyati mustahkamligini shakllantirishga yordam beradi.

Ma’naviyati shakllangan rahbar adolatsizlik, qonun buzilishlari, Vatan manfaatlariga zid harakatlarga qarshi kurashda iroda, shijoat va faollik ko‘rsata oladi. Rahbarlar ma’naviy–psixologik madaniyati jixatidan quyidagi toifalarga bo‘linadi:

TADQIQOT NATIJASI

Birinchisi, ma’naviyati nisbatan past saviyada shakllangan rahbarlar. Bunday rahbarlar oddiy axloqiy-ruhiy fazilatlardan ancha mahrum va jamiyat ma’naviy me’yorlarini tushunib yetmaydigan, ularni mensimaydigan rahbar xodimlardir.

Ikkinchi toifadagi rahbarlar ma’naviy madaniyati, axloqiy darajasi past bo‘lishi bilan birga, jamoat fikri, oila, xalq an’analari va boshqa shu kabi qadriyatlar bilan bog‘liq psixologik muhitni tez-tez buzib turadigan rahbarlardir.

Uchinchi toifadagi rahbarlar qatoriga axloq me’yorlarini hayotiy zarurat sifatida ichki ishonch va tuyg‘u bilan o‘zlashtirmay, ularni ko‘rko‘rona qabul qiluvchilar

kiradi. Bunday rahbarlar ko‘p o‘qib o‘rganadi, nazariy jihatdan yuqori bilimga ega bo‘ladi, amalda esa bu bilimlarni qo‘llay olmaydi yoki tashkilotchilik qobiliyati yetishmaydi.

Rahbarlikka hos bo‘lgan ayrim sifat qobiliyatlar borki, ular rahbar faoliyatining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Avvalo, har qanday rahbarda intellekt - aql-zakovatning ma’lum normasi bo‘lishi kerak. Bu norma yaxshi rahbar uchun o‘rtadan yuqori bo‘lmog‘i maqsadga muvofiqdir, chunki geniy darajasidagi intellektga ega bo‘lgan rahbar bilan ishlash xodimlari uchun qator noqulayliklarni keltirib chiqarishini, bunday aql-zakovat qolganlarning ijobiy rivojlanishiga psixologik to‘siq bo‘lishini amaliyot va hayot ko‘rsatdi. Rahbardagi o‘rtadan yuqori intellektni qoplab ketadigan boshqa yana muhim sifatlar borki, ular boshqarish ishining samarasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Masalan, rahbarning mustaqil fikrlilik, topqirlik tashabbuskorlik sifatlari. CHunki ayrim hollarda xato qilsa ham, rahbar orginal fikrlar aytib, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsata olishi, har bir aytilgan fikr, qilingan ishga mustaqil baho bera olishi zarur.

Mustaqillik shaxs qiyofasini belgilovchi muhim psixologik xususiyatdir. Rahbarda mustaqillik bo‘lsa, unda o‘ziga ishonch ham bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida rahbardagi sub’ektiv talablar darajasining yuqori bo‘lishiga olib keladi. Ko‘pincha rahbarning boshqalarga talabchanligi haqida gapiriladi. Lekin yaxshi rahbar o‘z o‘ziga nisbatan talabchan bo‘lishi kerak. O‘z-o‘zini baholash va shu asosda boshqalarga nisbatan munosabatlar tizimini ishlab chiqishi muhim bir omildir.

MUHOKAMA

Axloqan barkamol, bilimli va tajribali, ilm asoslarini chuqur egallagan, adolatparvarlik, insonparvarlik e’tiqodi kuchli rahbar shaxslar yuksak ma’naviy fazilatlarning sohibi bo‘la oladilar. Bu fazilatlar birlashib, jamiyatning dunyoqarashi, e’tiqodi, xalqning milliy ongi shakllanishiga, mustahkamlanib, rivojlanishiga olib keladi. Ma’naviy kamolot uning barcha qirralari o‘zaro bog‘liqligi, bir-biriga bevosita yoki bilvosita ta’sir etib turishi asosida davom etadi. Inson, jumladan, rahbar shaxs kamolotini ma’naviyatning yuqoridagi tomonlaridan birortasisiz to‘liq tasavvur etish mumkin emas. Uning mohiyati ham shu sifatlarning mushtarak birligi asosida shakllanadi va kamol topib boradi.

Rahbarning rejalashtirish qobiliyati – bu o‘ziga xos kelajakni ko‘ra olish qobiliyati, kelajak obrazi bo‘lib, bu narsa shaxsning qanchalik kamol topganligi va maqsadga intiluvchanliligining muhim belgisidir. Bu juda murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u shaxsning o‘z diqqatini qanchalik omil tarzda boshqarishi, uni faqat muhim narsalarga qarata olishi, vaqtdan tez foydalana olish, ortiqcha ishlardan o‘zini tiyish, qo‘l ostidagilarga, imkoni boricha, ularning qobiliyatlariga qarab ish buyura olish va nihoyat, buyurgan ishni o‘z vaqtida nazorat qilib, so‘rab olish imkoniyati bilan bog‘liq.

XULOSA

Bugungi kunda ko‘plab qadriyatlarga munosabat o‘zgargani sir emas. SHular qatorida insoniy munosabatlar, odamlar faoliyatini demokratik o‘zgarishlar sharoitida boshqarish masalalariga nisbatan ham qarashlar birmuncha o‘zgardi. Boshqaruv asoslari, menejment sohasida chop etilayotgan yangi davr adabiyotida rahbarlik san’ati va mahoratiga biznes manfaatlar nuqtai nazaridan yonlashish an’anaga aylangan.

Darhaqiqat, jamiyatda rahbar shaxsining axloqiy madaniyatini shakllantirishdan maqsad - an’anaviy va ijodiy elementlarning uyg‘unligiga erishish, shaxsning aniq bir tajribasini jamoatchilik axloqi bilan birlashtirishdan iborat. Rahbar shaxsi ma’naviyati - yaxlit tizim bo‘lib, axloqiy fikrlash madaniyatini qamrab oladi.

Xususan, rahbar shaxsining axloqiy madaniyati - shaxsning axloqiy ong orqali jamiyat madaniyatini idrok etish darajasi; axloq talablari inson xatti-harakatlari jamiyatning shakllantiruvchi ta’siri ostida qay darajada chuqur va uyg‘un ekanligi ko‘rsatkichi xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoev. "O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi pf-4947-sonli farmoni.

2. Karimov, I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida / T.: “O‘zbekiston”, 2011.- 440 b.

3. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008 - 176 b.

4. Andreeva G.M. Sotsialьnaya psixologiya: Uchebnik dlya vo‘SHix uchebno‘x zavedeniy / G.M. Andreeva.- 5-e izd., ispr. i dop. – M.: Aspekt Press, 2003 – 364 s.

5. Bromley Yu.V. Etnos i etnografiya. – M.: Nauka, 1973

6. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik.- T., 2012 – 196 b.

7. Mamatov M. Milliy psixologik qiyofa va uning xususiyatlari. T.: O‘zbekiston, 1980. -76 b.

ОСНОВНАЯ ЗАДАЧА РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА

Мухаммаджон Тошхонов
УзГУМЯ, преподаватель испанского языка
Бобур Турдалиев
Ташкентский университет прикладных университет
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295842

Annotation: This article analyzes the speech of the higher nervous activity of a person, with which the methodology of learning foreign languages is closely related as a science.

Key words: Speech, discipline, dialogue, language, psychologist, etiquette, stereotype

Аннотация: Основная задача данной темы - установить важнейшие закономерности методики работы по обучению испанскому речевому этикету и разработать систему наиболее рациональных приемов и способов изучения указанного материала. Для осуществления этой задачи необходимо учитывать данные языкознания, педагогики, психологии и физиологии высшей нервной деятельности человека, с которыми методика изучения иностранных языков тесно связана как наука. Без знания этих дисциплин и без знания отдельно взятой лингвистической науки нельзя решить, чему и как нужно обучать студентов. Выбирая наиболее рациональные и продуктивные способы и приемы обучения второму языку, необходимо уделять внимание связи методики изучения иностранного языка с психологией.

Ключевые слова: Речь, дисциплина, диалог, язык, психолог, этикет, стереотип.

Задача психологии «прежде всего установить психологические закономерности владения иностранным языком, а затем помочь методике научно разработать основной метод обучения иностранному языку и привести в соответствие с этим все частные приемы и способы этого обучения, владения контролируя и то, что происходит в сознании учащихся тогда, когда они овладевают языком в условиях обучения» (Б.В. Беляев, 1965: 9). Видные психологи Б. Беляев, Н. Жинкин, А. Леонтьев считают, что с физиологической точки зрения владение вторым языком наступает тогда, когда в корне больших полушарий головного мозга образовался динамический стереотип. Этому предшествует длительный период овладения вторым языком в период обучения, то есть «процесс образования соответствующего

психофизиологического механизма (Б.В. Беляев, 1965: 14). Для образования в больших полушариях головного мозга динамического стереотипа используют следующие методы: 1) переводно-грамматический; 2) прямой метод; 3) использование перехода от теории языка к речевой практике. Психологи установили, что навыки быстрее вырабатываются, прочнее запоминаются и легче восстанавливаются, если действие по их приобретению вначале осмысливаются, осознаются.

Б. В. Беляев говорит, что «при сознательно - практическом овладении иностранным языком процесс овладения этим языком носит сознательный характер, а владение им оказывается непосредственно - интуитивным, что соответствует психологическим закономерностям речевой деятельности (там же, с. 17).

В процессе обучения второму языку билингв сознательно производит операцию по переработке информации по мере воспитания билингвизма, операция по переработке информации переходит в навыки, переходит в область подсознательную (Н.Жинкин, 1982: 14-20).

Психологические основы изучения испанского речевого этикета предусматривают:

-учет обратной связи учителя и ученика;

-учет особенностей переработки информации при восприятии формул речевого этикета;

-установление обратной связи аудирования с продуцированием речи как необходимой базы распознавания формул речевого этикета в испанском языке (моторная теория);

-этапы умственной деятельности. Речевой этикет реализует социальное взаимодействие

коммуникантов.

Кроме того, психологические характеристики речевого этикета зависят от различных факторов функционирования диалога. Так, социальная дифференциация носителей языка, их социальный статус, как уже говорилось, диктуют выбор речевых формул. С точки зрения социальных ролей взаимодействия людей можно выделить следующие признаки носителей языка:

1) возрастной: у людей пожилого возраста, как правило, ‘традиционное использование речевых формул; молодёжь, склонна к использованию жаргонной речи. В испанском языке люди старшего возраста используют обращения Don... Dona...', молодые: Salut, Bona, Hello, Hola.... Носители узбекского языка: пожилые: используют Ассалому алейкум, молодежь- Салом, Калайсан. В русском языке соответственно: пожилые используют обращения- Здравствуйте....молодые люди: Привет.

2) Образовательный уровень сказывается как у старших и у молодых.

3) Признак пола важен в испанском и русском языках. В узбекском языке категория рода грамматически не выражена. При изучении второго языка следует учитывать социально - культурные нормы общения носителей языка, особенно испанского. Употребление речевого этикета связано с созданием благоприятной обстановки общения. Установление контакта в устной форме при ведении диалогов значительно облегчается присутствием собеседника и наличием паралингвистических средств, таких как жесты, мышление и др. Телефонный диалог реализуется в непосредственном контакте собеседников. Если единицей «сообщения» выступает сама реплика, то единицей общения по телефону оказывается диалогическое единство, состоящее из реплики-стимула и реплики-реакции, наиболее уместных для данной обстановки общения, включая сложные оттенки взаимоотношений общающихся, как постоянных, так и возникающих на момент контакта.

1. Специфика речевого этикета диалога в русском, в испанском и в узбекском языках представляет собой сумму определенных речевых действий, одинаковых во всех перечисленных языках.

2. диалог как средство межличностной коммуникации, имеет определенную специфику, выражающуюся в том, что он предполагает обратную связь как необходимое условие телефонного диалога, спонтанное протекание диалога, краткость протекания во времени.

3. диалог является дистантным и опосредованным, вследствие чего в телефонном диалоге отсутствуют такие сопутствующие диалогу составляющие, как мимика, жесты, выражение лица, т.е. средства невербального общения. Это, в свою очередь приводит к активизации словесного выражения, к появлению особых речевых формул установления контакта. Рассматривая единицы телефонного диалога одного языка с позиции другого, необходимо принять во внимание два фактора: нормы воздействия и нормы интерпретации. Под нормами воздействия имеются в виду все правила речевого поведения, имеющие социально-нормативный характер и являющиеся специфическими для той или иной культуры. Знание норм интерпретации речевого поведения особенно важно в тех случаях, когда происходит акт коммуникации между представителями разных языков. В использовании формул речевого этикета случае отсутствия уточнения, набравший номер сам выясняет, с кем он ведёт диалог, так как общение происходит дистантно, без подкрепления визуальным представлением собеседника.

Развитие темы и содержание диалога сопровождается обычно реакцией собеседника на информацию, причём нередко с целью перехватить инициативу. Обсуждение ситуации начинается с ответа на первый вопрос, отвечая, другая

сторона формулирует свое отношение к поднятому вопросу или сообщает о действиях, которые она намерена предпринять. По ходу диалога для развития основной темы и поддержания диалога собеседники пользуются речевыми фразами для уточнения и переспроса. При диалоге часто возникает необходимость уточнить некоторые факты, события, узнать мнение собеседника по данному вопросу, его оценку события, отношение к происшедшему, точно определить место, время события, отношение других участников к обсуждаемым фактам. Ответная реакция собеседника может содержать либо подтверждение, либо отрицание сказанного или высказывание точки зрения собеседника, или полное описание данного события.

В развитии темы диалога данного события в телефонном диалоге собеседники используют формулы, чтобы последовательно описать ход какого-либо события. В связи с тем, что в телефонном диалоге отсутствует визуальный контакт, большое значение приобретает голос и звукоизвлечение: произношение, интонация, логическое ударение, темп, тембр, пауза и т.д.

В заключении приводится анализ результатов, убедительно подтвердивших правомерность научной гипотезы, сформулированных положений, выводив и рекомендаций, которые сводятся к следующему.

Литература:

1. Я.Г.Красникова Пособие по разговорному испанскому языку. М., 1971.

2. О.В. Николаев, Т. М. Хисберт, Г. Я. Туровер. Пособие по разговорному испанскому языку. - М.1968. (на испанском языке).

3. И.А.Шеффер Испанский язык: Интенсивный курс обучения устной речи: Учебное пособие. - М., 1989.

4. Н.М. Шидловская. Самоучитель испанского языка. Высшая школа. М., 1991.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDAGI BOLALARDA ESTETIKANI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Nishonova Zuhra Aubakirovna
Jizzax viloyati, Zomin tumani, XTB ga qarashli
7 –umumiy o‘rta ta’lim maktabining
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295856

Annotatsiya: Maqolada estetik tarbiya va uning inson hayotidagi ahamiyati, uning ijtimoiy hayotimizda tutgan o‘rni psixologik va pedagogik tasnifi asosiy tushunchalar berilgan. Boshlang‘ich ta’limdagi bolalarda eestetikni rivojlantirish usullari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Estetika, estetik tarbiya, estetik his, oila, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar, badiiy, tasviriy, surdopedagog, nutq, idrok.

Estetik hislar ham yuksak axloqiy hislardan hisoblanadi. Estetik his deganda biz go‘zallikni idrok qilish, go‘zallikdan zavqlanish va go‘zallik yaratishga intilishni tushunamiz. Estetik hissiyot hamma odamlarga xos bo‘lgan hissiyotdir. Atrofdagi tabiat manzaralari estetik hissiyotlarimizning birinchi manbai hisoblanadi. Masalan, bahor faslidagi tog‘ manzaralari baland qorli qoyalari uzoqlardan mag‘rur turishlari odamda estetik lazzatlanish hissini tug‘diradi. Yomg‘irdan so‘ng turli rangda jilolanib turuvchi kamalak, gulzorlar yoki kapalak, xuddi dengizdek ko‘z ilg‘amaydigan ko‘m-ko‘k paxtazorlar uzoqlarda chiroyli bo‘lib ko‘rinib turgan dala tepaliklari odamda qandaydir ko‘tarinki ruh tug‘diradi. Odamlar hayotning turli faktlariga va ularning san'atini aks ettirishiga qandaydir go‘zallik yoki xunuklik fojiali yoki kulguli, oliyjanoblik va razillik, nafis yoki dag‘al hodisalar sifatida munosabatda bo‘ladilar. Bu hislar tegishli baholarda estetik didlarda namoyon bo‘ladi va o‘ziga xos badiiy lazzatlanish holatida kechiriladi. Estetik hissiyotlarning manbalari juda ko‘p va xilma-xildir. Masalan, tabiat manzaralaridan lazzatlanishdan tashqari tasviriy san’at asarlari, badiiy-adabiy asarlar, musiqa va haykaltaroshlik, arxitektura va me'morchilik ishlari ham odamda estetik hisni tug‘diradi. Bundan tashqari odamlaming o‘zaro bir-birlari bilan bo‘lgan munosabat va muomalalari ham estetik hissiyotlarning manbalari bo‘la oladi. Odamning kiyinishi, uyining tutishi, qanday jihozlanish, boshqalar bilan muomalasi ham estetik hislarimizning manbai bo‘la oladi» Masalan, dag‘al gaplashadigan kishidan odam nafratlanadi, aksincha muomalali, gapni o‘rinli va madaniyatli qilib gapiradigan kishidan odam zavqlanadi. Shunday odamlarga taqlid qilgisi keladi. Umuman odamning estetik hissiyotlari ko‘p manbalarga ega bo‘lgan murakkab hissiyotlardandir.

Estetik didni shakllantirib borish, uni turli bachkanalik va kamchiliklarni forig‘ etish “Estetik tarbiya” ning vazifasi hisoblanadi. Estetik tarbiya -lotincha “estezio” “go‘zallikni his etaman” degan ma’noni anglatib–o‘quvchilarni voqe`lik, tabiat, ijtimoiy va mexnat munosabatlari va turmush go‘zalliklarini anglash, idrok etish va tushunishga o`rgatish, ularning badiiy didini o`stirish, ularda go‘zallikka muxabbat uyg‘otish, ular tomonidan go‘zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir. Estetik tarbiya insonda go‘zallikni xis qilish tuyg‘usini shakllanishiga yordam beradi, uni rivojlantiradi. Inson doimo o`z hayotini go‘zallik asosida qurishga intiladi. Estetik tarbiya axloqiy, aqliy, huquqiy, ekologik, ijtimoniy va mexnat tarbiyasi bilan chambarchas bog‘likdir. Tabiat, adabiyot, teatr, musiqa, she’riyat, tasviriy san’at va boshqalarga bo‘lgan muxabbat shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Estetik tarbiyaning mohiyati shundan iboratki, u go‘zallikka bo‘lgan munosabatni qaror toptiradi. Go‘zallikka bo‘lgan tuyg‘uni rivojlantirmay turib, yuqori mehnat madaniyatiga erishib bo‘lmaydi. Mehnat faoliyatida paydo bo‘lgan go‘zallik butun tarixiy taraqqiyot bosqichlarida rivojlanib bordi, u mehnat faoliyatining o‘ziga ham ta’sir ko‘rsata boshladi. Mehnat jarayonida tayyorlangan xar bir buyum (tovar)ning ahamiyati, funksiyasi, zarurligi insonning tabiiy ehtiyojlarini qondirishi jihatidangina emas, balki uning qanchalik go‘zalligi bilan ham baholanadi. Go‘zallik bu hayotning o`zi, tabiat hamda inson mehnati natijalari, insoniy munosabatlarning mukammalligidir. Estetik bilimlari aniq tarbiyaviy ishlar-tanlov, viktorina, bayram, ko‘rgazma va xokazolarni tashkil etish asosida hosil qilinadi. O‘quvchilar o‘z qobiliyatlarini turli xil badiiy-ijodiy faoliyatlarda namoyon etadilar. Kichik yoshda “barcha bolalar istes’nosiz rasm soluvchilardir” (K.D.Ushinskiy), “har bir bola - shoir” (V..Suxomlinskiy).

Estetik tarbiya (nafosat) — shaxsning estetik ongi, munosabatlari hamda estetik faoliyatining vujudga kelishi va takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayon bo`lib, bu jarayon yosh va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli bosqich hamda darajalarga ega. Estetik tarbiya shaxsning estetik madaniyatini egallashiga yo`naltirilgan bo‘lib, turli shakl va metodlar yordamida amalga oshiriladi. Estetik tarbiyaning vositalari o‘quvchilarning go‘zallikni sevish ruhida tarbiyalash maqsadida tevarak-atrofdan tanlab olingan turmush, tabiat, san’at go‘zalligi va bolalarning badiiy faoliyatini tashkil etishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonda qo‘llaniluvchi omillar sanaladi.

Badiiy adabiyot estetik tarbiyada cheksiz imkoniyatlarga ega. U o‘quvchilarga hayotni chuqurroq anglashni o‘rgatadi. Olam va inson go‘zalligi, mardlik, jasorat, yuksak insoniy g‘oyalarni o‘zida aks ettirgan san’at asarlari insonlarni go‘zallikni his qilish, ularga intilib yashashga undab kelgan. Aksincha, g‘oyaviy jihatdan saviyasi past asarlar o‘quvchilar ongini sayozlashtiradi, ularni chinakam go‘zallikdan chalg`itadi, go‘zallikni sevishga bo‘lgan intilishlarini susaytiradi, didini pasaytiradi.

Estetikaning birinchi maktabi–oila. U oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, uy-jihozlari, ularning yagona birligi, uyg‘unligi, tartibli joylashtirilishi, saranjom-sarishtalik, tozalik hamda pokizalik bolalarda nafosatni to‘g‘ri anglashga o‘rgatuvchi ilk qadam hisoblanadi. Maktabning bezatilishi, maktabdagi yodgorlik va a’lochilar burchagi, tadbirlar, bayram tanlovlari, kabilarning barchasi bevosita bolalarda go‘zallikni tarbiyalashda katta ta’sir ko‘rsatadi. Turmush go‘zalligining asosini tozalik va tartiblilik tashkil etadi. Sinf xonalarida tozalik saqlanishi, tabiat burchagining tashkil etilishi, o‘quvchilar ijodiy ishlari ko‘rgazmasi, a’lochilar taxtasi tizimining yangilatib turish ham muhim ahamiyatga ega. Badiiy adabiyot nafosat tarbiyasida cheksiz imkoniyatlarga ega. U o‘quvchilarga hayotni chuqurroq anglashni o‘rgatadi. O‘quvchilarga o‘zbek va chet el adabiyoti haqida ko‘proq ma’lumot beriladi. O‘quvchilar she’rlar, hikoyalar, xalq og‘zaki ijodi namunalari — maqol, matal, ertak, doston, qo‘shiq, qissa va romanlarni qanchalik ko‘p o‘qisa ularda go‘zallikka bo‘lgan intilish shunchalik kuchli bo‘ladi. Shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodiy faoliyati, asarlari bilan tanishish tahlil qilish o‘quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, his-tuyg‘ulari va til boyligini takomillashtiradi. Shuningdek, adabiyot darslari o‘quvchilarda go‘zallikni idrok etishni ta’minlaydi. O‘quvchilar nasriy asarlar, she’rlardan parchalar yod oladilar, buning natijasida o‘quvchilarning badiiy nutq madaniyati ham shakllanadi.

Olam va inson go‘zalligi, mardlik, jasorat, yuksak insoniy g‘oyalarni o‘zida aks ettirgan san’at asarlari insonlarni go‘zallikni his qilish, ularga intilib yashashga undab kelgan. Aksincha, g‘oyaviy jihatdan saviyasi past asarlar o‘quvchilar ongini sayozlashtiradi, ularni chinakam go‘zallikdan chalg‘itadi, go‘zallikni sevishga bo‘lgan intilishlarini susaytiradi, didini pasaytiradi. O‘quvchilarning go‘zallik bilan bevosita muloqotda bo‘lishlari ularga ko‘proq hissiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham o‘qituvchi, tarbiyachilar tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonida o‘quvchilarni badiiy jihatdan yuksak bo‘lgan asarlar va tabiat manzaralari bilan tanishtirishga alohida e’tibor qaratishlari zarur. Tasviriy san’at, haykaltaroshlik va me’moriy asarlar namunalari bilan o‘quvchilami tanishtirish ularda simmetriya, mutanosiblik, chiziqlar, rang va kolorit uyg‘unligini idrok etish tuyg‘ulariga ega bo‘lishlarini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘quvchilar e’tiboriga ezgu g‘oyalarni tarannum etuvchi musiqiy asarlarning havola etilishi, ulardan olinayotgan taassurotlar bilan o‘rtoqlashish ularda musiqiy ohang, ritm, tovushlarning ifodaviyligi va sur’atini his etish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. Adabiy asarlar esa o‘quvchilarning nutq boyligini oshirish, fikrlash qobiliyatini o‘stirish, shaxsiy qarashlarini erkin bayon etishga imkon beradi.

O‘quvchilarda estetikani shakllantirish. Nafosat ongi ijtimoiy voqe`lik, tabiat, san’at bilan bevosita muloqot jarayonida o‘quvchilarni turli nazariya, qarashlar mohiyati bilan tanishtirish, ular o‘rtasida nafosat ta’limi va tarbiyasini tashkil etish

hisobiga shakllantiriladi. Estetik ong asosini nafosat idroki tashkil etadi. Estetika idroki — bu ijtimoiy voqe'lik, buyum va hodisalarning go'zalligini ongda yaxlit aks etishi bo'lib, u go'zallik his etilganda yuzaga keladi va aniq maqsadga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi.

Nafosat tarbiyasining vazifalari quyidagilardan iboratdir: o'quvchilarda nafosat his-tuvg'usi, fikr-mulohaza, didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlari, go'zallikni sevishga bo'lgan hayotiy ehtiyojini o'stirishdan iborat. Insonlar go'zallikni idrok qilish qobiliyatiga ega bo'lganliklari uchun hayajonlanish, qayg'urish, darg'azab bo'lish, quvonish, zavqlanish kabi his-tuyg'ularni boshdan kechiradilar. Bundan tashqari kishi yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan obrazni yoki tabiat, hayotdagi go'zal hodisani idrok qilganidan zavq-shavqqa to'ladi. O'quvchilarda kuzatish madaniyatini tarbiyalash ularning go'zallikka bo'lgan intilishlarini o'stirish uchun juda muhim. Ko'p hollarda bolalar biror narsaga qarab turadilar-u, uning o'zini ko'rmaydilar, quloq soladilar, eshitmaydilar. Shuning uchun ularga tabiatda, o'rmonda tog'lar va cho'llarda turli tovushlarni farq qilishni o'rgatish lozim. Yuqori sinf o'quvchilariga go'zallik, xunuklik, nafosat ideali singari tushunchalarni yoritib berish juda muhim, zero, bu tushunchalarsiz go'zallikka nisbatan munosabat, voqe'lik va borliqqa go'zal munosabat tizimini tarkib toptirib bo'lmaydi. Nafosat haqidagi tushunchalarni o'zlashtirib olish, ajoyib san'at asarini sayoz, past saviyada yozilgan asardan farqlash, o'z fikr-mulohazalarining to'g'ri ekanligini qattiq turib, himoya qilishga yordam beradi. Yuqori sinf o'quvchilari hayot va san'atda go'zallik, xunuklik, zavq-shavqning xilma-xil turlariga duch keladilar. Ular g'oyaviy yo'nalishi va mazmuni jihatdan turlicha bo'lgan badiiy hamda san'at asarlarini o'qiydilar, tomosha qiladilar va tinglaydilar. Ijtimoiy hayot va san'atga oid hodisalarning mohiyatini to'g'ri tushunishda o'quvchilarga go'zallik va uni sevish mavzusidagi darslar, shuningdek, sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan xilma xil mashg'ulotlar yordam beradi. Nafosat didi o'z tabiatiga ko'ra shaxsga xos bo'lgan psixologik hodisadir. Ammo shaxs ijtimoiy munosabatlarning faol ishtirokchisi bo'lganligi uchun u go'zallikni baholash mezonlarini puxta o'zlashtira oladi. Nafosat didi shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan munosabat bildirish turi, ob'yektiv nafosat o'lchovi bo'lib, go'zallik, xunuklik va tubanlikka baho berishda sub'yektiv yondashuvni ifodalaydi. Estetik didni shakllantirishda maktab o'quvchilari o'rtasida nafosat tarbiyasini tashkil etishda samarali shakl, metod va vositalardan oqilona foydalanish ijobiy natijalarga erishishga yordam beradi.

Bolalarda estetikani tarbiyalash juda muhim va maroqlidir. Ularda yorqin va turli ranglarga qiziqishning kuchliligi, bezatish va bo'yashga bo'lgan intilishlarini devorlar hatto buyum, mebellarga chizib ko'rishidan bilinadi. Ularni bu qiziqishlarini to'g'ri baholash va yo'naltirish ularning yashirin iste'dodlarini namoyon etishga imkon beradi. Estetik tarbiya shunday kuchga egaki, san'at asarlaridagi (badiiy

tasviriy) tasvirlangan syujet, hodisa, idrok etishning tasavvurida, xayolida, kechinmalarda estetik hissiyotidan qayta ishlanib, ularning o‘z tajribasiga aylanadi.

O‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berish jarayonida ularni estetik didini tarbiyalashda turli metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Dars jarayonida didaktik o‘yinlar orqali bu maqsadga erishish mumkin, albatta innavatsion - mutlaqo yangi samarali usullardan foydalanish talab etiladi. Darslarni yoki mashg‘ulotlarni butunlay o‘zgacha usulda tashkillashtirish, har bitta darsga alohida yondashish ta’lim tarbiyaga qo‘yilgan vazifalarni to‘liq amalga oshirishga yordam beradi. Maxsus yordamchi maktab o‘quvchilari uchun innavatsion usullar muhim sanaladi. Chunki bunday o‘quvchilarning ta’lim olishida va tarbiyalanishida asosiy muammo bu qiziqishning yo‘qligidadir. Ularga shunchaki ko‘rsatish yoki so‘zlab tushuntirish mumkin emas. Misol uchun ona tili chiroyli yozuvga o‘rgatishni tushuntirishlar bilan anglatish mushkul, hatto yillar ham kamlik qilishi mumkin. Estetik zavq olishni tarbiyalash orqali esa bu ish biroz yengillashadi. Ularning mayda qo‘l matorikasini rivojlantirish uchun tikish, haykaltaroshlik, tasviriy san’at va qo‘l mehnati mashg‘ulotlarini o‘yin tarzida erkin bajarishga imkon berish orqali erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov F., Davletshin M. Odamlar bilan qanday muloqotga kirishish va yondashish kerak. T.: 1996.
2. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shahri» tuzuvchi M. Mahmudov.T.: Xalq me’rosi, 1993.
3. Adizova S. O‘qituvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari. T.: 2002.
4. Адизова Т., Усмонова Е. Психологические трудности в обучении младших школьников. Т.: 1995.
5. Axmedjanov E.R. Psixologiya testi. 1996.

ГАРМОНИЯ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ ВОСТОЧНЫХ И ЗАПАДНЫХ УЧЕНЫХ

Хилола Нъютонова
Магистратура УрГУ Теория и история
Педагогики(по видам деятелъности)
Магистр 1-ступени
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295873

Аннотация: В статъе обсуждается важность нравтвенного воспитания воспитания восточных и западных ученых-ето формирование в человеке хороших качеств и совершенное формирование нравственного воспитания в каждом человеке,в частности, воплощение нравственного воспитания в личности-важная проблема,стоящая обществом.

Ключевые слова: вера, добро, зло, стыд, скромность, честь, нравственное сознание, нравственная идеология, национальная ценность, прывичка, воспитание, интернациолизм, честность, справидливость.

Annotatsiya: Maqolada Sharq va G‘arb allomalarining axloqiy tarbiya orqali insonda go‘zal xususiyatlarning tarkib topishi va har bir shaxsda axloqiy tarbiyani mukammal tarzda tarkib toptirish, xususan axloqiy tarbiyaning shaxda mujassam bo‘lishi jamiyatning oldida turgan muhim masala ekanligi borasida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar:e’tiqod, andisha, yaxshilik, yomonlik, sharm, xayo, nomus, axloqiy ong, axloqiy mafkura, milliy qadriyat, odat, tarbiya, baynalminallik, insof, adolat.

Annotation: The article discusses the importance of moral education of Eastern end Weastern scholars in the formation of good qualities in a person and the perfect composition of moral education in each person, in particular, the incarnation of moral education in the individual.

Keywords: keywords belief, good, evil, shame, modesty, honor, moral consciousness, moral ideology, national value, habit, upbringing, internationalism, honesty, justice.

Нравственность-ето личностная характеристика,объединяющая такие качества и свойсва,как доброто и порядочностъ, дисциплинированностъ и коллективизм.

Григорович.

В понимании нравственного воспитания в истории культуры сложилосъ 4 основные традиции:

❖ Патерналистская (нравсвенное воспитание как опека со стороны старших и их почитание, верностътрадиции);

❖ Религиозно-церковная (нравственное воспитание как выражение интеллектуальново развития и опоры на собственный разум);

❖ Социально-деятельная (нравственное воспитание как деятельное обнаружение человеком своей общественной сущности, формирование активной жизненной позиции).

❖ Многообразные концепции (не всегда, разумеется, в чистом виде) ети традиции, имели, как правило, философский статус – органичивалосъ постановкой вопроса о принципиалъной возможности и общем направлении нравственного воспитания.В тех случаях, когда в них(как, например, у Платона, Ж. Ж. Руссо) содержались развёрнутые нравственно воспитателъные программы и конкретные методики, они оказывалисъ утопическими.

Традиционные теории воспитания предполагают, что воспитатели воздействуют на воспитуемых, учат их, целенаправленно передают им свой опыт, знания, умения, навыки. Нравственностъ, однако, не может быть усвоена таким образом, то естъ чисто внешне, она основывается на личностой автономи; нравственный закон, в отличие от всех других предписаний, является законом самой личност. Выход из этого положения обично усматривася в том, чтобы толковать нравственное воспитание как своеобразное «повивалъное искусство (Сократ, И. Кант). Это означает, что нравственное воспитание не умещается в привычую схему: воспитателъ-воспитуемый, учитель-ученик.

По мысли философа Протагора, в особых учителях (музыки, гимнастики, математики) учат добродетели. Социальные институты (семья, школа, трудовой коллектив, государство и др.) точно так же,наряду со своим прямым назначением, оказывают и нравственное формирующее воздействие на вовлечённых в них индивидов. Процесс воспроизводства нравственности в обществе вписан во всё многообразие социальной деятлъности и осущствлятся попутно. В целом он протекает стихийно и поддаётся целенаправленному воздействию и сознательному контролю-главным образом в форме самовоспитания, самосовершенствования. Каждый человек как социально деятелъное разумное существо несёт полную от ветственностъ за собственное нравственное становление и развитие.

Вместе с тем моральные требования, нормы, нравы получают определенное обоснование в виде представлений о том, как надо человеку житъ, вести себя в обществе и т.д. Мораль исторически конкретна, она изменяется с развитием общества. Нет морали, единой для всех времен и народов. По мере смены общественно-экономических формаций менялись

представления о нравственности.приличествующих нормах поведения в общественной среде.

Философ идеалист Сократ считал, что существуют всеобщие и неизменные нравственные понятия. Целью воспитания, по его мнению, должно быть не изучение природы вещей, а познание самого себя, блага осуществляется главным образом путем воспитания, в том числе и нравственного, которому придается особое значение.[1]

К.М. Хоруженко рассматривает ценность как «представление о том, что свято для человека, класса,группы, общества в целом,их убеждения и предпочтения, выраженные в поведении». Ценности не подвергаются сомнению, они служат эталоном для всех людей.

В настоящей статъе нравственное воспитание рассматривается нами с точки зрения системного подхода к воспитанию, а рамках которого оно интерпретируется как основное направление в целостной системе воспитания, пронизывающее все осталъные. Я.А. Каменскийв своим трактате**,** «Наставление нравов» цитировал народное изречение «Кто успевает в науках, но отстает от добрых нравов, тот болъще отстает, чем успевает». Г. Песталоцци говорил о том, что нравственное пповедение детей формируется не путем нравоучений, а благодаря развитию у них моральных чувств и созданию нравственных наклонностей.

Оченъ высоко оценивал нравственное воспитание Л.Н. Толстой.Он считал, что из всех наук, которые должен знатъ человек, главнейшая сетъ наука о том, как жить,делая как можно меньше зла и как можно больше добра.

Вопрос о нравственном воспитании в то время губока волновал и Марию Константиновну Цебрикову известного педагога, литератора, редактора педагогического журнала «Воспитание и обучение ». Целью нравственного воспитания она считала развитие в ребенки «Чувства собственногодостоинства», В.А. Сухомлинский подчеркивал особую роль правильно организованного воспитательногопроцесса и отводил ему ведущее место в формировании духовно богатой, гармоничной и счастливой личностию.

По Демокриту,нравственный человек должен быть мужественным, господствовать над собственными стремиться к добру, не предаваться праздности, легкомысленному образу жизни,стремиться к гармоничности и умеренности своих желаний, сообразуя их с реальными вожможностями. Средством совершенствования нравственных качеств личности считал систематические упражнения в нравственных поступках.[2]

Целью воспитания у Сократа было познание самого себя, совершенствование нравственности.Высшие добродетели по Сократу: сдержанность справедливость Воспитывающее к мудрости обучение должно

помогать обучаемому самому формировать свои знания. В области педагогики большую роль сыграл сократический метод обучения.

Сократический метод – это метод последовательно и систематически задаваемых вопросов, имеющих своей целью приведение собеседника к противоречию с самим собой и постепенного подведения его к познанию “всеощего” в нравственности как основы истинной морали. Сократ никогда не давал готовых ответов, помогая с помощью наводящих вопросов отыскивать истину:от примеров к правилу, от вещей и конкретных отношений к понятию – этим путем он вел своих собеседников.

Сократ сформулировал педагогические принципы: отказ о принуждения и насилия, использование убеждения, признаваемого им наиболее эффективным методом воспитания.

Платон считал, что воспитание является делом государства в интересах господствующих групп, функция воспитания – "сделать совершенным гражданином, умеющим справедливо подчиняться или начальствовать". Главная задача педагогики – передать потомкам прициpы добродетели и тем самым укрепить разумную часть души: "Воспитание есть привлечение и приведение детей к такому образу мыслей, который законом признан правильным, и в действительной правильности которого убедились к тому же на опыте люди самые почтенные и престарелые”.

Аристотель выделил три стороны воспитания:

- Нравственное;
- Умственное;
- Физическое;

Нравственное воспитание Аристотель строил, исходя из своих философских этических воззрений, определяя добродетель как хорошую,подчиненную требованиям разума деятельность. Нравственное воспитание детей основывается на упражнении в нравственных поступках.

Нравственное воспитание становится для человека значимым, а потому и ефективным, если педагог заботится о выполнении следующих условий

•Обеспечивает эмоциональнуюнасыщенность общей деятельности, организует совместый коллективные услуги и переживания, обьедииющие ее участников;

•Создает атмосферу эмоционально-волевого напряжения, ведущего к успеху;

•Учитывает положительное воздействие общественного мнения выполняющего функцию эмоционального заражения;

•Заботится о создании атмосферы доброжелательного взаимопонимания.

Нравственное воспитание эффективно осуществляется как целостный педогогический процесс, когда он соответствует нормам общечеловеческой морали и организации всей жизни воспитуемых с учетом их возрастных и индивидуальных особенностей. Результатом этого процесса является формирование личности с ее нравственными чувствами, волей, привычками, поведением.

Л.А. Григорович в своих иследованиях содержание нравственного воспитания рассматривал через гуманность. «Гуманность – это интегральная характеристика личности, включающая комплекс ее свойств, выражающих отношение человека к человеку. Как качество личности гуманность формируется в процессе взаимоотношений с другими людьмы: внимательности и доброжелательности; умений понять другого человека; в способности к сочувствию, сопереживанию;терпимости к чужим мнениям, верованиям, поведению, в готовности прийти на помощь другому человеку».[3]

Нормы морали преобразуются в субьективную нравственность благодаря их чувственному освоению человеком. Нравственность для него, прежде всего, живое чувство, реальное состояние и переживание глубокого удовлетворения или, напротив, дискомфорта, страдания, физического отвращения, самоосуждения и горького раскаяния. Нравственное чувство является системообразующим началом человеческой нравственности.

Б.Т. Лихачев считает, что результатом нравственного воспитания является нравственная воспитанность. Она материализуется в отношениях, деятельности, общении. О нравственной воспитанности свидетельствует глубина нравственного чувства, способность к эьоциональному переживанию, мучениям совести, страданию, стыду и сочувствию. Она характеризуется зрелостью нравственного сознания:моральной образованностью, способностью, анализировать, судить о явлениях жизни с позиций нравственного идеала, давать им самостоятельную оценку.

«Нравственная в воспитанность – это устойчивость положительных привычек и привычных норм поведения, культура отношений и общения в условиях здорового коллектива. Она проявляется в активной жизненной позиции, единстве слова и дела, гражданском мужестве и решимости в сложных жизненных ситуациях оставаться верным своим убеждениям, самому себе».

Большой вклад в изучение проблем нравственного воспитания личности внес В.А. Сухомлинский. В своей работе «Рождение гражданина» он делает вывод, что благодаря моральной привычке нормы общественной сознательности и общественной морали становятся духовным приобретением личности. «Без моральной привычки невозможны самоутверждение,

самовоспитание, уважение к самому себе. Оценка нравственного чувства как основообразующего начала не означает пренебрежения нравственным сознанием. Развитое нравственное сознание предполагает знание моральных принципов, норм, постоянное осознание и осмысление своего нравственного положения в обществе. Источник моральных привычек – в единстве глубокой сознательности и личной эмоциональной оценки явлений, взаимоотношений между людьми, их моральных качеств. Моральные привычки – это азбука моральных идей и убеждений».

Единству воспитания нравственного сознания и поведения А.С. Макаренко придавал большое значение, считал,что детей следут вооружить теорией морали. Вместе с тем он утверждал, что воспитание сознания. Воспитание нравственного поведения – это формирование нравственных привычек. Поступок характеризует отношение человека к окружающие условия,определенным образом организовать жизнь воспитанников. Нравственная привычка – это потребность к совершению нравственных поступков. Привычки могут простые, когда в их основе лежат правила общежития, культуры поведения, дисциплины, сложные когда у воспитанника создаются потребность и готовность к выполнению деятельности,имеющей определенное значение. Для успешного формирования привычки необходимо, чтобы мотивы,с помощью которых детей побуждают к действиям, были значимыми в их глазах, чтобы при необходимости дети было способны проявить определенные усилия воли для достижения результата.

Нравственное воспитание эффективно осуществляется только как целостный процесс педагогической, соответствующей нормам общечеловеческой морали, организации всей жизни ребенкас учетом их возрастных и индивидуальных особенностей. Результатом целостного цельной личностив единстве сознания, нравственных чувств, совести, нравственной воли, навыков, привычек,общественногоценного поведения.

Нравственное воспитание – не заучивание моральных норм и бездумная отработка привычек поведения.

Процесс нравственного воспитания только тогда эффективен,когда педагог имеет обратную информацию о действенности воспитательных влияний и учитывает эту информацию воспитатель получает толька из жизни, из повседневного изучения практики отношений и деятельности в среде воспитуемых. История человечества помнит многих людей, которые задали достаточно высокую планку нравственной жизни: это и основатели мировых религий (Христос, Магомет, Будда), и множество достойных людей, которые делали это просто потому, что считали это своим личным долгом. Назовем только тех,кто лучше знаком нашим читателям: Махатма Ганди, Мать Тереза, в

России – Серафим Саровский, Лев Толстой. В той или иной степени если не о воспитании, то хотя бы поддержании нравственности всегда заботились государство и церковь.

И.С. Марьенко «нравственность – неотъемлемая сторона личности, обеспечивающая добровольное соблюдение ею существующих норм, правил, принципов поведения. Они находят выражение в отношениик Родине, обществу, коллективу,отдельным людям,к самому себе».[5]

С.И. Миропольский не принимал позицию многих современников о необходимости перенимать опыт Запада. Он считал, что в России накоплен большой опыт, и в теории, и в практике. Основа школы должна быть национальной, сохранять традиции и следовать им. Эти традиции носят православный характер, напровленный на развитие религиозно-нравственных чувств в человеке. Для С.И. Миропольского дело воспитания молодых душ – это святая обязанность каждого, кто посвятил себя социально-педагогической деятельности.

Известно, что классик таджикской литературы поет Абдурахман Джами и основоположник узбекской литературы поет Мир Алишера Навои принадлежат к числу великих мыслителей таджикской и узбекской, художественной педагогической и общественно – политической мысли XV века.Их литературно – педагогическое наследие сыграло огромную роль в деле обучения и воспитания молодёжи многих народов Востока, Центральной Азии.

Нравственный прогресс по Ушинскому лежит в основе любого другого прогресса. Причем этот прогресс напрямую связан с абсолютным пониманием нравственности,с Богом. Духовное понимание нравственности вообще было присуще нашей национальной культуре. Так, говоря о различии идеала воспитания в русской и западноевропейской культуре, выдающийся русский мыслитель А.С. Хомяков писал:Человеческому духу присуще стремление к идеалу, по совершенству которого он бы смог настраивать свое внутреннее несовершенство Если вы хотите не дрессировать человека, а воспитывать его, дайте ему этот идеал и поставиыте дело так, чтобы в самом этом идеале было сило,притягивающая к себе человеческую волю».

Нравственных проблем К.Д. Ушинский касается в своим главном труде - «Педагогической антропологии». Сейчас идет много споров о месте теории Дарвина в естествознании: одни считают ее единсвенно научной в вопросе происхождения и развития всего живого на Земле, другие полагают, что она противоречит жизни и развития человечества.[7]

Таким образом, нравственным следует считать такого человека,для которого нормы, правила и требования выступают как его собственные взгляды и убеждения, как привычные формы поведения. Говоря точнее, в своем

истинном значенни нравственность не имеет ничего общего с послушно – механическим исполнением, вынужденным только внешними требованиями установленных в обществе моральных норм и правил. Она есть как не что иное,как внутренниий категорический императив личности, в качестве побудительных сил которого выступают ее здоровые общественные потребности, связанные с ними моральные знания, взгляды, убеждения и идеалы. Лихачев так сформулировал порядок поведения личности имеет следующии последовательность:жизненная ситуация – порождаемое ею нравственно – чувсвенное переживание – нравственное осмысление ситуации и мотивов поведения, выбор и принятие решений – волевой стимул – поступок.

Итак, понятие «нравственное воспитание»имеет широкий социальный, педагогический смысл, направленный на формирование всестороние развитой, морально устойчивой личности. На современном этапе общество поглощено проблемами рыночных отношений, нестабильностью экономики, политическами сложностями, которые разрушают социальные связи и нравственные устои. Это ведет к нетерпимости и ожесточению людей, разрушает внутренний мир личности. Именно поэтому педагоги, решая сложные задачи воспитания, должны помочь каждому воспитаннику определить ценностые основы собственной жизнедеятельности, обрести чувство ответственности за сохранение моральных основ общества. Этому поможет нравственное воспитание, органически вплетенное в учебно-воспитательный процесс и составляющее неотьемлемую часть.

Список литературы:

1. Бабанский Ю. К. Педагогика. – М., 1988.
2. Марьенко И. С. Нравственное становление личности. – м., 1985.
3. Григорович Л. А. Педагогика и психология. – М., 2001.
4. Яновская М. Г. Нравственное воспитание и эмоциональная сфера личности. – 2003.
5. Ушинский К. Д. О необходимости сделать русские школы русскими // Педагогические сочинения М., 1988.
6. Харламов И. Ф. Педагогика. – М., 1990.
7. Подласый И. П. Педагогика. – М., 1999.

O‘ZBEK QISSALARIDA KONFLIKT

Raximov Shuxratbek Amanboyevich
Mamadaliyeva Mashhuraxon Erkinjon qizi
Andijon viloyati Shahrixon tumanidagi
44-IDUMning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295875

Annotatsiya: Ushbu maqolada konflikt asarning janr xususiyatlariga va muallifning maqsad va uslubiga qarab turli-tuman ko‘rinishlarga ega ekanligini hozirgi o‘zbek qissalari misolida ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: konflikt, syujet, realism, detal, xarakter, qahramon, epizot, persanaj.

I Sultonning “Konflikt – syujetning o‘zani”[1] - degan gapidan konfliktning badiiy asarda qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini bilib olsa bo‘ladi. Agar badiiy asar ziddiyatlar asosiga qurilmasa, bunday asarning saviyasi yuqori bo‘lmasligi bizga tarixdan ma`lum. Masalan, sotsialistik realizmning ilk bosqich davrini olaylik, hukmron mafkura tomonidan sotsialistik realizm metodining o‘ylab chiqarilishi adabiyot uchun juda katta salbiy ta`sir ko‘rsatdi. Bu davrga kelib badiiy asarlarda konfliktning kuchsiz ko‘rinishga kelganligini o‘sha davrda yaratilgan asarlardan hammaga ma`lum. Akademik Matyoqub Qo‘shjonov o‘sha davrlarni keyinchalik yodga olar ekan, quyidagi fikrni bildiradi. “Qirqinchi yillarning oxirlari, elliginchi yilning boshlari. Adabiyot va san`atda mash`um “konfliktsizlik nazaryasi”ning ayni avjiga chiqqan bir paytlari. “Hayotni real aks ettirish kerak” deyishning o‘rniga uni “mana bunday ko‘rsatish kerak, mana unday aks ettirish kerak” deydigan da`volarning oshib-toshib yotgan davri. Yozuvchi qaysi tomonga qaramasin “mumkin emas” degan belgilar katta harflar bilan yozib qo‘yilgan bo‘lar edi. Bu xildagi yozuvlar qatorida nimalar mumkin ekani ham ko‘rsatilgan bo‘lar edi. Yozuvchi shularga qarab asar yozishga majbur edi”[2]. Olimning fikrlariga tayanib shuni aytish mumkinki, mavjud tuzum nafaqat adabiyotni, balki san`atning barcha turlarini bosim ostida ushlab turishi san`atning barcha turlari uchun katta salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Millat ruhini ko‘rsatib beruvchi adabiyotni madhiyabozlikka aylantirishga harakat qilindi. Buning natijasida adabiyotda “konfliktsizlik nazaryasi” vujudga keldi. Misol uchun, o‘sha davrda yaratilgan G‘. G‘ulomning “Yodgor” qissasini ko‘rib chiqsak, unda konfliktsizlikni yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Masalan, qissada

[1] . Izzat Sulton. Adbiyot nazaryasi. Oliy va o’rta mahsus talabalari uchun datslik. T: O’qutuvchi nashryot-Matbaa ijodiy uyi. 2005-y. B. 109.
[2] M. Qo’shjonov “Abdulla Qahhor mahorati”. Monografiya. T: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashryoti. 1988-y. B. 181.

uylanmagan yigit Joʻrani uyiga bir begona bolani oʻz oʻgʻlim deb koʻtarib kelish voqealarini oʻqiyotgan oʻquvchi bu narsa katta zidiyatlarga sabab boʻlishi mumkinligini xayolidan oʻtkazadi, ya'ni bu narsa bizning mintaletimizga toʻgʻri kelmaganligi uchun oila a'zolari undan yuz oʻgiradi yoki qattiq tanqidiga uchraydi, degan taxmin xayolizdan beixtiyor jonlanadi, ammo siz kutgan natija yuz bermaydi, uning oila a'zolari nomigagina norozi boʻlib, bolani qabul qilishadi. Ammo qissada butunlay konflikt yoʻq deb ham boʻlmaydi. Qissada ziddiyatlari ham uchrab turadi. Ammo bu zidiyatlar oʻta keskinlashmasdan oʻz yechimini topib ketadi. Shunday qilib, sotsialistik realizmning ilk davri prinsipiga binoan, har qanday odamlarni asarlarda baxtli deb tasvirlanishini, ziddiyatlarni oʻta keskinlashib ketmasligini "Yodgor" qissasi misolida koʻrishimiz mumkin.

Mustaqillik davri oʻzbek adabiyotida epik turning rivojlanib borayotgani quvonarli hol, albatta. Bugungi kun oʻzbek xalqining hayotida yuz berayotgan hodisalarni badiiy yoʻsinda adabiyotda aks etib borishi epik turning bir janri sifatida qissachlikda ham koʻzga tashlanadi. Qissalar syujetida talqin qilinayotgan konflikt, avvalo, insonning ong oqimiga ta`sir oʻtkazmoqda. Bu qissalarda hayotning murakkab qirralari, shaxs va jamiyat oʻrtasidagi ziddiyatlar, insonning botiniy olamidagi konfliktlar teran talqin etilmoqda. San`atkorlar davr talabidan kelib chiqan holda ijod qilmoqdalar. Ularning ijodiga nazar solsangiz, avvalo, shunga amin boʻlasizki, ular inson muammolarini koʻtarib chiqishdan toʻxtab qolgani yoʻq. Bu oʻrinda hozirgi oʻzbek adabiyotida ma`lum darajada oʻrin tutayotgan Abduqayum Yoʻldoshevning "Yurakdagi iz" qissasini qisqacha koʻzdan kechirib oʻtaylik.

Qissada inson taqdiri bir maromda kechmasligi, u hayot davomida turli sinovlarga uchrab, shu sinovlar oldida ojiz qolishi mumkinligi koʻrsatilib oʻtiladi. Qissa qahramoni Erjigit taqdir oldida ojiz qoladi, uning bir maromda kechayotgan hayoti kutilmaganda turli muammolar girdobida qoladi. Erjigit obroʻli oilada tugʻilib oʻsgan, boshqa yoshlar kabi uning ham qalbi orzu-umidlarga toʻla edi, ammo uning bobosidan meros qolgan qobiliyat, uning hayotini zulmatga qarata otib tashladi (bobosi odam koʻrmasa kasal boʻli qolardi, ya`ni u hozirgi til bilan aytganda ekstrasens edi). Erjigitga avvallari yaxshi munosabatda boʻlgan atrofdagi kishilar uning dardi nimadaligini tushunmay turib, Erjigitni jinniga chiqarib qoʻyishi uning ruhiyatiga ta`sir oʻtkazmay qoʻymadi. U odamlarning bunday munosabatidan ruhan azob chekadi. Hatto, turmush oʻrtogʻi ham unga "jinniga" qaraganday munosabatta boʻlishi, uning oilasini tashlab sarson kezishiga sabab boʻldi. Erjigitni hayotidagi bu kabi muammolar uning hayotga va insoniyatga boʻlgan munosabatini butunlay oʻzgartirib yubordi va uning qarashlarida konflikt yuzaga keldi. Bu konflikt uning ichki olamini koʻrsatib turadi. Asar kulminatsiya tomon borar ekan, unda Erjigitning ruhiy olamini sezib boramiz. Erjigitning oʻzi bilmagan holda bir oilani badnom qilishi va shu qilgan ishi natijasida ruhiyatida kuchli ichki konfliktning yuzaga keladi.

Tabiatan sodda, halol bo‘lgan Erjigitni taqdir o‘z izmiga solib, uni har tomonga uloqtiradi. U taqdir izmidan qochib qutilishning ilojsizligidan qiynaladi, bu qiyinchiliklardan qutulishning faqat bir yo‘li, ya’ni u ham bo‘lsa, o‘lim ekanligini tushunib yetadi. Erjigitni atrofidagilari unga ishonchsizlik bilan qarashidan, u ishongan odamlar esa o‘z manfaatlari uchun undan foydalanishga uringanligidan azoblanib yashadi va shu azoblardan qutilish uchun o‘limni tanladi. Ko‘rib turganimizdek, “Yurakdagi iz” qissasining syujetini harakatga keltiruvchi asosiy ziddiyat bu ichki konflikt, bunday o‘tkir ziddiyatli ruhiy konfliktlarni biz Nazar Eshonqulning “Tun panjaralari” va “Qora kitob” kabi qissalarida ham kuzatamiz.

Kulman Ochilning “Qasd” qissasini ko‘zdan kechirsangiz unda konfliktning o‘tkir qirralariga duch kelasiz. Qissaning nomi va epigrafi (Bul odam o‘lmay qo‘lga tushmaydi) orqali ham qissaning naqadar o‘tkir syujetga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Qissadagi personajlarning o‘rtasidagi o‘zaro ziddiyatlar, qissa personajlarining ichki dunyosini ochishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Qissa qahramoni yillar davomida o‘zini qiynab kelgan azobli xotiralarini o‘limi oldidan matbuotga maktub qilib yo‘llaydi. Qahramonni yoshlikda qilgan mudxish jinoyati umri davomida uni vijdon azobida qiynab kelgan. U qilgan ishidan pushaymonlik ruhida ekanligini “Qasd va alam o‘tida yonib, o‘zimni hadsiz ranj-u alamlarga giriftor qildim. Aql idrok bilan qilgan tadbirim meni adolat va hidoyat yo‘liga olib chiqadi, deb o‘ylagan edim. Kushoyim topish o‘rniga, talvasa girdobiga cho‘kib ketdim.

Bu kun g‘am va anduh, xastalik va keksalik ham vujudimni, ham shuurimni beayov yemirmoqda. Yo‘q, kemirmoqda”, -degan gaplaridan ko‘rib turamiz. Qissadan olingan bu parcha konfliktning ilk ko‘rinish tugun vazifasini ham o‘taydi.

Uning bir maromda kechayotgan hayotini ukasi Bobodo‘stning Qambar bilan to‘qnashuvidagi halokatli o‘limi alg‘ov-dalg‘ov qilib tashladi. Domla, avvaliga, “ukamning xunini olaman, deb o‘lib turganim ham, bunday dardisarliklarga tobi toqatim ham yo‘q edi”, - deydi, ammo uni aka-ukalardan ukasi uchun qasd olishga undagan bir necha omilar bor. Qambarning akasi Bozor ukasining bu jinoyatini amal kursisidan foydalanib, bosti-bosti qilib yuborishi, domla na ichki ishlar, na aka-ukalardan sado chiqmagandan so‘ng, yuqoriga yozganida yuqoridan ham tuzukroq javob bo‘lmagani, Qambarning go‘yo “odamni emas, besar mushukni, mushuk nima, ko‘lmakdagi qurbaqani bosib ketgan kabi. Hech vaqo bo‘lmaganday ishiga – elektr tarmoqlari idorasiga qatnab, avvalgiday to‘yma-to‘y ichib yurishi, otasini va yaqinlarini dashnomlari, mahalla oqsoqoli Eshon sho‘ro elchi bo‘lib borganda Bozorning “Qoraqo‘ng‘izdan ham, bolasidan ham qo‘rqadigan joyim yo‘q”, - deb otasini va o‘zini haqorat qilishi, Bobodo‘stning xotini bilan Bozorning o‘ynash tutingani haqida mish-mish tarqalishi kabilar akaning nafaqat Qambarga, balki uning akalariga nisbatan ham qasos olish uchun yetaklaydi. Muallif asardagi ziddiyatlarni

shunday holatlar bilan isbotlab boradi. Bu esa asar voqealarini ishonarli chiqishini ta’minlaydi.

“Qasd” qissasi qahramoni kabi o‘z jigarini ayanchli taqdiri uchun achchiq alamlar girdobida qolib, uning xunini olishga bor vujudi bilan kirishgan qahramonni biz Xurshid Do‘stmuhammadning “Chayongul yoxud quyi qishloqcha qotillik” qissasida ham uchratishimiz mumkin. Hali maktabni bitirishga ulgurmagan yosh Gulshodning Ashur tomonidan zo‘rlanishi va Ashurning oilasidagilar uning Ashurga olib berishdan bosh tortishi, Gulshodning oriyat kuchidan o‘z joniga qasd qilishiga olib keladi. O‘z jigarini bunday xo‘rlangan holda vafot etishiga tabiatan badjahl bo‘lgan Gulgun tek qarab turolmaydi, avvaliga u ham domla kabi ichki ishlar xodimlariga murojaat qiladi, ulardan hech qanday naf chiqmagandan so‘ng singlisi uchun o‘zi o‘ch olishga kirishadi. G‘azab va alam Gulgunni qo‘liga qurol olib Ashurlar xonadoniga yetaklaydi natijada Ashurlar oilasida ham bir kishining umri ayanchli tarzda yakun topadi.

Sobir O‘nar “Dunyo shundoq tururmi?” qissasida yosh oilalarning arzimagan sabablar buzilib ketishi tanqid ostiga olinadi. Asarda yuz bergan ziddiyatlar**,**asosan, er-xotin o‘rtasida yuz beradi. Yozuvchi shu bir kichkina oila orqali hozirgi vaqtda yosh oilarida yuz bergan muammolarni ko‘tarib chiqdi. Mag‘rifatni xonadonni pokiza tutmasligi, kirlarni bir haftalab, kerak bo‘lsa oylab yuvilmasdan tog‘orada turishi, eri cho‘ntagini tikib ber – deb bergan shimini bir hafta bo‘lsa ham tikib qo‘ymagani Shirinqulning xotiniga nisbatan sovuq munosabatda bo‘lishiga sabab bo‘ladi, natijada er-xotin o‘rtasida janjal chiqadi. “Dunyo shundoq tururmi?” qissasida S. O‘nar er-xotin o‘rtasidagi murakabli o‘zaro munosabatlarini tasvirlash orqali ijtimoiy konfliktni badiiy tarzda mahorat bilan ko‘rsatib bera olgan. Bu kabi oilada ya’ni er-xotin o‘rtasida yuzaga kelgan ziddiyatli to‘qnashuvlarni biz O. Yoqubovning “Qanot juft bo‘ladi” qissasida ham kuzatamiz. “Qanot juft bo‘ladi” qissasida oltmishinchi yillarda yoshlarning zamonaviylikka intilishi garchan oilali bo‘lishiga qaramasdan Sayyorani ham chetlab o‘tmaydi, uning qalbida yuzaga kelgan yengil-yelpi hayotga bo‘lgan muhabbat oilaviy tuyg‘ulardan ustun keladi. Shu tufayli u Akramning rashki kelishiga qaramasdan har xil bazm-jamshidlarga borishdan o‘zini tiya bilmaydi. Akram tabiatan og‘ir bosiq bo‘lganligi tufayli xotinining bu qiliqlari uning uchun ahmoqona bo‘lib tuyiladi. Shu kabi tushunmovchiliklar sababli ular o‘rtasida yuzaga kelgan konflikt qahramonlar xarakterini ochib boradi. “Qanot juft bo‘ladi” qissasida Akram va Sayyora bir-birini tushunmasdan oila tinchligiga putur yetgan bo‘lsa ham, ular hayotning o‘zi o‘ylaganday emasligini tushunib yetadilar va asarning yechimida ularning oilasi tiklanganini ko‘ramiz. “Hayot shundoq tururmi?” qissada Shirinqul bilan Mag‘rifatning zil ketgan oilasi qayta tiklangani bilan uning oxiri fojia bilan, ya’ni Mag‘rifatning o‘limi bilan yakun topadi. Qissa syujeti shu kabi ijtimoiy konfliktlar asosida harakatlanib boradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, konfliktsiz badiiy asar yasholmaydi, yozuvchining asosiy maqsadi ham o‘z asarlarida ma’lum bir davrning ijtimoiy konfliktlarini ifodalashdan iborat. Shu ijtimoiy konfliktlar orqali san’atkor asar yoritayotgan davrga o‘z munosabatini bildiradi, davr kishilarining xarakterini ochib beradi. Yuqorida keltirilgan qissalarimiz ham ma’lum bir davr va muhit kishilarining turmush-tarzi, o‘y-xayollarida yuz berayotgan ijtimoiy konfliktlarni yoritib bergan. Bu qissalarida yoritilayotgan konliktlar teran va ahmiyatli ekanligi, shubhasiz. Masalan, A. Yo‘ldoshevning “Yurakdagi iz” qissasida konflikt**,**asosan, inson va muhit orasida yuz beradi, Erjigit kelajagida amalga oshirmoqchi bo‘lgan orzu-umidlari birgina bobosining o‘limidan oldin, uning og‘ziga tupurib qo‘yish bilan sarobga aylanadi. Shu kichkina detal orqali qahramon orzulari chilparchin bo‘ladi. U bu taqdirga qanchalik qarshi chiqib o‘zgartirishga harakat qilmasin, buning uddasidan chiqa olmaydi. Q. Ochilning “Qasd” va X. Do‘stmuhammadning “Chayongul yoxud quyi qishloqcha qotillik” qissalarida esa konflikt**,**asosan, shaxslar o‘rtasida yuz berib, g‘azab va alam ko‘zlarni ko‘r qilishi, odamni insoniylik yiroqlashtirib qo‘yishi mumkin ekanligini ko‘rish mumkin. S. O‘narning “Hayot shunday tururmi” qissasida esa bugungi hayotimizda yuz berayotga ijtimiiy konfliktlar teran badiiy ravishda yoritilib berilgan. Shunday qilib konflikt badiiy asarlar ko‘lamini belgilab turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. Sulton. Adabiyot nazaryasi. – T.: O‘qituvchi nashriyot – Matbaa ijodiy uyi, 2005.
2. M. Qo‘shjonov. Abdulla Qahhor mahorati. Monografiya – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1988.
3. U. Rasulova. Qissalar tahlili. Maqola. // Sharq yulduzi, 2016, 4-son. B, 128-131.
4. Odil Yoqubov. Saylanma. Uch jiltlik ikkinchi jilt. Roman va qissa. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986.
5. X. Do‘stmuhammad. Chayongul yoki quyi qishloqcha qotillik. Qissalar. – T.: “Sharq” nashryot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2011.
6. Q. Ochil. Qasd. Qissa. // Sharq yulduzi, 2016, 10-son. B, 16-38.
7. A. Yo‘ldoshev. Alvido go‘zallik. Qissalar, hikoyalar. – T.: O‘zbekiston, 2011.
8. Sobir O‘nar. Bibisora. Qissalar, hikoyalar, esselar. – T.: O‘zbekiston, 2011.
9. N. Eshonqul. Yalpiz hidi. Qissalar, hikoyalar. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2008.

ҚОВУННИНГ ФУЗАРИОЗ СЎЛИШ КАСАЛЛИГИ. (ФУЗАРИОЗ ВИЛТ)

Анваржон Хайдаров
Аҳаджон Жамолов
Ўсимликлар карантини ва ҳимояси илмий тадқиқот институти Фарғона филиали катта илмий ҳодимлари
Аброржон Эргашев
Ўсимликлар карантини ва ҳимояси илмий тадқиқот институти Фарғона филиали тадқиқотчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295881

Ўзбекистон ўзининг ширин-шакар қовунлари билан дунёга машхурдир. Лекин охирги йилларда бу экин экиладиган майдонлар ва уларнинг ҳосилдорлиги камайиб бормоқда. Бунга агротехник тадбирларнинг бузилиши, қовун касалликларини кенг тарқалиши ва уларга қарши кураш чораларини тўла-тўкис амалга оширилмаётганлиги сабаб бўлмоқда.

Ўзбекистонда ва қўшни мамлакатларда қовун етиштиришда энг катта зарар келтирадиган ва соҳа ривожланишига тўсиқ бўлиб келаётган иккита замбуруғ касаллиги фузариоз сўлиш ва ун-шудрингдир.

Қовуннинг фузариоз сўлиш касаллиги ва унинг келиб чиқиш сабаблари: Қовуннинг фузариоз сўлиш (Fusarium oxysporum f.sp. melonis) касаллигини тупроқдаги сапрофит замбуруғлар қўзғатади. Бу замбуруғлар ўсимлик тўқималарига киргач, ундаги шира билан озиқланиб, текинхўрлик (паразитлик) қила бошлайди. Замбуруғнинг хаёт фаолияти жараёнида пайдо бўладиган моддалар (токсинлар) қовун палаги тўқималарида замбуруғ мицелийлари йиғилиб қолиб сув ўтказиш йўлларини тўсиб қўяди, иккинчи томондан улар кўпроқ тўпланиб қолса, ўсимликни захарлайди. Натижада ўсимлик ё вақтинча сўлийди ёки бутунлай сўлийди ва ўлади. Ўсимликнинг токсинлар таьсирининг енгил, ривожланиш жараёнини давом эттириши унинг касалликка қарши тура олиш қобилияти (иммунитети) ва чидамлигини белгилайди.

Замбуруғ таъсирида ўсимлик органларида содир бўладиган ўзгаришларнинг барча сабабларини билмасдан, унинг касалликка чидай олиш ва юқори хосил бера олиш кобилиятларини аниқ белгиламасдан туриб у ёки бу тадбирни ишлаб чиқаришга жорий қилиб бўлмайди. Ана шу жумбоқлар ўрганилгач, турли агротехник тадбирлар (ўсимликнинг озиқ ва сув режими, ерни ишлаш)ни ишлаб чиқиш ва амалда қўллаш йўли билан ўсимликларнинг касалликка чидамлилик қобилиятини ошириш мумкин бўлади. Шуларни ҳисобга олиб, биз ўсимлик танасида борувчи жараёнларни турли шароитларда ўрганиб чиқдик.

Фузариоз сўлиш (вилт) билан қовун барча ўсиш ва ривожланиш фазаларида зарарланади. Ёш майсаларнинг уруғбарглари, пояси ва илдиз бўғзида қайноқ сувга куйганга ўхшаш, сўнгра қўнғир тус олувчи доғлар ривожланади, улар чирийди ва майсалар қуриб қолади, экин сийрак бўлиб қолади. Ўзбекистонда эртапишар қовун навлари майсаларининг 43-86 фоизи нобуд бўлгани қайд этилган.

Фузариоз сўлиш экинларда мева ривожланиши ва пиша бошлаши пайтида кўплаб учрайди. Олдин ўсимликнинг пастки ярус баргларида қўнғир доғлар пайдо бўлади ва улар юқори ярус баргларига ўтади.

Палаклардан бири ёки бир нечтаси, сўнгра бутун ўсимлик сўлийди. Илдиз пўсти титилган шакл олади, усти кукунга ўхшаб қолади. Баъзан ўсимлик касалликка мавсум сўнгигача қаршилик кўрсатади, сўлимайди, аммо улар заиф, палаги калта бўлиб қолади, кам ҳосил тугади. Касалликнинг тез шакли кузатилганда ўсимлик 1-2 кун ичида сўлиб қолади.

Сўлишининг сабаби – ўсимликнинг ўтказувчи тўқималари замбуруғ мицелийси билан тўлиши ва сув ўтмай қолишидир. Сўлиган ўсимликларнинг илдизи ва пояси кесиб кўрилганда, уларда сарғиш, жигарранг ва қўнғир доғларни кўриш мумкин, аммо бу доғлар ҳар доим ҳам мавжуд бўлмайди.

Фузариоз сўлиш қовун ҳосилини 30% гача камайтиради. Fusarium oxysporum f.sp. melonis тор ихтисослашган, фақат қовунни зарарлайди ва у бошқа полиз экинларини зарарламайди.

Қўзғатувчининг 4 та физиологик ирқи мавжуд, улар айрим қовун навларини заралаши билан фарқланади. «Ўзбекистон сабзавот, полиз ва картошка экинлари илмий-тадқиқот институти» ходимлари томонидан қовуннинг фузариоз сўлишга (ва ун-шудрингга) чидамли навлари ва гибридлари (ширали, суюнчи, олтин тепа, лаззатли, олтин водий, тўёна, зарчопон, гурлан ва амударё) яратилган ва районлаштирилган.

Патоген ривожланиши учун муътадил ҳаво ҳарорати 25-28^{o}C, минимум 12^{o}C ва максимум 34^{o}C; қишда замбуруғ -15^{o}C совуқда ҳам нобуд бўлмайди.

Экин ичида ва бошқа далаларга касаллик тупроқ заррачалари, тупроққа ишлов бериш асбоб-ускуналари ва суғориш сувидаги замбуруғ пропагулалари (мицелий парчалари, конидиялари ва ҳ.к.) орқали тарқалади. Мавсумдан мавсумга касаллик ўсимлик қолдиқлари ва камроқ даражада (3-8% гача) уруғлар билан ўтади.

Замбуруғ ўсимликларга илдизлари ва зарарланган тўқималари орқали киради. У тупроқда кўп йил сақланиши мумкин.

Олиб борилган илмий-тадқиқот ишларининг натижалари ва илғорлар тажрибасига таяниб қовун экиш ва уни парваришлашда қуйидаги уйғунлашган кураш чора – тадбирларига амал қилишни тавсия этамиз:

Касаллик мавжуд бўлган далаларга 4-5 йилгача қовун экмаслик; турли сабзавот экинлари ва бедадан бўшаган ерларга қовун экиш яхши натижа беради; шоликорлик яхши ривожланган хўжаликларда қовунни шолидан бўшаган ерларга экиш яхши натижа беради; янги ўзлаштирилган ерларга қовун экиш хам ижобий самара беради, бу ерларда касалик бўлмайди ёки жуда ҳам оз бўлади. Ерларни чуқур шудгорлаш; тупроқ шўрини ювиш; суғориш режимига риоя қилиш; сўлишга чидамли навлар экиш; уруғликни фақат соғлом ўсимлик меваларидан олиш, экишдан олдин уни микроэлементлар (Fe, B, Zn, Mn, Cu) эритмасида ивитиш, қуритиш ва самарали фунгицид (мисол учун, Витавакс 200 FF) билан дорилаш; таркибида элементлар баланси мавжуд бўлган ўғитларни киритиш; ўсимлик қолдиқларини даладан чиқариб, ёқиб юбориш тавсия қилинади.

Ўзбекистонда экинга суперфосфатнинг 5% ли эритмасини 3 марта (экин 4-10 барг чиқарганда, гуллаш-мева тугиш пайтида ҳамда мевалар пиша бошлаганда) пуркаш касалликка қарши яхши натижа беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Попкова К.В. Учение об иммунитете растений-М: Колос.-1979.
2. Шералиев А.Ш.,Рахимов У., Ўсимликлар иммунитети. Тошкент-2005.
3. Шералиев А.Умумий ва қишлоқ хўжлиги фитопатологияси, Талқин 2004.
4. Шералиев А.Қишлоқ хўжлиги фитопатологияси, Талқин 2007
5. Шералиев А.Умумий ва қишлоқ хўжлиги фитопатологияси, Талқин 2004.

SOLENOIDAL VEKTOR MAYDONLARNING LI ALGEBRASI

Ergashali Axadjon o`g`li Akramov
Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy Universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295883

Annotatsiya: Ushbu tezisda vektor maydonlar, Li algebrasi va solenoidal vektor maydon ta`riflari yoritib berilgan, ularga doir misollar ko`rib chiqilib qisqacha bayoni keltirib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** vektor maydon, integral chizig`i, Li algebrasi, solenoidal vektor maydon, divergensiya, rotir.

Bizga biror α tekislik va $\Omega \subset \alpha$ soha berilgan bo‘lsin.

1 – Ta`rif[1]. Agar Ω sohaning har bir M nuqtasida shu nuqtadan chiquvchi bitta $X(M)$ vektor berilgan bo‘lsa, u holda Ω to‘plamda X vektor maydon berilgan deyiladi.

Agar G to‘plamga tegishli har bir p nuqtaga bitta X(p) vektor mos qo‘yilsa, bu moslik vektor maydon deb ataladi. Agar $X_1(x,y,z), X_2(x,y,z), X_3(x,y,z)$ funksiyalar differensiallanuvchi funksiyalar bo‘lsa:

$$X:(x,y,z)\to\{X_1(x,y,z),X_2(x,y,z),X_3(x,y,z)\}$$

vektor maydon silliq (yoki differensiallanuvchi) vektor maydon deyiladi.

2 – Ta`rif[2]. Birorta $G \subset R^3$ sohada X vektor maydon berilgan bo‘lib va shu sohada $\vec{\rho} = \vec{\rho}(t)$ tenglama bilan aniqlangan differensiallanuvchi γ chiziq berilgan bo‘lsin. Agar har bir t uchun $\vec{\rho}'(t) = X(\gamma(t))$ shart o‘rinli bo‘lsa γ chiziq X vektor maydonning integral chizig‘i deyiladi.

Teorema. Silliq vektor maydon berilgan sohaning har bir nuqtasidan shu vektor maydonning yagona integral chizig‘i o‘tadi.

Misol: $X=\{-y+ax; x+ay\}\, a\neq 0$ vektor maydon integral chizig‘i topilsin. Ta’rifga ko‘ra: $\begin{cases}\dot{x}=-y+ax\\ \dot{y}=x+ay\end{cases}$ differensial tenglamalar sistemasini yechamiz. Bundan $A=\begin{pmatrix}a & -1\\ 1 & a\end{pmatrix}$ va $E=\begin{pmatrix}1 & 0\\ 0 & 1\end{pmatrix}$ $A-\lambda E=0$ tenglamamizning yechimidan $\lambda = a \pm i$ topamiz. $\lambda = a+i$ ekanligidan $A\vec{p}=\lambda\vec{p}$ tengligimiz orqali (bu yerda $\vec{p}(p_1;p_2)$) quyidagi sistemani ko`rib chiqamiz: $\begin{cases}ap_1-p_2=(a+i)p_1\\ p_1+ap_2=(a+i)p_2\end{cases}$. Bundan $\vec{p}(1;-i)$ va $\lambda = a-i$ dan esa $\vec{p}(1;i)$ yechimlarga kelamiz. Yuqoridagi sistemamizdagi x va y

larni quyidagi ifoda orqali aniqlab olamiz: $\begin{pmatrix} x \\ y \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1 \\ -i \end{pmatrix} e^{(a+i)t} - e^{at} \begin{pmatrix} 1 \\ -i \end{pmatrix} \cdot (\cos t + i \sin t)$

$= e^{at} \left(\begin{pmatrix} 1 \\ 0 \end{pmatrix} + i \begin{pmatrix} 0 \\ -1 \end{pmatrix} \right) (\cos t + i \sin t)$.Bundan $\begin{cases} x = e^{at} \cos t + ie^{at} \sin t \\ y = e^{at} \sin t - ie^{at} \cos t \end{cases}$ va

$\begin{cases} x = e^{at}(c_1 \cos t + c_2 \sin t) \\ y = e^{at}(c_1 \sin t - c_2 \cos t) \end{cases}$ kelib chiqadi. Demak, yuqoridagi vektor maydoning integral chizig`i $\begin{cases} x = e^{at}(c_1 \cos t + c_2 \sin t) \\ y = e^{at}(c_1 \sin t - c_2 \cos t) \end{cases}$ aniqlandi.

3 – Ta'rif[3]. Agar X vektor maydon uchun shunday Y vektor maydon topilib $X = rotY$ munosabat bajarilsa X solinoidal vektor maydon deyladi, Y esa uning potiensiali deyiladi.

Solenoidal maydon quyidagi xossalarga ega:

1) solenoidal maydonning maxsus nuqtalarini o‘z ichiga olmagan yopiq sirt bo‘yicha oqimi nolga teng;

2) solenoidal maydonda barcha maxsus nuqtalari o‘z ichiga olgan barcha yopiq sirtlardan olingan oqim o‘zaro teng bo‘ladi;

3) solenoidal maydonda vektor naychasining ixtiyoriy kesimidan olingan oqim o‘zgarmasdir.

Misol. Uch o‘lchovli Yevklid fazosida berilgan $U = (yz, xz, xy)$ vektor maydonni qaraylik.

Bundan U maydon solenoidal bo‘lishi uchun $divU = 0$ bo‘lishi kerak. Berilgan U vektor maydon uchun

$$divU = \frac{\partial U_x}{\partial x} + \frac{\partial U_y}{\partial y} + \frac{\partial U_z}{\partial z} = 0$$

bo`lish shartini tekshiraylik.

$$divU = \frac{\partial (yz)}{\partial x} + \frac{\partial (xz)}{\partial y} + \frac{\partial (xy)}{\partial z} = 0$$

munosabat o‘rinli. Demak berilgan maydonimiz solenoidal ekan.

Xulosa: Silliq vektor maydon berilgan sohaning har bir nuqtasidan shu vektor maydonning yagona integral chizig‘i mavjudligi haqidagi teoremalar tatbiqlari o`rganildi. Solenoidal maydonning maxsus nuqtalarini o‘z ichiga olmagan yopiq sirt bo‘yicha oqimi nolga tengligi bo`yicha misollar keltirib o`tilgan. Vektor maydonlarning solenoidal bo`lishlig shartlari tekshirib, tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Ya.Narmanov “Differensial geometriya”. Toshkent. “Universitet” 2003.

2. Olver P. Application of Lie Groups to Differential Equations. Second edition. Springer 1993.

3. A.Ya.Narmanov, J.Aslonov. Geometry of orbit of Killing vector fields. Uzbek mathematical journal. N 2,2012, pp 77-85.

4. A.Ya.Narmanov, S. Saitova. On geometry of vector fields. Journal of Mathematical Sciences (United States).245(3) 2020, pp 347-352.

ЧИҒАТОЙ ТУРКИЙЧАСИ ВА УНДА ЁЗИЛГАН АЙРИМ ҚЎЛЁЗМАЛАР ҲАҚИДА

Ф.Джуманиязова
ТДШУ
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295888

Аннотация: Ушбу мақолада туркий тилларнинг қарлуқ гуруҳига мансуб “чиғатой тили”, унинг шаклланиш тарихи ва айрим чиғатойча қўлёзмалар ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: “чиғатой тили”, қарлуқ лаҳжаси, қўлёзмалар, девонлар ва тарихий асарлар.

Адабиётларда “чиғатой тили” деб номланган туркий тилларнинг қарлуқ гуруҳига мансуб бўлган ва маҳаллий туркий лаҳжалар негизида ўзидан олдинги даврларнинг адабий-лингвистик анъаналари таъсири остида шакллангантил бўлиб, XIV асрнинг 2-ярмидан XIX аср охирларигача мавжуд бўлган ёзма китобий тил ҳисобланади. Ўзбек тили тарихини тадқиқ қилган кўплаб рус олимлари – С.Е. Малов, П.М. Мелиоранский, А.Н. Самойлович, А.К. Боровков, А.М. Шчербак, венгер олими Я. Экман, ўзбек олимларидан О.Усмонов, Ғ.Абдураҳмонов, У.Турсунов ва Б.Ўринбоев, А.Мухторов билан У.Санақулов ва бошқаларнинг тадқиқотларида “чиғатой тили” ва унда ёзилган асарлар ҳақида маълумотга эга бўлиш мумкин. Чингизхоннинг иккинчи ўғли Чиғатой номидан олинган ушбу тилда асарларнинг ёзилиш даври бошланиши ва даврлари ҳақида турли фикрлар билдирилган.

Бир нарса аниққи, мўғул истилосидан кейин Чингизхоннинг фарзандлари томонидан барпо қилинган Чиғатой, Элхонийлар ва Олтин Ўрданинг маданий марказларида XIII-XIV асрларда шаклланиб, темурийлар даврида, XV асрга келиб ниҳоятда бой адабиёт яратган Ўрта Осиё адабий лаҳжасидир[3]. Ҳозирги ўзбек тили ва уйғур тили бевосита чиғатой тилининг давомчилари саналади. Тадқиқотчилар чиғатой тили ривожланишини 3 даврга ажратадилар: Хоразм туркийчаси ёки эрта чиғатой тили (XIII-XIV асрлар); классик (мумтоз) ёки кеч чиғатой тили (XV-XIX асрлар) ва замонавий ўзбек тили[4]. Хуллас, мумтоз чиғатой тилининг асосини Хоразм туркийчаси ташкил этган.

Ўзининг асарларини туркийча ёки чиғатой тилида битган Ҳайдар Хоразмий, Лутфий, Атоий, Алишер Навоий, Саид Аҳмад, Хусайн Байқаро,

[3] ÖlmezZ. ÇağatayEdebiyatıveçağatayEdebiyatıÜzerineAraştırmalar//TürkiyeAraştırmalarıLiteratürDergisi,Cilt 5, Sayı 9, 2007. – S. 173.
[4]Благова Г. Ф. Чагатайский язык. (Сборник «Языки мира. Тюркские языки»). Издание Института языкознания РАН. Издательский дом «Кыргызстан», г. Бишкек, 1997. – С.148.

Бобур, Шайбонийхон, Убайдуллахон каби машҳур исмлар киради. Бугунги кунда кўпчилик чиғатой тилида ёзилган асарлар, девонлар ва бошқалар Европа давлатларидаги кутубхоналарда сақланади. Қуйида биз уларни хронологик усулда кўриб чиқамиз. Чиғатой адабиётининг классик давригача бўлган илк бошланғич замонидаги яратилган асарлар, хусусан девонлар тузилиши содда бўлиб, мумтоз даврникидан ажралиб турган. Бу даврдага оид девонларда назм одатда муножот, наът, қасида, ғазал, мухаммас ва туюқлардан иборат бўлган. XV асрнинг иккинчи ярмига қадар ижод қилган чиғатой адабиёти намоёндалари сифатида Саккокий, Лутфий, Атоий, Ҳайдар Тилба, Юсуф Амирий, Аҳмадий, Яқиний, Сайдий Аҳмад Мирзо, Гадоийларни киритиш мумкин.

Саккокийнинг Темурий ҳукмдорлар – Ҳалил Султон ва Улуғбекларга атаб қасидалар битганлигига асосланиб, унинг XIV аср охири – XV аср бошларида яшаб ижод қилгани тахмин қилинади. Алишер Навоийнинг “Мажолисун нафоис”ида Саккокий ҳақида ёзган маълумотларга кўра, Мовароуннаҳрлик бўлган Саккокийнинг шеърлари Самарқандда машҳур эди, бироқ Лутфийдан кейинги ўринда турар эди[5]. Саккокий тасаввуф шоири эмасди, унинг қасидаларида чиғатой адабий тилининг барча хусусиятлари усталик билан фойдаланилганини кўриш мумкин. Чиғатой адабиёти хусусида тадқиқот олиб борган туркиялик тадқиқотчи Кемал Эраслан Саккокийни “чиғатой шеърининг асосчиси”ларидан биридир, дея таърифлайди[6]. Саккокийнинг ягона асари бўлган Девоннинг икки нусхаси бор. Нусхалардан бири – Лондондаги Британия музейида 2079 рақам остида сақланади. Бундан ташқари Туркиянинг Айасофя кутубхонасида 4757 рақами остида сақланаётган бир мажмуанинг 165-167 саҳифалари орасида уйғур ҳамда араб ҳарфлари билан ёзилган учта ғазали ҳам учрайди.

Чиғатой адабиётининг ривожланишида муҳим ўрни бўлган шоирлардан бири Мавлоно Лутфийдир. Ғазал, қасида ва туюқлари адабий хусусиятларига кўра ниҳоятда бойдир. Иккита асари мавжуд: Девон ва Жалолиддин Табибийнинг форсча “Гул ва Наврўз” номли маснавийсини яна назм усулида таржима қилган “Гул ва Наврўз” маснавийсидир. Девонининг Лондондаги Британия, Франциядаги Paris Bibliotheque Nationale ва Туркиянинг Сулаймония кутубхоналарида нусхалари сақланмоқда.

XIV асрнинг иккинчи ярмида Балхда туғилиб ўсган Атоий Навоий тарафидан XV асрнинг энг қадимий шоири деб эътироф этилган.

Шу ўринда чиғатойлар”, “чиғатой эли”, “чиғатой тили” каби тушунчаларнинг юзага келиши, ушбу атаманингтарқалиш географияси ва айнан

[5] Hofman H.F. Turkish Literature ABıo-Bibliographical Survey, Part III/I. – Utrecht, 1969. – S. 153.
[6]Eraslan K. ÇağatayEdebiyatı.TürkDiyanetVakfı/IslamAnsiklopedisi.1993. – C.VIII. –S. 170.

кимларга нисбатан қўлланилганлиги масаласига, яъни “чиғатой” атамасининг қисқача тарихига тўхталиб ўтсак. Кўпчилик тадқиқотчилар фикрича, ушбу атаманинг муайян бир жамоа номи сифатида ишлатилиши дастлабки босқичи XIII – XIV асрларга тўғри келса-да, аниқ бир этномаданий атамага айланиш жараёни Темурийлар даври (1365-1505) билан боғликдир. Яъни “чиғатой эли”, “чиғатой тили” каби иборалар Темурийлар давлати таркибидаги Ўрта Осиё адабий ёзма туркий тилида сўзлашувчи халққа нисбатан қўлланилган. Бу тил Қорахонийлар (960-1212) ва Хоразмшоҳ-Ануштегинийлар (1097-1231) даврида Ўрта Осиё ва унга қўшни ҳудудларда ёзма адабий тил вазифасини бажариб, негизида қадимги турк тили, аниқроғи унинг шарқий тармоғи бўлмиш “қарлуқ лаҳжаси” ётувчи тил эди. Шу ўринда айтиб ўтиш керак, “қарлуқ лаҳжаси” атамаси сунъий бўлиб, XX асрда рус туркологлари ва ушбу илмий мактабга эргашган ўзбек тилшунослари томонидан илмий муомалага қўлланила бошлаган эди. Ўз навбатида бундай ёндашув XX асрда чет элларга, айниқса, Ғарб туркологияси, Туркия, Япония ва ҳоказо илмий мактабларига ҳам “юққан” эди. Аслида чиғатой тилига асос бўлган “қарлуқ лаҳжаси”нинг ўз тарихий номи мавжуд бўлиб, Маҳмуд Кошғарий ўзининг “Девону луғати-т-турк” асарида туркий тилларнинг “ўғуз лаҳжаси”, “қипчоқ лаҳжаси” ва ҳоказо лаҳжалари билан бирга “хоқония туркчаси” деган иборани кенг қўллаган бўлиб, бу лаҳжа Кошғар, Балосоғун (Тўқмоқ), Узганд шаҳарлари ва яна бир қатор йирик шаҳар ҳамда қишлоқларда яшовчи туркий аҳоли сўзлашадиган, Қорахоний ҳукмдорлар саройларида иш юритиш ва ёзишмалар олиб борилувчи тил бўлган[7]. Хоқония туркчасида ушбу шаҳарлардан ташқари туркийларнинг сезиларли бир қисмини кўчманчи чорвадор аҳоли, маълум бир қисмини эса ўтроқ деҳқон аҳоли ташкил этган тухси, чигил, ёғмо, уйғур, қарлуқ (?) каби туркий уруғлар вакиллари сўзлашган. Шу боис, бу лаҳжага нисбатан “чигил лаҳжаси” ибораси ҳам қўлланилган.

Қорахонийларнинг Амударё – Сирдарё оралиғи ва унга қўшни ҳудудларни қўлга киритиб, Фарғона водийси, Шош (Тошкент), Тароз, Исфижоб (Сайрам) Самарқанд, Бухоро каби минтақанинг йирик ижтимоий-сиёсий ва этномаданий марказларни қўлга киритиши натижасида “хоқония туркчаси” Ўрта Осиёнинг ёзма адабий тилига айланади. Бу лаҳжанинг Хоразм воҳасида айрим ўғуз ва қипчоқ элементларини олиб, “Хоразм туркийси” номини олиши ва шу тариқа “чиғатой туркийси”га бошланма бериши эса дастлаб Қорахонийлар, бирмунча кейин эса Хоразмшоҳ-Ануштегинийлар давридаги тарихий воқеликлар билан боғликдир. Гарчи Хоразм Қорахонийлар давлати таркибига кирмаган бўлса-да,

[7]Кошғарий, Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону-луғот ит-турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 3 томлик. – Тошкент, Фан, 1960–1963. 1- том. – Б. 50, 64.

ушбу салтанат ижтимоий ва этномаданий жиҳатдан Хоразмга ўз таъсирини ўтказмасдан қолмади. Кўринишидан Салжуқийлар салтанатида бўлгани каби Ануштегинийлар ҳам “хоқония туркчаси”ни ёзма адабий тил сифатида ишлатишда давом этган кўринади. Хоразм воҳасининг катта бир қисми Чиғатой улуси таркибида бўлиши эса ушбу адабий тилнинг воҳада нафақат кенг ёйилишини таъминлади, балки маълум маънода унга бешиклик вазифасини ўтади. Яъни Ўрта Осиёнинг катта қисми – бутун Амударё – Сирдарё оралиғи ва унга қўшни ҳудудларнинг битта яхлит сиёсий уюшма – Чиғатой улуси таркибида бўлиши минтақа воҳалари – Фарғона, Шош, Самарқанд, Бухоро ва ҳоказолар каби Хоразмни ҳам ўз ичига олувчи ягона этномаданий муҳит, шу жумладан, умумий тил муҳити вужудга келишига шароит яратди. Шу ўринда айтиб ўтиш керак, сўнгги ўрта асрларда Ўрта Осиёда нисбатан кенг ёйилган этнотопонимлардан бири бўлмиш Чиғатой, Чағатой каби жой номларининг Хоразм воҳасида ҳам анча кўп учраши ушбу тарихий жараёнлар маҳсули бўлиши керак. Бошқа томондан эса Хоразм воҳасида “чиғатой” атамасининг пайдо бўлиши бирмунча кейинги даврларга, хусусан, ўзбек хонликлари даврига тўғри келмайдими мазмундаги савол туғилиши мумкин. Яъни бу атама Темурийлар даврида аниқ бир маъно касб этиб, кейинчалик Шайбонийлар ва бошқа ўзбек хонликлари даврида[8] Хоразм воҳасига ҳам кўчган бўлиши ҳам эҳтимолдан йироқ эмас. Темурийлар даврида ҳам, ундан кейинги сулолалар даврида ҳам Ўрта Осиёнинг марказий ва жанубий ҳудудларидан бир қатор ўзбек уруғларининг Хоразм воҳасига кўчиб, бу ерда ўзларининг ўнлаб қишлоқларига асос солганликларини кўзда тутадиган бўлсак, ушбу фикрда жон бордек кўринади. Айниқса, Чиғатой номли аҳоли масканларининг сўнгги ўрта асрларга тегишли Бухоро амирлиги ва Хива хонлиги ёзма материаллари (тарихий асар, ҳужжат, ёзишма ва ҳ.к.)да кўп учраши[9] ҳам бу қарашни бирмунча кучайтиради.

Хусусан, Хоразм воҳасига жануб ва жанубий-шарқдан нисбатан қўшни жойлашган Зарафшон воҳасида “Чиғатой” номли қишлоқлар учраб, улар ҳақидаги маълумотлар айтиб ўтилган ўзбек хонликлари даври ёзма манбаларида ўрин олган. Бухоро амирлигига қарашли вилоят ва туманларда, шу жумладан, амирликка яқин ҳудудлардаги Кармана, Самарқанд, Қарши, Шаҳрисабз, Чоржуй бекликларида шу номдаги аҳоли масканлари анча кенг тарқалган эди. Ушбу этнотопоним амирлик даври Бухоро туманларида ҳам кўп учраб[10], Пирмаст, Қоракўл туманларида шу номдаги аҳоли масканлари тилга олинишини бунга мисол бўлаолади.

[8]Bregel Y. An historical atlas of Central Asia. Leiden – Boston, Brill, 2003. – P. 40-46.
[9]Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX - начало XXв.) / Материалы к историческойгеографии Средней Азии. Под. Ред. А.Р. Мухаммеджанова. –Т.: Университет, 2001. – С. 144.
[10]Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX - начало XX в.). – С. 144, 187-232.

XX асрда ҳам Ўзбекистоннинг деярли барча вилоятларида, шу жумладан, Хоразм вилоятида ҳам шу номдаги аҳоли масканлари ўз мавжудлигини давом эттирган. Бугунги кунда нафақат мамлакатимизнинг жанубий ҳудудлари – Қашқадарё, Сурхондарё ва қўшни Тожикистондаги жанубий ҳудудларда, балки мамлакатимизнинг марказий ҳудудларида, хусусан, Самарқанд вилоятининг Каттақўрғон ва Иштихон туманларида, Бухоро вилоятининг Олот, Қоракўл ва Шофиркон туманларида, Навоий вилоятининг Хатирчи туманида учрайди[11]. Асосан, Сурхондарё вилояти аҳолиси орасида кенг тарқалган бу атама ўрта асрлар, хусусан, Чиғатой улуси ва Темурийлар даври маҳсули бўлиб, дастлаб муайян бир сиёсий уюшма аҳолиси учун қўлланилиб, кейинчалик этниклик касб эта борган. Жумладан, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асарида “турк ва чиғатой” атамалари бирга учраб[12], асар мазмунидан “турк” этноними минтақа аҳолисининг катта қисми учун умумий ном, “чиғатой” эса туркийларнинг бир гуруҳининг номи сифатида қўлланилгани англашилади.

Аслида бу ном Марказий Осиёнинг сезиларли бир қисми Чингизхон томонидан ўғли Чиғатойга улус қилиб берилган тарихий воқеликлар билан боғлиқ равишда, яъни “Чиғатой улусининг халқи” маъносида аста-секин минтақанинг туркий тилли аҳолисининг номларидан бирига айлана борди[13]. Шайбонийлар ва ўзбек хонликлари даврида “чиғатой” атамаси кўчманчи ўзбеклардан фарқ қилиб, асосан қишлоқ ва шаҳарларда яшаб ўтроқ турмуш тарзига эга маҳаллий туркий аҳолига нисбатан қўлланила бошлаган ва шу тариқа улар қипчоқ лаҳжасида сўзлашувчи ўзбеклардан фарқланган[14]. Бу даврда “чиғатой” деб номланувчи аҳоли гуруҳи Хоразм воҳаси ва Бухоро воҳасининг шимолий қисмларида (Қоракўл) нисбатан кўпроқ ўз аҳоли масканларига эга бўлишган. Шунингдек, бу пайтда Афғонистон ва Ҳиндистонда яшовчи туркийларнинг бир қисми шу ном билан юритилган. XX аср бошларида ушбу атама Бухоро амирлигининг жанубий ҳудудлари – Сурхондарё вилояти, Жанубий Тожикистон (Кўлоб) ва Шимолий Афғонистон аҳолисининг сезиларли бир қисмини ташкил этувчи аҳоли гуруҳи “чиғатой” аталиб, улар “ўзбек чиғатой” ва “тожик чиғатой”ларга бўлинишган[15].

Шу ўринда айтиб ўтиш керак, этник жиҳатдан “чиғатойлар”, “чиғатой уруғи”, “чиғатой эли” иборалари ўрта асрларда, хусусан, сўнгги ўрта асрларда, яъни Шайбонийлар, Аштархонийлар ва бошқа ўзбек хонликлари даврида

[11]Маликов А.М. Тюркские этнонимы и этнотопонимы долины Зерафшана (XVIII – начало XX в.). – Ташкент, 2018. – С. 179.
[12]Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. – Т.: Юлдузча, 1989. – Б. 172.
[13]Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т., 2001. – Б. 415.
[14] Каюмов А. Этническая ситуация на территории Южного Узбекистана в XIX – начале XX века. Автореф. дисс….канд. ист.наук. – Т.: ИИ АН РУз, 2011. – С. 13-14.
[15]Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С. 50-55.

минтақанинг нисбатан ўтроқ қисмига нисбатан қўлланилиб, шу жиҳатдан ушбу этник атама минтақанинг кўчманчи ўзбек (92 бовли ўзбек) уруғлари, туркман, қозоқ, қорақалпоқ ва қирғиз элатларидан фарқ қилган. Айтиб ўтилган элатлар сўнгги ўрта асрларда ўз уруғ-қабилавий тузилиши, урф-одатлари, менталитетига кўра Ўрта Осиёнинг марказий ва жанубий қисмидаги туркий уруғлардан бирмунча фарқ қилиб, кўпроқ Олтин Ўрда – Дашти Қипчоққа хос хусусиятларни кўпроқ акс эттирар эдилар[16]. Чиғатойлар эса бу жиҳатдан минтақанинг марказий ва жанубий ҳудудларидаги барлос, мўғал (мўғул), қарлуқ, умуман олганда "турк гуруҳи"га яқин эдилар[17].

Чиғатой туркийси фақатгина Чиғатой улуси, Темурийлар ҳамда Шайбонийлар, Аштархонийлар ва бошқа ўзбек хонликларида қўлланилган ёзма тил бўлиб қолмасдан, Жўчи улуси (Олтин Ўрда ва унинг издошлари) ҳудудида ҳам бир муддат иш юритиш ва ёзишма тили вазифасини бажарган, ҳатто ушбу улуснинг сўнгги издошлари бўлмиш Қозоқ хонлиги даврида ҳам ушбу мақомини нисбий бўлса-да сақлаб қолган. Қозоқ хонлигининг кам сонли ёзма тарихий асари бўлмиш Қодирали Жалойирийнинг "Жамиут-таворих" (Тарихларнинг жаъми) номли асари (XVII аср) чиғатой туркийсида ёзилганлиги диққатни ўзига тортади[18]. Шунга ўхшаш ҳолат Қрим ва Қозон хонликларида ҳам мавжуд бўлиб,бир неча асрлар давомида ушбу хонликларнинг иш юритиш ва ёзишмаларида чиғатой туркийсига мурожаат қилишган. Буни ушбу хонликлардаги айрим тарихий ва адабий асарларнинг тили чиғатойча эканлиги, ҳатто сўнгги ўрта асрларда Қозон адабий муҳитида бу тилдаги асарларнинг тошбосма кўринишида кўплаб нусхада қайтадан нашр этилгани ҳам тасдиқлайди. Қрим ярим оролидаги туркий аҳолининг бир қисмига нисбатан "чиғатой" атамаси қўлланилганлиги, ҳатто бу атама қиримчак, қараим каби яҳудий динига эътиқод қилувчи қримлик туркийлар орасида сақланганлиги ҳам бунга мисол бўлаолади. Шунингдек, Шимолий Кавказдаги қумиқ турклари орасида "чиғатой"лар билан боғлиқ хотираларнинг сақланиб қолганлиги ҳам диққатга сазовордир.

Қисқаси, "чиғатой" атамаси ўз фаолияти давомида асосан қуйидагича 3 та босқични босиб ўтган:

1)Бошланғичини Чиғатой улусига ном берган Чингизхоннинг иккинчи ўғли Чиғатойхон номидан олган ушбу сиёсий-этник атама кейинроқ, хусусан, Темурийлар даврида Ўрта Осиёнинг ўтроқ туркий аҳолиси ва унинг тилини ифодалайдиган муайян бир атамага айланади. Амударё – Сирдарё оралиғи,

[16]КереКерейтов Р.Х. Ногайцы. Особенности этнической истории и бытовой культуры. – Ставрополь: «Сервисшкола», 2009.– 300-305.
[17]Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С. 50-55.
[18]Усманов М. А. Татарские исторические источники XVII-XVIII вв. Казань, 1972;

Хуросон ва Шимолий Ҳиндистонда яшаган туркийларнинг катта қисми “чиғатой”, “чиғатой турки” деб юритила бошлайди;

2) Ўзбек хонликлари (Шайбонийлар, Аштрахонийлар, Бухоро, Хива ва Қўқон хонликлари) даврида бу атама негизи Дашти қипчоқлик туркий элатлардан бирмунча фарқли туркийлар учун қўлланилади;

3) Сўнгги ўрта асрларга келиб бу атама ўзининг мазмунини ва тарқалиш кўламини бирмунча йўқотиб, кўпроқ локал аҳамият касб эта бошлайди. Бу давр кўпроқ Чиғатой номли этнотопонимлар пайдо бўлиши билан характерланади.

Шуни ҳам айтиб ўтиш керакки, “чиғатой тили” ёки “чиғатой туркийси” ибораси айрим тадқиқотчилар урғу бериб ёзганидан[19] фарқли ўлароқ жуда кенг ёйилган ва собит бир тушунчага айланган бир тушунча эмас эди. Навоий ҳам, Бобур ҳам бу иборани жуда кам ўринларда қўлланган бўлиб, унинг ўрнида доимо “турк”, “туркий”, “туркча” ибораларини ишлатганлар. Ўрта Осиё туркий адабиётига қарийб 500 йил вақт кесимида кўз ташланадиган бўлса, “чиғатой тили” иборасининг Темурийлар давридаги Лутфий, Саккокий, Атоий ва бошқалар томонидан ҳам, шунингдек, ўзбек хонликлари даври адиблари – Турди Фароғий, Гулханий, Муқимий, Нодира, Фурқат, Огаҳийлар томонидан ҳам кенг қўлланилмаганлиги аён бўлади. Аксинча, бу даврда ҳам “турк” ёки “туркий” ибораси илк ўрта асрлар ва классик даврдагидек қўлланилишда давом этгани диққатни тортади. Усмонли, Сафавийлар ва Кожорлар каби Ўрта Осиё туркийсидан бирмунча фарқланувчи ўғуз туркчаси ҳукмрон бўлган адабий муҳитларда “чиғатойча”, “чиғатой туркийси” каби ибораларнинг нисбатан кўпроқ қўлланилиши эса ушбу муҳит вакилларининг ўз давридаги эҳтиёждан келиб чиққандир. Яъни улар ўз тилларини “турк тили” деб билар экан,бу иборани қўллаш орқали бу тилда ёзилган асарларни фарқлашни назарда тутганлар.

“Чиғатой туркийси” ибораси ўрнига “эски ўзбек тили” иборасини қўллаш Чор Россияси ва Совет ҳукумати даври маҳсули бўлиб, бу ҳолат мустамлакачи кучларнинг туркий халқлар орасига рахна солиш воситаларининг бир кўриниши эди. Туркий адабий ва тарихий меросни Совет иттифоқи таркибидаги туркий халқлар орасида ўзларича “тақсимлаш” орқали улар орасидаги тарихий бирдамликни йўққа чиқариш сиёсати юритилишининг натижаси бугунги кунда қандай салбий оқибатларга олиб келганлигини кўриб турибмиз. Бугунги кунда қирғиз, қозоқ каби туркий халқларнинг “чиғатой адабиёти”, “чиғатой мероси” деган иборалардан қочиши, “эски ўзбек тили” деган сўзга қарши чиқишлари ва ҳоказолар бунининг яққол далилидир. Шунинг учун минтақа халқларининг бу тилда ёзилган тарихий ва адабий асарларига

[19]Ölmez Z. Çağatay Edebiyatı ve Çağatay Edebiyatı Üzerine Araştırmalar // TürkiyeAraştırmaları LiteratürDergisi,Cilt5, Sayı 9, 2007. – S. 173·219.

нисбатан “туркий”, “адабий туркча”, янада аниқроқ ифодалаш зарурияти туғилса “Ўрта Осиё туркийси” ибораларини қўллаш фурсати етиб келди. Зотан, дунё тан олган Ғарб, хусусан, Европа туркологлари бу тил ва адабиётга нисбатан бу “Ўрта Осиё туркийси” атамасини кенг қўллаб келадилар.

MEHNAT RESURSLARINI ISH BILAN BANDLIK MUAMMOSI

Dildora Zaylobiddinova
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti 2 kurs magistranti
“Iqtisodiyot” (Qishloq xo‘jaligida) mutaxassisligi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295890

Annotatsiya: Hozirgi kunda respublikada asosiy muammolardan biri bu mehnatga layoqatli mehnat resurslarini ish bilan bandlik muammosi hisoblanadi. Bu muammoni o‘rganishda albatta mehnat bozorini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.
Kalit so‘zlar: Mehnat resurslari, mehnat bozri, ish bilan bandlik, demografiya, talab va taklif, ishchi kuchi.

Ish bilan bandlik muammolarini, bu sohada kechayotgan tarkibiy o‘zgarisharni va o‘ziga xos jarayonlarni o‘rganish va tahlil etish mehnat bozoridagi vaziyatni har tomonlama va real baholash imkonini beradi. Zero, bandlik sohasi mehnat bozorini salmog‘i jihatdan asosiy hisoblanadigan sektori bo‘lib, u mehnat resruslaridan foydalanish bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ham o‘zida aks ettiradi.

O‘z navbatida ilmiy-uslubiy jihatdan mehnat bozorini o‘rganishga bo‘lgan mana shunday yondashuv mehnat bozoridagi barcha jarayonlar to‘g‘risida to‘laroq tushunchaga, hamda ishchi kuchi taklifi bilan unga bo‘lgan talab o‘rtasidagi muvozanat qay darajada ekanligi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish imkoniyatini beradi.

Ayni paytda respublikada mazkur vazifani amalga oshirish yo‘lida aholining keng qatlamlari, jamoatchilik va ishbilarmon doiralar vakillari, davlat organlarining rahbarlari va mutaxassislar bilan amaliy suhbat hamda muhokamalar olib borildi, shuningdek amaldagi qonun hujjatlari, milliy va xalqaro tashkilotlarning axborot-tahliliy materiallari, ma’ruzalari, tavsiyalari va sharhlari o‘rganildi, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi. “ Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish. O‘zbekistonda fuqarolarning mehnat va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ish bilan ta’minlanish sohasida ijtimoiy kafolatlar berish va aholini ishsizlikdan himoya qilishni ta’minlash sohasida ijtimoiy kafolatlar berish va aholini ishsizlikdan himoya qilishni ta’minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish bugungi kunnig dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi” [1].

Inson omilidan samarali foydalanish esa mamlakatda amalga oshiriladigan mehnat munosabatlari va bandlik sohasidagi siyosatga bevosita bog‘liqdir.

Demak, yuqorida keltirilgan fikrlarga xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bandlik va mehnat bozori bir butun makroiqtisodiy tizimning bir-birini taqozo etuvchi elementlaridir.

Mehnat bozorining asosiy tashkil etuvchilari-bu ishchi kuchi taklifi, ishchi kuchiga bo‘lgan talab va ishchi kuchining bahosi (ish haqi darajasi). Ilmiy adabiyotlarda va ilmiy daromadlar va ilmiy doiralarda bu tushunchalar mohiyati turlicha talqin etiladi. Masalan, ba’zi mutaxassislar mehnat bozoridagi talab va taklif o‘rtasidagi nisbatni faqatgina bo‘sh ish o‘rinlarni hamda ishsizlarning umumiy soni sifatida, ya’ni tor ma’noda talqin etadilar.

Biz ishchi kuchi taklifi va unga bo‘lgan talabni keng talqin etuvchi mutaxassislar fikrini ma’qullaymiz. Ya’ni, milliy iqtisodiyot yoki mamlakat darajasida qaraladigan bo‘lsa, ishchi kuchi taklifi iqtisodiyotda band bo‘lganlar hamda ish izlayotganlarning umumiy sonidan iborat (xalqaro standartlar bo‘yicha iqtisodiy faol aholi). Ishchi kuchiga bo‘lgan talab esa iqtisodiyot tarmoqlaridagi band bo‘lgan va band bo‘lmagan (bo‘sh turgan) ishchi o‘rinlarining yig‘indisidan iborat.

Fikrimizcha, mehnat bozorini tashkil etuvchi elementlarni ta’riflashga bo‘lgan shunday yondashish mehnat bozorini har tomonlama o‘rganish va unda kechadigan jarayonlarni bashorat qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Endi bizning respublikamizda shakllanib rivojlanayotgan mehnat bozori to‘g‘risida so‘z yuritadigan bo‘lsak, uning o‘ziga xos xususiyatlari O‘zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy demografik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Boshqacha qilib aytganda, mehnat bozorining shakllanishiga ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va xududiy omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bularning ichida eng asosiysi demografik omillar, ya’ni mehnat bozori ko‘p jihatdan demografik jarayonlar ta’sirida bo‘ladi.

Mehnat sohasi o‘z ichiga ishchi kuchi bozori bilan bir qatorda bevosita ijtimoiy ishlab chiqarishda mehnat resurslaridan foydalanishni ham oladi.

Mutafakkirlar, iqtisodchi-olimlar, tadqiqotchilar e’tiborini band qilgan va pirovard natijada jamiyatning rivojlanish sur’atlarini ko‘p darajada belgilagan mehnat to‘g‘risidagi masalalar ko‘p qirrali bo‘lib, ular tomonidan o‘rganilib, ta’riflar berilgan.

A.Marshallning ta’rifi bo‘yicha: “mehnat-bu bevosita o‘zi bajargan ishdan qanoatlanishni hisoblamaganda, qandaydir natijaga erishish maqsadida to‘liq yoki qisman qo‘llaniluvchi har xil aqliy va jismoniy kuch” [2]deb hisoblagan. A.Marshallning keltirgan ta’rifida inson o‘z aqli va jismoniy kuchini sarflab, har qanday natijaga erishadi degan xulosaga kelish mumkin.

Rossiyalik iqtisodchi olim B.M.Genkin mehnatni quyidagicha ta’riflashni taklif etadi: “Mehnat tabiat resurslarini moddiy, intellektual va ma’naviy ne’matlarga aylantirish jarayoni bo‘lib, inson bu jarayonni yoki majburlov yoki ichki undov, yoxud ham unisi, ham bunisi tufayli amalga oshiradi va boshqaradi” [2]. B.M.Genkin

keltirgan ta’rifi bo‘yicha mehnat biror natijaga erishish uchun amalga oshiriladi, deb hisoblash mumkin.

B.M.Genkinning ta’rifiga ko‘ra: ”ishchi kuchi-insonni mehnat qilish layoqati deb tushunish qabul qilingan, ya’ni-uni jismoniy va intellektual ma’lumotlar yig‘indisi, ishlab chiqarishda qo‘llanilishi mumkin bo‘ladi [2].

S.A.Kartashov, Yu.G.Odegovlarning fikri quyidagicha: ”ishchi kuchi”-bu mehnatga bo‘lgan potentsial qobiliyat [3].

Bizningcha yuqorida keltirilgan ta’riflarni umumlashtirgan holda “ishchi kuchi”ga ta’rif berib ko‘ramiz. Ishchi kuchi-iqtisodiy kategoriya sifatida, iqtisodiy faol aholining jismoniy va ma’naviy qobiliyatlari yig‘indisining amalda qo‘llanilishi tushuniladi.

Mehnat bozorida insonning qobiliyatlari emas, balki mehnati sotilishi va sotib olinadigan bo‘lsa, buni quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

1. Mehnat bozorida bo‘lajak mehnatning oldi-sotdi jarayoni amalga oshadi, bu haqda mehnatning xaridori va sotuvchisi shartlashib oladi.

2. Ish beruvchi mehnatni sotib olgan taqdirda, u shu mehnat natijalarining egasi bo‘lib qoladi, chunki mehnatning qiymati faqat uning natijasidadir. Xodim mehnati uchun uning narxini-ish haqini oladi, ish haqining miqdori mehnatga bo‘lgan talab va mehnat taklifining nisbati bilan belgilanadigan mehnat bozoridagi kon’yunkturaga; unda ish haqi stavkalarini shakllantirishning ustun keluvchi modeliga; u yoki bu milliy va mintaqaviy mehnat bozorlarining xususiyatlarini aks ettiradigan qator boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi.

3. Mehnat natijalarining egasiga aylangan ish beruvchi ularga egalik qilib va ulardan foydalanibgina qolmay, balki ularni tasarruf etadi.

4. Mehnat raqobat bozorida sotilganda ekvivalent (teng) ayirboshlash ro‘y beradi, chunki ish haqi mehnatdan foydalanganlik uchun, ya’ni mehnat uchun haq to‘lashdir. Bunday bozorda tovar yoki xizmatning qo‘shilgan narxini ishlab chiqarishning to‘rtta omili yuzaga keladi: uning mehnati mehnatiga haq qolgan qismlari yerdan foydalanilganlik uchun va tadbirkorlik uchun to‘lanadigan haqni tashkil etadi.

Mehnat resurslarini ish bilan bandligi O‘zbekistonda ma’lum ob’ektiv va sub’ektiv sabablarga ko‘ra bir necha yillar davomida eng dolzarb muammolardan bo‘lib kelgan. Respublikadagi o‘ziga xos demografik vaziyat, ya’ni aholi sonining tez sur’atlar bilan o‘sishi ob’ektiv sabablardan biri bo‘lsa, yangi ish o‘rinlarini yaratish esa sub’ektiv sabablardan biri hisoblanadi. Ish bilan bandlik muammolarini keskinlashganligi aholi daromadlariga ham ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi.

Ma’lumki aholi daromadlarini asosiy qismini ish haqi tashkil etadi. Bu esa aholini bandlik ko‘rsatkichlari qancha yuqori bo‘lsa, uning daromadi ham oshib boradi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha band aholi sonining mehnatga layoqatli

yoshdagi aholi soniga nisbati bilan hisoblanganda quyidagi statistik ma’lumotlarga ega bo‘ldik. 2014 yili respublika bo‘yicha band aholi soni 67,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, Andijon viloyatida shu yili bu ko‘rsatkich 69,9 foizga teng bo‘lgan. Oxirgi 2018-2019 yillar mobaynida Andijon viloyatida band ko‘rsatkich 73,0 - 69,6 foizga teng bo‘lgan.

1- jadval

O‘zbekiston va Andijon viloyatining bandlik darajasi[20]

Ko‘rsatkichlar	2014	2015	2016	2017	2018	2019
O‘zbekiston Respublikasi	67,1	67,7	68,2	68,7	69,2	67,4
Andijon viloyati	69,9	70,8	71,5	72,3	73,0	69,9

O‘zbekistonda aholini ish bilan ta’minlashni yanada yaxshilash va uning farovonligini oshirishning eng muhim yo‘nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko‘rsatish va kasanachilik sohalarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag‘batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Andijon viloyati ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan mamlakatda o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan viloyat bo‘lishiga qaramasdan viloyatda xam bartaraf qilish lozim bo‘lgan muammolar yo‘q emas va bu muammolar yuqorida aytilganidek, asosan aholining yashash sharoitiga bevosita ta’sir qiluvchi ijtimoiy sohalarda o‘z aksini topmoqda.

Ma’lumki, mamlakatning kelajakdagi iqtisodiy rivojlanishi xozirgi yosh avlodni sog‘lom, baquvvat va ilmli bo‘lishiga bog‘likdir. CHunki, yoshlarimiz ertangi kunning bunyodkor kuchi, qurilajak fukarolik jamiyatining faol a’zosidir. Andijon viloyati makroiqtisodiyotni mehnat resurslari bilan ortiq darajada ta’minlash darajasi mavjudki, bu ish joylari bilan ishchi kuchi o‘rtasidagi nomutanosiblikka olib keladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. SH.Mirziyoev. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan.

2. Genkin B.M. “Ekonomika i sotsiologiya truda”. Uchebnik dlya vuzov.-M.:Izdatelьskaya gruppa NORMA-INFRA. M, 1999 g.-3-str.

3. Карташов С.А., Ю.Г.Одегов. Рынок труда, проблемы формирования и управления. Москва. ЗАО.”Финстатинформ”-1998 г. 6-7-стр.

[20] Банд аҳоли сонининг меҳнатга лаёқатли аҳоли сонига нисбати ҳисобида ҳисобланган.

QISHLOQ XO‘JALIGIDA ISHCHI KUCHINI TAQSIMLASH VA QAYTA TAQSIMLASH

Gulmira Abduxalilovna Zufarova
Andijon mashinasozlik instituti, iqtisodiyot kafedrasi, dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295892

Annotatsiya: Maqolada qishloq joylarida istiqomat qiluvchi aholini bandlik muammolarini yechimi haqida fikr va muloxazalar berilgan. Bandlikni oshirish maqsadida xizmat ko‘satish va qayta ishlovchi korxonalar sonini ko‘paytirishga e’tibor qaratilishi taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: Qishloq xo‘jaligi, ishchi kuchi, bandlik, qayta taqsimlash, aholi, mehnat unumdorligi.

Qishloq xo‘jaligida ishchi kuchini taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida davlat asosan rag‘batlantiruvchi va jilovlab turuvchi choralarni amalga oshirishi kerak. Qishloq xo‘jaligida ishchi kuchining o‘sishi jilovlab turuvchi mexanizmga va uning muayyan qismini iqtisodiyotning boshqa soxalari uchun bo‘shatib olishga muhtoj. Shu bilan bog‘lik holda 2020 yilda bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish, band bo‘lmagan aholini, ayniqsa, yoshlarni ishga joylashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar samaradorgini oshirish, mehnat xuquqlarini himoya qilish va mehnat muxofazasini kuchaytirish, aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha muvofiqlashtirilgan samarali ishlarni amalga oshirishda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, maxalliy ijro xokimiyati organlarining mas’uliyatini tubdan kuchaytirishga xizmat qiluvchi qator qaror[2] va farmonlar[3] kabul kilindi.

O‘zbekiston respublikasida qishloq xo‘jaligi sohasi hozirda mavjud miqdordagi ishchi kuchiga extiyoj yo‘q. Bo‘shatib olingan ishchi kuchini umuman, iqtisodiyotning rivojlanib borayotgan infratuzilmasida, shuningdek, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida, xususan, samaradorlik nuqtai nazaridan xususiy mulkka asoslanadigan qayta ishlash sanoatini rivojlantirish yo‘li bilan ishga solish zarur. Shuningdek, o‘rta maxsus o‘quv yurtlarini tamomlab chiqayotgan yosh mutaxassislarni ishga joylash xam bugungi kunning muammosi bo‘lib turibdi. Xususiy sektor asosan tajribali mutaxassislarni ishga olishni xoxlaydi. Binobarin, bu o‘rinda yosh mutaxassislarga talabning yo‘qligi vaqt o‘tishi bilan ularning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlashga bo‘lgan rag‘batni so‘ndiradi. O‘rta maxsus o‘quv yurtlarini bitirgan yoshlarni ishga jalb etadigan korxona va tashkilotlarning davlat tomonidan rag‘batlantirilishi ushbu muammoning yechimiga xizmat qilishi mumkin. Soliq sohasida ma’lum imtiyozlar berish ana shunday rag‘batlantirish chorasi bo‘lishi mumkin. Shunda korxona va tashkilotlar o‘rta maxsus o‘quv yurtlarini bitirib

chiqqanlarni tanlov asosida saralab olishi mumkin. Ko‘pchilik mutaxassisliklar bo‘yicha o‘quv yurtlariga qabul qilinadiganlar sonini qayta ko‘rib chiqish kerak. Ixtisoslik bo‘yicha asosiy mashg‘ulotlarni bevosita korxona va tashkilotlarga o‘tkazish talabalarning bo‘lg‘usi kasblari bilan oldindan tanishishiga yordam beradi. Hozirgi kunda ta’lim ishlab chiqarishdan uzilib qolgan bo‘lib, faqat nazariy xarakterga ega. Azaldan olingan ta’lim birinchi navbatda amaliyotda qo‘llab kelingan va, shuning oqibati o‘laroq, iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lib kelgan. Ta’lim amaliyotda qo‘llansagina foydali bo‘ladi.

Ishchi kuchidan makroiqtisodiyot darajasida foydalanish eng avvalo, iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, u mehnat unumdorligi doimo oshib borishi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Ish haqi to‘lash mehnat unumdorligi o‘sishiga erishish uchun birinchi darajali ahamiyatga ega.

Bir vaqtlar G.Ford bu borada shuni namuna ko‘rsatib, o‘z korxonalarida xodimlarni motivatsiyalashga yondashishning an’anaviy usullarini qo‘llagan edi. Xodimni ishlashga undaydigan asosiy narsa-o‘z mehnatidan iloji boricha ko‘p moddiy ne’mat olish istagidir. Ishchining mehnatidan foydalanish uning mehnat unumdorligini oshirish yo‘li bilan moddiy ne’matlar olishi uchun keng imkoniyat yaratib berish printsipiga asoslangan bo‘lishi kerak. Kichik va xususiy biznesni rivojlantirish uchun ishchi kuchidan foydalanish uchun yaxshi rag‘batlantiruvchi chora bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish natijasida kichik va xususiy biznesni keng rivojlantirish qonunchilik bazasi yaratildi. Turgan gapki, butun iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish tekis kechmagani tufayli ishchi kuchidan samaral foydalanish muammolari to‘xtovsiz tug‘ilib turaveradi. Iqtisodchilarning vazifasi mavjud resurslar sharoitida ishchi kuchi imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanishdan iborat. Buning uchun tez o‘sib borayotgan mehnat resurslarini, birinchi navbatda yoshlarni ish bilan ta’minlash maqsadida ko‘p mehnat talab etadigan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish zarur. Respublikada ish bilan bandlik siyosastiga maksimal darajada amal qilinmoqda, lekin ushbu siyosat oqilona yuritilishi uchun mehnat bozori yanada samarali ishlashi kerak. Bundan buyon mehnat resurslarini samarasiz taqsimlashga hamda past mehnat unumdorligiga asoslangan to‘liq ish bilan bandlikni saqlab turishning iloji yo‘q.

Mehnat resurslaridan to‘la-to‘kis va samarali foydalanish uchun davlat ishchi kuchini shakllantiruvchi barcha tarkibiy vositalariga ta’sir o‘tkazishi kerak. Bu yo‘ldagi xal qiluvchi qadam davlat korxonalarini xususiylashtirish, shuningdek, xususiylashtirilgan korxonalarda aktsiyalar paketlarining davlatga qarashli ulushini kamaytirishdan iborat. Investitsiyalar jalb etish, birinchi navbatda, davlatning ichki resurslaridan, jumladan, xususiy jamg‘armalardan investitsiyalar jalb etish choralarini kuchaytirish iqtisodiyotimiz uchun qudratli ichki imkoniyatdir. Bu esa, aholi orasida pul jamg‘arish jarayoni kechayotganligidan dalolat beradi.

Mehnat salohiyatidan foydalanish samaradorligini baholashda quyidagilarni hisobga olish zarur:

-Aholi va mehnat resurslarini kengaytirilgan takror tiklanishning asosi bo‘lgan hayot darajasi va sifatining o‘sishi:

-Iqtisodiy rivojlanishning barcha omillari o‘zaro ta’siri natijasi sifatida yuz beruvchi ijtimoiy mehnat unumdorligining o‘sishi:

-Aholining maqbul bandligini ta’minlashning sharti va ko‘rsatkichi bo‘lgan ishchi kuchi taklifi bilan unga talabning mutanosibligi:

-Mehnat salohiyatining iqtisodiy xavsizlik tizimidagi o‘rni.

Malakali kadrlar tayyorlashning bosh maqsadi va vazifasi nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va foyda olishni ko‘paytirishdan, balki aholining ijtimoiy talab-ehtiyojlariga yo‘naltirishdan iborat bo‘ladigan bozor iqtisodiyoti tizimini qurish ijtimoiy bozor iqtisodiyotini vujudga keltirishning markaziy vazifasidir. Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlanishdan iborat bosh maqsadga erishish bilan birga, ba’zi ijtimoiy masalalarni ham ma’lum darajada xal etadi, chunki bozor iqtisodiyotining ko‘proq mahsulot ishlab chiqarishdan iborat bosh vazifasi xal qilinishi ish bilan bandlikni ta’minlashga mehnat natijalari uchun ish xaqi to‘lashga va hokazolarga olib keladi.

Hozirgi zamon ishchi kuchi bozorini tashkil qilish zarurati quyidagi ob’ektiv shart-sharoitlar bilan belgilanadi:

1) Ishchi kuchini shakllantirish, taqsimlash va kayta taqsimlash xamda bandlik jarayonlarini tartibga solish xaddan tashqari yuqoridan tashkil qilingan bo‘lib, ekstensiv ijtimoiy o‘sishni ifodalaydi. Bir necha un yilliklar davomida o‘tkazib kelingan «Barcha Respublikalar uchun umumiy bo‘lgan yagona bandlik siyosati» O‘zbekistonning xududiy xususiyatlarini, demografik jarayonlarni, ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishning milliy-etnik, ijtimoiy omillarini xisobga olmadi, bandlikni ta’minlashga iqtisodiy o‘sishni ta’minlash omili sifatida emas, balki shunchaki maksad sifatida karab kelindi. Natijada aholi bandligi muammosi dolzarb muammoga aylanib koldi.

2)O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanib borishi iqtisodiyotdagi tub tarkibiy uzgarishlar bilan bormokda. Natijada ishlab chiqarishning ishchi kuchiga bo‘lgan extiyoji xam tuxtovsiz uzgarib bormokda. Bunda ishchi kuchiga talab va taklifni, mehnat bozoriga kirib kelayotgan aholining asosiy toifalari mehnat jarayoniga kirayotgan yoshlarni, ishlab chiqarishdan bo‘shayotgan ishchilar, mutaxassislarni oldindan ishlamayotgan, ishga joylashishga muhtoj bo‘lgan aholini xisobga olish zarur.

3) Turli mulkchilikni shakllantirayotgan sharoitda xususiylashtirish jarayonlari ish joylarini muqobil tanlashni kengaytirish, turli mulk shakllaridagi korxonalar bo‘yicha ishchilarning joylashtirilishini kuchaytirishni zarur qilib qo‘yadi.

4) Respublika xalq xo‘jaligi mehnat resurslari bilan ortiqcha ta’minlangan, bu yerda ish vaqtini tejash qonuni talablarga rioya qilinmaydi. Bozor munosabatlariga rivojlanib borishida korxonalar individual xarajatlarini ijtimoiy zarur darajagacha pasaytirishga majburlash orqali bu qonunni harakatlantiradi.

Bunda kadrlar tayyorlashni mehnat bozori va ish bilan bandlikning umumiy holati bilan o‘zaro bog‘liqda qarash kerak, chunki mehnat bozori ishchi-xodimlar, ish beruvchilar va davlat manfaatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, kasb, ish joyi va mehnat faoliyatini tanlash erkinligini ta’minlash (amalga oshirish)ning o‘ziga xos mexanizmi hisoblanadi.

Bugungi kunda viloyatimiz iqtisodiyoti uchun zarur bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uzluksiz ta’lim tizimining asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lmish o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi zimmasiga ham yuklatilgan.

Hozirgi paytda har bir korxona, tashkilot va muassasa rivojlanishi uchun mehnat bozorini tahlil qila olishi, yangi va real axborot vositalari yordamida kelgusidagi faoliyatlarini bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiqlashtirib istiqbolni to‘g‘ri rejalashtirish ehtiyoji paydo bo‘lmoqda.

Iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda asosiy omil-bu ishchi kuchi bandligi hisoblanadi. Mamlakatda bandlik darajasi qancha yuqori bo‘lsa, uning iqtisodiyoti xam barqaror bo‘ladi. Shuning uchun hozirgi vaqtda ishchi kuchi bandligi darajasini oshirishga imkon yaratuvchi tadbirlar alohida o‘rin tutadi. Tadbirkorlik bandlik muammosini ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazarni hisobga olgan holda kompleks hal qilish imkonini beradi. Bunda inson faqatgina aniq ish joyi bilan ta’minlanmay, balki uning mehnatga bo‘lgan munosabati o‘zgaradi. passiv boqimandalik o‘rnini faol ijobiy mehnat egallaydi. Aynan tadbirkorlik inson tashabbuskorligini oshirish imkonini beradi, shaxs sifatida takomillashtiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev SH. Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib- intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: «O‘zbekiston», 36-b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.05.2017 y. «Aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshi-rishda maxalliy ijro xokimiyati va iqtisodiy kom pleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi N PK.-2960-son Qarori.

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2017 y. «Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samarador-ligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5052-son Farmoni.

YER VA SUVDAN OQILONA FOYDALANISH

Nuriddin Zaylobiddinov
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti “Iqtisodiyot” (Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti) mutaxassisligi 2 kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295900

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston yer resurslaridan samarali foydalanish maqsadida meliorativ ishlarni samarali olib borish haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Er resursi, suv resursi, suv xo‘jaligi, meleorativ, irrigatsiya, tejamkor texnologiya.

O‘zbekistonda yer va suvdan oqilona foydalanishda qishloq xo‘jaligida tuproqni muhofaza qilish va resurs tejovchi texnologiyalar juda muhim iqtisodiy soha hisoblanadi. Tupoqni haydashni umuman kerak emas deb aytishdan biz yiroqmiz. Lekin shuni alohida ta’kidlash joizki, yuqori hosil faqatgina yerni chuqur haydash orqali olinadi deb aytish ham noto‘g‘ri. Tuproq unumdorligini belgilovchi omillardan biri bo‘lgan yomg‘ir chuvalchanglarining tuproqlarimizda kamayib ketayotganligini aksariyat qishloq xo‘jaligida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar sezayotgan bo‘lishi mumkin. FAOning O‘zbekistonda o‘tkazgan tajribalariga asoslanib aytish mumkinki, tuproqni chuqur shudgor qilish yomg‘ir chuvalchanglari sonining olib kelgan bo‘lsa, tuproq haydalmagan yoki shudgor qilinmaganda esa chuvalchanglar sonining ortishi kuzatilgan.

O‘rta Osiyo davlatlarini suv bilan ta'minlab turadigan asosiy suv zahiralari Chotqol, Pomir–Oloy va Tyanshan tizma tog‘larida joylashgan. Markaziy Osiyo davlatlari suv zaxiralarining 70-80% Tojikiston, Qirg‘iziston va Qozog‘iston davlatlarini tog‘li o‘lkalari,Orol dengiz havzasiga qarashli qismida 8 mln. gektar atrofida yer sug‘oriladi. Bir yilda ichimlikka va sug‘orish uchun yaroqli 126,9 mlrd. m^3 suv paydo bo‘lib, bir gektar sug‘oriladigan yer hisobiga 15750 m^3 dan to‘g‘ri keladi. Agarda bir gektar yerga paxta ekib, undan o‘rtacha 25-30 sentner hosil olinadigan bo‘lsa, bir gektar yerni sug‘orish uchun manbadan olinadigan suvning hajmi kamida 10-15 ming m^3ni tashkil qiladi. Shu xududlarda juda ko‘p suv sarf qilish evaziga dehqonchilik qilinadi.O‘zbekiston Respublikasida bir yilda o‘rtacha 67 mlrd. m^3 suv iste'mol qilinadi, shundan 50 mlrd. m^3 sug‘orma dehqonchilik uchun sarflanadi. Har bir gektar sug‘oriladigan yerga o‘rtacha 11-12 ming m^3 suv sarflanadi.

O‘zbekiston suv xo‘jaligi mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri sifatida shakllandi va aholi hamda iqtisodiyotning suvga bo‘lgan ehtiyojini to‘la qondirishga xizmat qiladi.

Suv xo‘jaligi tizimida melioratsiya qurilishini Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi va «O‘zsuvqurilish» davlat konserni olib boradi. Suv xo‘jaligi qurilishi sohasida keyingi 25-30 yil davomida mavjud sug‘oriladigan 4,2 mln. ga yerning qariyb 2,0 mln. gektari Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi va «O‘zsuvqurilish» davlat konsernining qurilish tashkilotlari tomonidan o‘zlashtirildi. Sug‘oriladigan yerlarning 3 mln.gektarga yaqini drenaj tarmoqlari bilan ta'minlangan, 2 mln.gektardan ortiqroq yer nasos stansiyalari yordamida sug‘oriladi.

Melioratsiya va suv xo‘jaligi tizimida bir qancha korporatsiya, ishlab chiqarish birlashmalari, ilmiy ishlab chiqarish, ilmiy tajriba korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Korporatsiya va birlashmalarning har biri o‘z tizimida o‘nlab sanoat va qurilish industriyasiga ega.

Sug‘oriladigan dehqonchilikda mulkchilikning har xil turlari paydo bo‘lishi, fermerchilikning taraqqiy etishi, suv tanqisligining kuchayishi va boshqa sabablar tufayli respublikada suvdan va unga bog‘liq xizmatlar uchun pullik foydalanishga o‘tish sohasida tegishli ishlar olib borilmoqda. Suvni tejash maqsadida kanallar o‘zanida suv sizishini kamaytirish uchun qoplamalar yotqizilmoqda, tomchilatib va tuproq ustidan namlatib sug‘orish usullari qo‘llanilmoqda.Suv resurslaridan foydalanganlik va suvni yetkazib berish xarajatlarini qoplash hamda suv xizmati uchun to‘lov joriy etilgan.Suv xizmati uchun to‘lovlar SIU lar bilan fermer xo‘jaligi o‘rtasida shartnoma asosida olib boriladi.

Respublikamizda Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, Magistral kanallar (tizimlar) va Irrigatsiya tizimi boshqarmalari to‘liq shakllandi. Hududiy Nasos stansiyalari, energetika va aloqa boshqarmalari, Gidrogeologiya meliorativ ekspeditsiyalar, Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari tasarrufiga o‘tkazildi,

Suv xo‘jaligida o‘tkazilgan ushbu islohot natijasida:

- suvdan foydalanish rejalarini ishlab chiqish, suv olish va undan foydalanish bo‘yicha limitlarni o‘rnatish, suv olish va undan foydalanish shartnomalarini tuzish, shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, suvning kundalik oldi berdisini, hisob-kitobi va hisobotini yuritish, suv resurslari balansini ishlab chiqishda tubdan o‘zgarishlar ro‘y berdi;

- Qishloq xo‘jaligi vazirligining aloqador vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda bergan takliflariga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan O‘zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonuniga tegishli o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari faoliyatini yaxshilash to‘g‘risidagi asosiy vazifalar:

- SIUlar suvdan foydalanuvchilarga ajratilgan limitlar doirasida suv yetkazib beradi;

- uyushma ta'sischilari va boshqa suvdan foydalanuvchilar hamda suv xo‘jaligi tashkilotlari bilan ichki suv xo‘jalik obektlarini ta'mirlash va ishlatish bo‘yicha shartnomalar tuzishadi va uning bajarilishini ta'minlaydi;

- uyushma xo‘jaligi hududidagi suv xo‘jaligi ob'ektlarini tozalash va ta'mirlash, rekonstruksiya qilish ishlarini tashkil etadi;

- suv o‘lchash asboblarini qurishni tashkil etadi va ularni belgilangan tartibda pasportlarini tuzadi, shahodatlash hamda ro‘yxatdan o‘tkazishni ta'minlaydi;

- yer egalariga sug‘oriladigan yerlarning sho‘rini yuvish, suvdan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishda uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatadi;

- suvni iqtisod qiluvchi ilg‘or tajribalarni hamda texnologiyalarni joriy etishni tashkil etadi;

- uyushma balansidagi asosiy vositalarni texnik ko‘rikdan o‘tkazib boradi, ta'mirlash va yangilash, resurslarni iqtisod qiluvchi texnika va texnologiyalarni joriy qilish va istiqbolli rejalarni ishlab chiqish hamda har bir suvdan foydalanuvchining badallarini hisob-kitob qilib, belgilangan tartibda ta'sischilarning umumiy yig‘ilishida tasdiqlaydi.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligida aqlli texnologiyalarni qo‘llash quyidagilarni joriy etishni taqozo etadi:

– ma’lumotlar almashinuvining raqamli formatiga o‘tish, hisobot turlarini qisqartirish bilan ishtirokchilarning o‘zaro va davlat bilan hamkorligi samaradorligini oshirish;

– resurstejamkor texnologiyalar, xususan aniq uyalab ekadigan seyalkalar, GPS uskunalari bilan jihozlangan qishloq xo‘jaligi texnikalarini qo‘llash;

– suv resurslari, o‘g‘itlardan samarali foydalanishni nazarda tutuvchi suvtejovchi sug‘orish texnologiyalari;

– qishloq xo‘jaligi hayvonlarini parvarishlash va sutni sog‘ish bo‘yicha robototexnikalar;

– respublikaning qishloq xo‘jaligi quyi tarmoqlari va hududlari kesimida umumfoydalanishga qaratilgan **bilim** va **texnologiyalar banki**ni yaratish;

– raqobatbardosh, bozor va eksportga yo‘naltirilgan qishloq xo‘jaligini shakllantirish;

– xorijiy analoglarga mos keladigan **“Aqlli qishloq xo‘jaligi”** texnologiyalarini rejali asosda joriy etib borish.

Qarorga ko‘ra, shuningdek, 2022 yil 1 yanvardan:

• paxta xom ashyosi va boshoqli don yetishtirish uchun nasos agregatlari va sug‘orish quduqlari iste’mol qilgan elektr energiyasi qiymatini Davlat byudjetidan subsidiyalar hisobiga qoplash tartibi faqat suv tejovchi texnologiyalarni joriy etgan ishlab chiqaruvchilarga tatbiq etiladi;

• qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan suv xo‘jaligi tashkilotlarining sug‘orish quduqlari va vertikal drenaj quduqlaridan ekinlarni sug‘orishga suv tejovchi texnologiyalarni qo‘llash sharti bilan ruxsat etiladi.

SHu bilan birga, qarorga muvofiq, 2020-2030 yillarda suv xo‘jaligini rivojlantirish kontseptsiyasi ishlab chiqildi.

Paxtachiliqda resurs tejamkor texnologiyaning afzalliklari:

• kuzda g‘o‘zapoyali dalani kelgusi yil uchun pushtalab ekishga tayyorlashga erishiladi;

• g‘o‘zapoya organik o‘g‘it sifatida paxtazor tuprog‘iga qaytirib beriladi;

• barcha jarayonlar bir o‘tishda bajarilganligi sababli tuproq strukturasi buzilmaydi, ayniqsa zichlanmaydi;

• yoqilg‘i mahsulotlari sarfi 3,5-4,2 marta, shunga mos holda, mehnat va vaqt sarfi qisqaradi.

Bir o‘tishda yerni yumshatish, zichlash, bug‘doy ekish va bug‘doy ekilgan qatorchalar tuprog‘ini zichlash kabi jarayonlarning bajarilishi hisobiga agregatlarning dala bo‘ylab o‘tishlar soni 4 martaga kamayadi, katta tezlikda ishlaydigan kombinatsiyalashgan mashinalarni qo‘llash hisobiga yonilg‘i sarfi o‘rta hisobda 2,4 martaga kamayadi (amaldagi texnologiyada 91,2 l/ga, resurstejamkor texnologiyada 38,0 l/ga).

Tomchilatib sug‘orish texnologiyasi bilan 7 marta sug‘orilganda sug‘orish me’yori 3663 m3/ga.ni yer ustidan 5-6 marta sug‘orilganda esa bu ko‘rsatkich 5673 m3/ga.ni tashkil qildi. SHunday qilib,tomchilatib sug‘orilganda sug‘orish suvining iqtisod qilinishi 35,4 % yoki 2010 m3/ga ni tashkil qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH. “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jali- gini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallan- gan kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–6024-son Farmoni. – Toshkent, 2020 yil 10 iyul.

2. A.Abdug‘aniev. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti (darslik). Toshkent, 2010.

3. Qishloq xo‘jalik ekinlari yetishtirishda innovatsion texnologiyalar. Qo‘llanma. G‘Adilov M.M, Atabaeva X.N, Xudoykulov J.B, G‘ulomov B, Qodirxo‘jaev O, Norkulov U, Normuratov I, Yakubov M, Janakova D, Akramov U, G‘ulomov A.-T.: 2013 y. 60 b.

YUQORI MALAKALI MUTAXASSISLAR TAYYORLASHDA ISHLAB CHIQARISH VA TA'LIM INTEGRATSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Mavludaxon Saidova
Andijon mashinasozlik instituti "Iqtisodiyot" kafedrasi
katta o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295904

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda o'qitish va ta'lim sohasida sifatli mutaxassislarni tayyorlash maqsadida fan bilan ishlab chiqarishning uyg'unligi xamda jahon andozalari talablariga to'la javob beradigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Integratsiya, malaka, ishlab chiqarish, kadr, raqobatbardosh, ta'lim, yuqori malaka, kadrlar tayyorlash.

«Integratsiya» atamasi Farbiy Yevropa mamlakatlari davlatlararo institutlarni yarata boshlaganda, shuningdek iqtisodiy siyosatni koordinatsiyalash va savdo erkinligini ta'minlash maqsadida iqtisodiy birlashmalarni tuzish vaqtida xalqaro munosabatlarda ishlatila boshlandi. SHunisi qiziqarliki, Yevropa integratsiyasini tahlil qiluvchi olimlar orasida ushbu mintaqa doirasidagi davlatlar integratsiyasiga nisbatan shu kungacha yagona bir yondoshuv ishlab chiqilmagan. Lekin shu bilan birga, ularning xammasi integratsiya ijobiy hodisa ekanligini, shuningdek bu «hamma ishtirok etuvchi tomonlar uchun bir qator ustunliklarga ega bo'lishiga qaratilgan jarayon»[1] ekanligini e'tirof etishgan. Aynan Yevropa mintaqasidagi davlatlarga nisbatan Jan Monne quyidagicha fikr bildirgan: «Agar mintaqa davlatlari o'z milliy suverenitetlariga ustuvor yo'nalish sifatida qarab rivojlanadigan bo'lishsa, Yevropada xech qachon tinchlik bo'lmaydi. CHunki bunday rivojlanish davlatlarning ustunlik qilish siyosatiga va milliy iqtisodiy protektsionizmiga olib keladi. Yevropa davlatlari yolg'iz holda o'z xalqlari uchun yetarli darajadagi turmush sharoitini yaratib bera olmaydilar. Zaruriy rivojlanish dinamikasiga faqat shu narsa bilan erishish mumkinki, bunda mintaqa davlatlari federatsiya yoki boshqa bir «Evropa konfederatsiyasiga» birlashadilar, bu esa o'z navbatida iqtisodiy yagonalikni keltirib chiqaradi»[2].

Turli darajada rivojlangan iqtisodiy tizimlar faoliyat yuritishninig ta'sir ko'rsatadigan barcha omillarini e'tiborga oluvchi bozor muhitining qat'iy talabi sifatida raqobatbardoshlikni tan olishga asoslangan tizimli metodologik yondashuv milliy iqtisodiyotni takomillashtirishning to'liq tizimini tashkil etishga imkon yaratadi. Respublikada iqtisodiy modernizatsiya dinamikasi ishlab chiqarish munosabatlari va iqtisodiy aloqalarning o'zgarishida, jahon bozorining shakllanishida, O'zbekiston iqtisodiyotining tuzilmaviy qayta qurishda aks etayotgan

iqtisodiy plyuralizm tomoniga jamiyatning harakatlanishini ko‘rsatmoqda. Biroq, iqtisodiy rivojlanish jarayonlari oddiy tarzda kechayotgani yo‘q. Negaki, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta’minlash strategiyasini umumdavlat rivojlanish strategiyasiga tartibli tarzda kiritish sharti bilan jahon xo‘jaligida mavjud sharoitlarga mos integratsiyalashish yo‘llarini izlab topish vazifasi keskin turibdi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda bir qator yo‘nalishlar bo‘yicha olib borilishi lozim bo‘lib, bor imkoniyatlar bilan kengayish va integratsiyaning bozor asoslarini chuqurlashtirish, tarmoqlarning xo‘jaliklararo munosabatlarida tadbirkorlik tuzilmalarining rolini oshirish ular orasida eng muhimi bo‘lib qoladi. Bu alohida guruhlar o‘rtasida integratsiya jarayonlarini amalda faollashtirishga imkon yaratuvchi asosdir.

Integratsiya jarayonlarini rivojlantirish uchun ishlab chiqaruvchilar, savdo birlashmalari, tadbirkorlik tuzilmalari o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalarining tezkor vazifalari bozor xo‘jalik sub’ektlari tomonidan amalga oshirilishi zarur. Milliy xo‘jaliklarning haqiqiy integratsiyasi turli mamlakatlar korxona va tashkilotlarning bevosita xo‘jalik aloqalari asosidagina muvafaqqiyatli amalga oshirilishi mumkin. Integratsiya jarayonlarining sustligi ma’lum miqdorda, mazkur jarayonning amalga oshirilishida turli vazirliklar va boshqarmalar tomonidan hal etiladi.

Iqtisodiyotning energetika, stanoksozlik, konchilik tarmoqlari, kimyo sanoati va metallurgiya sohalarida kooperatsiyani yaratish uchun barcha sharoitlar mavjud. Xalq xo‘jaligi mazkur sohalarining ko‘plab korxonalari kooperatsiya munosabatlarining yo‘qligi tufayli butunlay ishlamaydi yoki juda kichik hajmda ishlab chiqarish hajmiga egadir.

Shuni nazarda tutish kerakki, koorporatsiyalar tashkil etilayotganda tashkilotlar tizimi, ya’ni o‘z vazifalariga ko‘ra yagona bir butun tashkiliy jihatdan birlashtirilgan xo‘jalik birliklari, korxonalarining uyushmasi yuzaga keladi. Tizim ichidagi amaliy-tashkiliy boshqaruv, tizimining yagona bir maqsadlariga erishish uchun alohida qismlarni bog‘lovchi tartibga bo‘ysundirilishi kerak. Mustaqil tashkilotlarning korporatsiyaga tashkiliy-iqtisodiy birlashuvi, uni o‘zaro manfaatdor hamkorlikka aylantiradi, foydali ishchan aloqalarni mustahkamlaydi, rivojlanish, o‘zaro yordam hamda markaz va joylarda o‘zaro manfaatlari himoya qilish strategiyasini birgalikda ishlab chiqish imkonini beradi.

Mamlakat xo‘jaligiga muvafaqqiyatli integratsiyalashish uchun har bir hudud, eng avvalo, o‘z iqtisodiy qudratiga, undan keyin esa tarmoqlarning iqtisodiy munosabatlariga suyanadi. Bu bir nechta tarmoqlar yoki korxonalar o‘rtasida yagona ishlab chiqarishning taqsimlashga va avval bir joyda to‘plangan ishlab chiqarish faoliyati va jarayonlarini ularning mahalliy narxlar, resurslar, moddiy-texnik ta’minot va bozor xususiyatlaridan kelib chiqadigan ustunliklarini e’tiborga olgan holda yoyib yuborishga imkon beradi. Ishlab chiqarishni joylashtirish va tashkil etishdagi ba’zi bir

o‘zgarishlar korxonni uzviy shartnoma munosabatlariga undovchi bozor omillari ta’siri ostida yuzaga kelsa, boshqalari esa ierarxik xususiyatga egadir, bunda korporatsiyalar bevosita o‘z nazoratlari ostida ishlab chiqarish va savdo bilan shug‘ullanuvchi filiallarni yaratadi. Hozirgi vaqtda integratsiyalashish O‘zbekistonda sanoatning yetakchi tarmoqlari birlashuvidan iborat bo‘lmoqda. Integratsion uyushgan tarmoqlarning umumiy iqtisodiy makonidagi umumiy takror ishlab chiqarish bir butun takror ishlab chiqarish tizimini yaratadi.

O‘zbekiston uchun o‘ziga xos xususiyat shundaki, ilmiy-texnik rivojlanishning eng muhim ustuvorliklari iqtisodiyot va axborot sohasida, ta’lim va sog‘liqni saqlashda, tabiatni muhofaza qilish va boshqalarda - milliy innovatsiya tizimlarining barcha bo‘g‘inlarini mustahkamlash bo‘yicha uzoq muddatli sinchkovlik talab etiladigan ishlar bilan yanada bog‘lanib qolmoqda. Aynan shu unsurlar birgalikda ilmiy- texnik rivojlanishning yashovchan tizimini shakllantiradi.

Fan – texnika taraqqiyoti omillarining qiyosiy tahlili jahon tajribasidan o‘tgan rivojlanish modellarida asosiy farq qiluvchi omillarni aniqlashga imkon beradi. Bu bir tomondan, fan, ta’lim va ko‘p ilm talab qiluvchi tarmoqlarni rivojlantirishga asoslangan dinamik o‘sishdir. Bunga misol tariqasida shuni aytish mumkinki, respublikada o‘zimizda ishlab chiqarilayotgan paxta tolasining taxminan o‘ndan bir qismi iste’mol qilinadi, uning qolgan qismi eksport qilinadi, bu valyuta tushumlarining asosiy moddasini tashkil qiladi. Lekin respublikada yetishtirilgan paxta xom ashyosini o‘zimizda qayta ishlab uni tayyor mahsulot shaklida eksport qilinsa, valyuta tushumlari ko‘payadi. Buning uchun esa yuqorida aytib o‘tganimizdek xo‘jaliklarni integratsiya jarayonlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda paxta sohasida klasterni shakllantirish juda muhim va aynan respublikaning paxta majmui uning asosi bo‘lishi mumkin.

O‘z navbatida ushbu jarayonlarni amalga oshirishda albatta malakali kadrlar talab yetiladi. Malakali kadrlar tayyorlashning bosh maqsadi va vazifasi nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va foyda olishni ko‘paytirishdan, balki aholining ijtimoiy talab-ehtiyojlariga yo‘naltirishdan iborat bo‘ladigan bozor iqtisodiyoti tizimini qurish ijtimoiy bozor iqtisodiyotini vujudga keltirishning markaziy vazifasidir.

Ta’kidlab o‘tilganlar ko‘p jihatdan yetuk mutaxassis kadrlarga bog‘liqligi barchamizga ayon. Bugungi davr, ayniqsa, zamonaviy bilim va malakaga ega bo‘lgan muxandis-texnologlar, iqtisodchilar, korporativ boshqaruv menejerlari, marketologlar, shuningdek, axborot texnologiyalari sohasida dasturchilarni tayyorlashni tubdan kuchaytirish va mazkur sohalarda iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashni talab qilmoqda.

Chunki ayrim tarmoq va korxonalarda mahsulot bozorlari va tashkilot holatini tahlil qilish, uning kuchli bosh omillarini baholash, strategik rivojlanishini belgilash,

ichki va tashqi xo‘jalik bog‘lanishlarini muvofiqlashtirish, shartnomaviy munosabatlarni tartibga solish, ayniqsa, ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlash va boshqarishda hamon oqsoqlikka yo‘l qo‘yilayotgani hech kimga sir emas.

Bugungi sharoit xodimlar manfaati va huquqlarini himoya qilish, moddiy rag‘batlantirish mexanizmlarini tubdan yangilash, ularning burch va majburiyatlarini bajarishlari bo‘yicha mas’uliyatini oshirish, yuqori foyda bilan ishlashga undovchi omillarni kuchaytirishni talab etmoqda. Bularning barchasi, shubhasiz, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning yuqori malakali, mas’uliyatli va yetuk kadrlar bilan qay darajada ta’minlanganligiga bog‘liq.

Buning uchun ta’lim tizimi, ayniqsa, barcha sohaga bo‘lajak kadrlarni tayyorlashning tayanchi bo‘lgan oliy o‘quv yurtlari faoliyatini zamon talablari asosida yanada takomillashtirish, ta’lim xizmatlari sifatini jahon andozalari darajasida ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek**,** respublikamiz va rivojlangan xorijiy mamlakatlarda to‘plangan ilg‘or tajribani atroflicha o‘rganish, chuqur tahlil qilish, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini mutlaqo yangilash lozim bo‘lmoqda. Chunki bu jarayon muntazamlik va davomiylikni talab etadi**.**

O‘zbekistonda o‘qitish va ta’lim sohasida ijtimoiy hamkorlik loyihasi doirasida ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida bugungi keskin raqobat sharoitida fan bilan ishlab chiqarishning uyg‘unligini ta’minlashninig asosiy yo‘li bo‘lib qolmay, jahon andozalari talablariga to‘la javob beradigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning kafolati xamdir. Ta’lim muassasalarida ta’lim dasturlarini yaratayotganda eski an’anaviy uslubda yondashmay, balki korxonlar bilan ijtimoiy xamkorlikda ishlab chiqish bilan amalga oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Hozirgi kunda korxonalar bozor talabiga mos ravishda mahsulot ishlab chiqarish uchun yangi texnologiyalarni va materiallarni qo‘llashga harakat qilmoqdalar. Lekin ayni paytda talabalar amaliy bilimi o‘quv dasturlari bo‘yicha o‘tilgani uchun ancha orqada qolmoqda. Talabalarni amaliy bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida ishlab chiqarish korxonalari bilan xamkorlikda amaliy mashg‘ulotlarni ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog‘liq ravishda o‘tish bo‘yicha dastur tayyorlash zarur hisoblanmoqda. Ta’lim dasturlari nazariy bilim bilan ishlab chiqarish amaliyoti o‘rtasida bog‘lovchi ko‘prik o‘rnatishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Ta’lim davsturlarida berilgan o‘quv rejalarni o‘zgartirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Sababi, amaliy mashg‘ulot soatlari hajmini ko‘paytirish talab etiladi. Amaliy mashg‘ulot darslari iqtisodiyot tarmoqlari bilan amalga oshirilar ekan kamida kurs mavzularidan kelib chiqib 15 – 30 kunga uzaytirish kerak. Talaba amaliyot o‘tash bilan birga korxona faoliyati bilan tanishib, soxa yo‘nalishini chuqur o‘rganishga intiladi xamda ish bilan ta’minlash muammosini yechishga xam yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, integratsiya iqtisodiy rivojlanish darajasi bo‘yicha yaqin bo‘lgan milliy xo‘jaliklarning barqaror iqtisodiy munosabatlari va mehnat taqsimoti rivojlanishining ob’ektiv jarayonidir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Кизима С.А., Бабкин А.И. Системные аспекты организatsии и функционирования Европейского союза // Европейский союз: история, политика, экономика, право. Международнаya научно-практическая конференция (17-18 декабруа 1997 года, Минск). Сб. науч. Тр. Мн.: Белгосуниверситет, 1998. С.106.

2. Kohl H., Die Europaische Gemeinschaft - Bilans und Perspective // Europe - unzere Zukunft. Herford. 1989 - S.21

DARS JARAYONIDA O‘QITISHNING KO‘RGAZMALI USULLARINI SAMARALI QO‘LLASH

Mehrangiz Abrayeva
Samarqand davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta'lim fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish yo‘nalishi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295956

Annotatsiya: Ushbu maqolada dars jarayonida oqitishning ko‘rgazmali usullarini samarali qo‘llash haqida fikr bildirilgan bo‘lib, ko‘rgazmali usuldan foydalanish boshlang‘ich sinflar misolida, amaliy jihatdan qo‘llab ko‘rsatilgan.
Kalit so‘zlar: O‘quvchi, didaktika, ko‘rgazmalilik, usullar, idrok, tafakkur.

“Aytsang unutaman, ko‘rsam eslab qolaman, o‘zim bajarib, anglab yetaman”
Xitoy faylasufi Konfutsiy

Ko‘rgazmali usullar deganda, ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan ko‘rgazmali qurollar va texnika vositalariga ko‘p darajada bog‘liq bo‘lgan o‘quv materialini o‘zlashtirish shakllari tushuniladi.

Ta’limning ko‘rgazmali vositalari bilimlarni o‘rganish va o‘zlashtirish darajasini belgilaydi. Bunda, masalan, tikuv mashinasi detallari namunalari ko‘rsatilishi yoki tikuv mashinasida bajariladigan texnologik jarayonning videotasviri namoyish qilinishi mumkin.

Asosiy maqsad dars mazmuni, albatta. O‘qituvchi esa qoshimcha tuzatishlar kiritishi mumkin xolos.

Ta’limning bunday metodlaridan foydalanilganda o‘quvchilarning bilish faoliyati ko‘gazmali vositalar yordamida shakllanadigan yoki esga tushiradigan hissiy obrazlarga, tassavurlarga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘rgazmali qurollar bilimlarni tartibga solish va boyitishga, shuningdek, o‘quvchilarning fikr yuritish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi.

Ta’limning ko‘rgazmali metodlari o‘quvchilarning bilim faoliyatida obrazli va mantiqiy, aniq va mavhum, hissiy va aqliy jihatlar nisbatini chuqur tushunishni talab etadi.

O‘qitishning ko‘rgazmali usullarini qo‘llash Y.A.Komenskiyning “Buyuk didaktika” asaridayoq o‘z asosini topgan. ”O‘quvchilar sezib, idrok etishi mumkin bo‘lgan narsalarni, albatta, sezgilar vositasi bilan, ko‘rish mumkin bo‘lgan narsalarni ko‘z bilan ko‘rib, eshitish mumkin bo‘lgan narsalarni quloq bilan eshitib, hidi bor narsalarni tatib ko‘rib, ushlab sezish mumkin bo‘lgan narsalarni ushlab ko‘ribgina bilib olishlari kerak”**,** - deb yozgan edi u.

Ko‘rgazmali idrok katta imkoniyatlarga ega. Eslab qolishda ko‘rgazmalilikning o‘zi emas, balki ularning nutq va amaliy faoliyat bilan birlashtirilishi eng yuqori samaradorlikka ega bo‘ladi. Bu o‘qitish usullarining eng samarali birikmasini izlash zarurligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham ayrim didaktik qo‘llanmalarda ko‘rgazmalilik tomoyilini o‘quv-bilish faoliyatidagi jonli mushohada va abstrakt tafakkurning organik bog‘liqligini ta’kidlab, aniq hamda mavhumlik birligi sifatida talqin qilinishi bejiz emas.

Oqitish jarayonida qo‘llaniladigan ko‘rgazmali vositalariga quyidagilar kiradi:

- o‘qituvchining namoyish qilishi, ekskursiya, sayr va hokazolar davomida o‘quvchilar tanishadigan asl holidagi tabiiy obyektlar;

- real obyektlarni aks ettiruvchi maxsus tayyorlanadigan illyustratsiya – tasviriy vositalar – plakatlar, sxemalar, rasmlar, fotosuratlar, grafik qo‘llanmalar va hokazolar, shuningdek, hajmli geometrik shakllar, jismlar, mulyajlar va boshqalar;

- ko‘rgazmalilikning shartli va ramziy vositalari – kartalar, globuslar, telluriylar va boshqalar;

- tabiiy - matematik yo‘nalishdagi predmetlarni o‘rganishda qo‘llaniladigan namoyish qilish asboblari, modellari va boshqalar;

- ko‘rgazmalilikning texnik namoyish qilish vositalari – kinofilm, diafilm, diapozitivlar, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va shunga o‘xshashlar;

- tovush, ko‘rish va eshitish vositalari – videoyozuv, videofilmlar va hokazolar.

Shundan ta’limning ko‘rgazmali usullarini ikkita kichik guruhi: illyustratsiya usullari va namoyish qilish usullari mavjud degan xulosa kelib chiqadi.

O‘qitishning yassi vositalarini illyustratsiya qilish usullari plakatlar, sxemalar, rasmlar, chizmalar, fotosuratlar, grafik qo‘llanmalar va boshqalarni ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi.

O‘qitishning hajmli vositalarini namoyish qilish usullari asbob va uskunalarni namoyish qilishni; dinamik qo‘llanmalar, asl holidagi tabiiy obyektlarni ko‘rsatishni; texnik namoyish qilish vositalari – kinofilm, diafilm, diapozitivlar, axborot kommunikatsiya texnologiyalari; tovush, ko‘rish va eshitish vositalari (videoyozuvlar, videofilmlar) va hokazolarni nazarda tutadi.

O‘qituvchi o‘qitishning umumiy tamoyillariga tayanib, o‘qitishning ko‘rgazmali usullarini qo‘llash qachon samarali bo‘lishligi haqida tasavvurga ega bo‘lishi, ya’ni ularning imkoniyatlarini bilishi kerak. Quyida o‘qitishning ko‘rgazmali usullaridan namunalar keltiriladi.

“Ertaklar yaxshilikka yetaklar” usuli

Bu harakatli ko‘rgazma o‘qish faniga oid. O‘quvchi ertak asosida rasm chizilgan teskari turgan qog‘ozni olib boshiga kiyadi. O‘tirgan o‘quvchilar shu ertak asosida o‘quvchiga savollar beradi. O‘quvchi ertakni qanchalik yaxshi bilganlgi javobiga bog‘liq va ayni damda bu ko‘rgazma o‘quvchilarni o‘ziga jalb qiladi. Bu ko‘rgazmani


darsda qo‘llaganda dars juda qiziq o‘tadi. Ayniqsa musoboqa darslarida o‘quvchilar javobiga qarab guruhlar baholanadi.

“O‘yla, izla, top” usuli

Bu harakatli ko‘rgazmani barcha fanlarda qo‘llasa bo‘ladi. Buning uchun qo‘llaydigan fandan savollar tuziladi. O‘quvchi charxpalakni aylantirib, o‘q qaysi savolga to‘xtasa o‘quvchi o‘sha savolga javob beradi.

“O‘yla, bolajon!” usuli

Bunda doirachalar ichida harflar yozilib, shu harflar bir-birlariga chiziqlar orqali birlashtirilgan bo‘ladi, o‘quvchi ularni ya’ni harflarni o‘qigan holda yashiringan so‘zni topib, shu so‘zga berilgan savollarga javob berishlari lozim. Bu ko‘rgazmadan o‘qish va ona tili darslarida qo‘llashi mumkin.



“**Piktogramma” usuli**

Bu usulda ertak qahramoni yoki multfilm qahramonlari rasmi ko‘rsatiladi, o‘quvchilar ushbu qahramonlarni rasmlariga qarab, multifilm yoki ertakni nomini topshlari kerak. Masalan:



“Yoriltosh” ertagi



“Qizil shapkacha” ertagi



“Bobo sholg‘om” ertagi

Tadqiqotlar natijasi shuni tasdiqladiki, maqsadga muvofiq tuzilgan mashqlar tizimi vositasida o‘quvchilarda o‘qitishning ko‘rgazmali usullaridan foydalanish ko‘nikma va malakalarini samarali shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avliyoqulov N.X., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2008-yil

2. Ibragimov R. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida bilish, faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Diss. T., 2011-yil

www. pedagog. uz

www. ziyonet. uz

VOYAGA YETGAN ORGANIZMDA QON YARATILISHI

Durdona Aliyeva
Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy Universiteti
Biologiya fakulteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295962

Annotatsiya: Tirik organizimlarda qon ko`plab funksiyalarni bajaradi transport,oziq moddalar,kislarod tashiydi ba`zan gumoral funksiyalarni ham va tanada issiqlikni bir meyorda saqlab turish vazifasini ham bajaradi.

Аннотация: В живых организмах кровь выполняет множество функций, она транспортирует питательные вещества, кислород, иногда выполняет гуморальные функции, а также сохраняет тепло тела.

Annotation: In living organisms, blood performs many functions, it transports nutrients, oxygen, and sometimes performs humoral functions as well as keeping the body warm.


Kalit so`zlar: ayrisimon bez, eritrotsitopoez, granulotsitopoez, limfotsitopoez, retikulyar, interdigitik, polixromatofil normotsit,oksifil normotsit, gemoretikulotsit

Ключевые слова: сальная железа, эритроцитопоэз, гранулоцитопоэз, лимфоцитопоэз, ретикулярный, межпальцевый, полихроматофильный нормоцит, оксифильный нормоцит, геморетикулоцит.

Key words: sebaceous gland, erythrocytopoiesis, granulocytopoiesis, lymphocytopoiesis, reticular, interdigital, polychromatophilic normocyte, oxyphilic normocyte, hemoreticulocyte.

Voyaga yetgan organizmda qon yaratuvchi asosiy organlar qizil suyak komigi, taloq, limfa tugunlari va boqoq bezi (ayrisimon bez) hisoblanadi. Barcha qon shaklli elementlari uchun yagona boshlangich hujayra qonning ozak hujayralaridir. Uzak hujayralarning mavjudligini kanadalik olimlar Mak Kullox va Till 1960 yilda isbot qildilar va bu bilan rus olimi A. A. Maksimovning asrimiz boshida barcha qon hujayralari uchun yagona boshlangich hujayra mavjud ekanligi togrisidagi fikrini tasdiqladilar. Uzak hujayralar qon yaratilishining barcha yonalishlarida, ya’ni eritrotsitopoez, granulotsitopoez, limfotsitopoez, monotsitopoez va trombotsitopoez yonalishlarida rivojlana oladigan hujayralar sinfiga kiradi. Ularning asosiy xususiyatlari oz-ozini saqlab qolish qobiliyatining borligi kopayish imkoniyatiga egaligi va turli yonalishlarda rivojlana olishi hisoblanadi. Uzak hujayralar ma’lum bir miqdorda bolib, bolinganida ham ularning soni ozgarmay doimiy qoladi, ya’ni ozak hujayra bolinishi natijasida hosil bolgan ikki hujayraning faqat bittasigina takomillashishni davom ettirib, ikkinchisi ozgarmay, ozak hujayraligicha qoladi. Bu

hujayralar tuzilishi boyicha mayda qoramtir limfotsitlarga oxshab ketadi. Hujayralar diametri ortacha 8-10 m km bolib,, sitoplazmasi tor. Hujayra organellalari va polisomalar kam,, erkin ribosomalar esa kop. Uzak hujayralarni organish ular-ning koloniyalar (ma'lum bir yonalishda takomil etuvchi hujayralar toplami) ni hosil qilish xususiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Bir ozak hujayra faqat bitta koloniya hosil qila-di va uni koloniya hosil qiluvchi birlik deb ataladi. Uzak. hujayralar asosan ikki yonalishda differensiallanishi aniqlangan. Birinchi yonalishda yarim ozak hujayra yoki miyelopoezning boshlangich hujayrasi (M B H) hosil boladi. Bu hujayra eritro-, granulo-, mono- va megakariotsitopoezlar yonalishida differensiallanadi. Ikkinchi yonalishda boshqa yarim ozak hujayra yoki limfotsitopoezning boshlangich hujayrasi (L B H) hosil boladi. U oz navbatida T- va B-limfotsitopoezlar yonalishida differensiallanish qobiliyatiga ega. Yarim ozak hujay-ralar (MBH, LBH) dan tashqari gemotsitopoezning har bir qa-tori uchun xos bolgan boshlangich unipotent hujayralar ham mavjudligi aniqlangan. Masalan, eritrotsitlarning (EBH),, neytrofillarning (NBH), bazofillarning (BBH), eozinofillarning (EOBH), monotsitlarning (MNBH), megakariotsitlarning (MGBH), T- va B-limfotsitlarning (TlBH, BlBH) oz bosh-langich hujayralari bor. Ulardan oz navbatida morfologik jihatidan identifikatsiya qilinishi mumkin bolgan blast hujayralareritroblastlar, monoblastlar, miyeloblastlar, megakarioblastlar, T-va B-limfoblastlar differentsiallashadi.



Shunday qilib, gemotsitopoez jarayonida turli hujayralar sinflari mavjudligi koriladi: ozak (yoki polipotent) hujayralar, yarim ozak hujayralar (MBH va LBH), unipotent hujayralar (EBH, EOBH, NBH, BBH, MNBH, MGBH, TlBH, BlBH), blast hujayralar, yetiluvchi hujayralar, yetuk hujayralar. Uzak hujayralardan boshlab to

yetuk qon shaklli elementlari hosil bolguncha kechadigan jarayon qon yaratuvchi a'zolarda mavjud bolgan mikromuhit ta'sirida boladi. Mikromuhitni hosil qiluvchi asosiy elementlar bolib, retikulyar, interdigitik, dendritik hujayralar va makrofaglar hisoblanadi. Boqoq bezi yoki timusda esa jarayonda retikuloepitelial hujayralar asosiy rol oynaydi. Mikromuhit hujayralari ozak yoki yarim ozak hujayralarining qon shaklli elementlariga differensialanishini ta'minlovchi biologik aktiv moddalar ishlab chiqaradi. Bu moddalarga eritrotsitopoezda aktiv ishtirok etuvchi eritropoetin, megakariotsitopoezda qatnashuvchi trombopoetin yoki T-limfotsitlarning hosil bolishida aktiv rol oynaydigan timopoetin va boshqalar misol bola oladi.

Gemotsitopoez jarayoni togrisida kop nazariyalar yaratilgan. Ularni polifiletik (ya'ni bir necha ozak hujayralari mavjudligini tan oluvchi), dualistik (ikki ozak hujayrasi mavjud deyuvchi) va unitar (yagona ozak hujayrasi borligini tan oluvchi) nazariyalarga bolish mumkin. Hozirgi paytda barcha talablarga javob beradigan qon yaratilishi nazariyasi unitar nazariya hisoblanadi. Bu nazariya rus va sovet olimlari A. A. Maksimov, A. N. Kryukov, I. A. Kassirskiylarning ishlari va, nihoyat, oxirgi 15-20 yillar ichida olib borilgan eksperimental ishlar natijasida rivojlandi va mustahkamlandi. Unitar nazariya boyicha barcha qon elementlari uchun yagona polipotent ozak hujayrasi mavjud. Bu hujayra qonning barcha shaklli elementlari uchun eng bosh hujayra hisoblanadi.

Gemotsitopoez jarayonini shartli ravishda ikki toqimada - miyeloid va limfoid toqimalarda kechadi deb hisoblanadi. Miyeloid toqimada (textus myeloideus) asosan eritro-, granulo-, mono- va megakariotsitopoezlar sodir boladi. Bu toqimaga asosan qizil suyak komigi kiritiladi. Limfoid toqimaga (textus lymphoideus) esa timus, taloq, limfa tugunlari va boshqa limfoid tuzilmalar kirib, bu yerda limfotsitlar va plazmatik hujayralar hosil bolishi kuzatiladi. Ammo bu ikkala toqimaning ajratilishi juda shartli bolib, ular ichki muhit toqimasining faqat bir qismidir. Eritrotsitopoez yoki qizil qon tanachalarining taraqqiyoti. Qizil qon tanachalari yoki eritrotsitlar voyaga yetgan organizmda qizil suyak komigida taraqqiy etadi. Ular uchun barcha qon hujayralari kabi, boshlangich hujayra bolib, ozak hujayrasi hisoblanadi. Uzak hujayralar oz navbatida miyelopoezning boshlangich hujayralari tomon differensiallashib, bu hujay-ralardan keyinchalik granulotsitopoez, eritrotsitopoez va megakariotsitopoez boshlanadi. Morfologik jihatidan aniqlangan eritrotsitopoezning dastlabki hujayrasi eritroblastlardir.

Eritrotsitopoez protsessi sxematik tarzda quyidagicha ifodalanishi mumkin: ozak hujayra -> miyelopoezning boshlangich hujayrasi ->eritroblast ->pronormotsit -> bazofil normotsit - >polixromatofil normotsit ->oksifil normotsit ->gemoretikulotsit -> eritrotsit. Eritroblast - eritrotsitlar taraqqiyotining morfologik jihatdan aniqlanishi mumkin bolgan eng yosh hujayrasi. Odatda, eritroblast hujayrasi ancha yirik boladi (20-25 mkm), ammo ba'zida mayda hujayralarni (12-15 mkm) uchratish mumkin.

Eritroblast yadrosi tekis tor shaklida joylashgan nozik xromatin ipchalaridan iborat bolib, sitoplazmasida gemoglobin ham, donachalar ham bolmaydi. Romanovskiy usuli bilan boyalgan sitoplazma toq kok rangni oladi. Elektron mikroskop ostida eritroblast sitoplazmasi oz tuzilishi bilan differensial-lashmagan blast hujayrasini eslatadi, biroq undan farqli olaroq koproq elektron zichlikka ega boladi. Eritroblastlarda hujayra organellalari kam sonli bolib, erkin joylashgan ribosoma va polisomalar juda kop uchraydi. Ular mitotik yol bilan bolinib kopayadi va keyingi takomillanish bosqichiga- pronormotsitlarga otadi. Pronormotsitlar eritroblastlarga nisbatan kichikroq (12- 18 mkm) bolib, ularning yadrosi zichroq tuzilishga ega. Pronormotsit sitoplazmasi intensiv bazofil boyalish xususiyatiga ega. Elektron mikroskop ostida pronormotsit sitoplazmasi eritroblastlarga nisbatan zichroq bolib, bu zichlik hujayra sitoplazmasida sintez qilina boshlagan gemoglobin hisobiga boladi. Uta kattalashtirilganda sitoplazmada erkin holda yoki mayda pufakchalar ichida joylashgan ferritin zarrachalarini korish mumkin. Ferritin yuqori molekulali temir saqlovchi oqsil bolib, gemoglobin sintezida ishtirok etadi. Takomillanish davomida sitoplazmada gemoglobinning kopayib borishi pronormotsitlarning keyingi taraqqiyoti bosqichi - normotsitlar bosqichiga otganidan darak beradi. Normotsitlar- 8-12 mkm kattalikka ega bolgan hujayralar bolib, oz sitoplazmalarida gemoglobinning qay darajada toplanganligi va yadro tuzilishining ozgarishiga qarab, birin-ke-tin keladigan uch bosqichga - bazofil, polixromatofil va oksifil normotsitlarga bolinadi Bazofil normotsit hali bolinish qobiliyati saqlangan, ammo kichraygan va dag`al tuzilishga ega yadroli hujayra. Sitoplazmada gemoglobin hosil bolishi yadro atrofidan boshlanib, asta-sekin butun sitoplazmaga tarqaladi. Polixromatofil normotsit bosqichiga kelib sitoplazma ozida gemoglobin toplanganligi tufayli polixromaziya xususiyatiga ega boladi. Romanovskiy usuli bilan boyalganda polixromatofil normotsitlar sitoplazmasi havorang-pushti tusni oladi. Yadro radial tuzilishga ega bolib, unda toq va zich tuzilishga ega xromatin tuzilmalari ochroq paraxromatinli joylar bilan bir-birlaridan ajralib turadi. G‘ildaraksimon yadro deb nomlanuvchi bu xildagi yadroning bolishi normotsit hujayralari uchun tipik hol hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Alberts, B., Jonson, A. va Lyuis, J. (2002). Hujayraning molekulyar biologiyasi. To'rtinchi nashr. Garland fani.

2.Kanningem, F. G. (2011). Uilyams: Akusherlik. McGraw Hill Meksika.

3.Georgadaki, K., Khoury, N., Spandidos, D. A., & Zoumpourlis, V. (2016). 6.Urug'lantirishning molekulyar asoslari (Sharh). Xalqaro molekulyar tibbiyot jurnali.

4.Gilbert S.F. (2000) Rivojlanish biologiyasi. 6-nashr. Sanderlend (MA): Sinauer

MTT TARBIYALANUVCHILARINI MASHG‘ULOTLAR JARAYONIDA EKOLOGIK TARBIYALASH METODIKASI

Usmonova N.
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar Maktabgacha ta’lim bo‘limi tasarrufidagi
2- Ko‘p Tarmoqli Ixtisoslashtirilgan Davlat Maktabgacha Ta’lim Tashkiloti logopedi
Ro‘ziyeva Z.
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar Maktabgacha ta’lim bo‘limi tasarrufidagi
2- Ko‘p Tarmoqli Ixtisoslashtirilgan Davlat Maktabgacha Ta’lim Tashkiloti
tarbiyachisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295964

Annotatsiya: Maqolada MTT tarbiyalanuvchilarini mashg‘ulotlar jarayonida ekologik tarbiyalash metodikasi yoritilgan va shu bilan birga mashg‘ulot ishlanmasidan namuna berilgan.

Kalit so‘zlar: Ekologik ta’lim-tarbiya, ekologik ong, ekologik odob, maktabgacha yoshdagi bolalar, mashg‘ulotlar, sirli o‘rmon, daraxtlar.

Hozirgi kunda ekologik ta’lim-tarbiya jarayonida yosh avlodni ayniqsa, maktabgacha ta’lim-tarbiyada ekologik ongni shakllantirish bo‘yicha ma’lumot berish, yosh bolalarda ona tabiatga nisbatan mas’uliyatlilik, javobgarlik hissini tarkib toptirish lozim. Tabiat va jamiyat rivojida ekologik tarbiya, ekologik ong, ekologik odob katta o‘rin tutadi.

O‘z navbatida, inson tabiatni muhofaza qilishning zarurligini anglaydi, lekin kundalik faoliyatda bunga amal qilmasligining, loqaydligining sababi ekologik bilimlarning e’tiqotiga, axloqiy qoidaga aylanmaganligiga borib taqaladi. Shuning uchun faqatgina pand-nasihat bilan yosh avlodni tabiat muhofazasi kurashchilari, hozirgi zamon ekologik ziddiyat talablariga javob beradigan shaxs qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Demak, muayyan ilm ob’yektiv birlikni o‘rganishni, uning asosiy maqsadi va vazifalari nimadan iboratligini hamda shu sohadagi qonuniyatlar jamiyat manfaatlariga qanday xizmat qilishini yaxshi bilgan bo‘lishi kerak. Bugunga kelib, atrof-muhitga zamonaviy fan-texnika revolyusiyasining ta’siri oqibatida ekologiya tushunchasining mazmuni juda o‘zgarib ketdi.

Ekologiya nafaqat jonli tabiat resurslarini, balki har qanday narsalarni: butun Yer sayyorasi, uning ayrim bo‘laklari, shu jumladan insonni ham, ularni o‘rab turgan tashqi muhitni, shu narsalarning tarixiy rivojiga ko‘rsatgan ijobiy va salbiy ta’sirini o‘rganmoqda. Ekologiya amaliyotining asosiy vazifasi yer yuzidagi geografik

unsurlarning evolyusion rivojini o‘z qonuniyatlaridan kelib chiqib, ekologiya fani belgilab bergan yo‘nalish va tizimda saqlab turishidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’limida ekologik ta’lim tarbiyaning uzviyligini shakllantirishga oid qator ishlar amalga oshirilgan bo‘lsada, ammo bu jarayonlar bugungi kun talablari asosida takomillashtirilmog‘i lozim.

Bolalardagi ekologik ta’lim-tarbiya, uning iymon va ekologik ma’naviyatini oshirishda, ularga singdirishda, shakllantirishda ruhiy salomatligini, uning kayfiyatini va uning inson siftida kelajakda kamol topishini muhofaza qilishlikdir. Har bir inson o‘zining va atrofdagilarning jismoniy, ruhiy salomatligini asrash va avaylashi kerak. Ahvoli sog‘lig‘ini yaxshilash tabiat va ijtimoiy ruhiy muhitlar holatiga bog‘liqdir. Bu yerda ijtimoiy muhit yetakchi rol o‘ynaydi. Chunki toza ijtiomiy muhitda, yosh bolalarda bog‘cha, ayniqsa maktab bolalarida ma’naviyat yaxshi singadi va shakllanadi. Yaxshi ma’naviyatga ega bo‘lgan bolalar katta bo‘lganlarida ijtimoiy, ruhiy va tabiiy muhit musaffoligini ta’minlay oladi.

Mashg‘ulot

Bugun bizning 2-Ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan Davlat Maktabgacha ta’lim tashkilotida bog‘cha va oila hamkorlikda bolajonlarimiz bilan birga sehrli tabiat qo‘ynida sayohatga chiqamiz. O‘yin faoliyatidagi Ertak -terapiyamizni sizlarga taqdim etamiz.

Mavzu: “Yashil o‘rmon sirlari”

Maqsad: Bolalarga ertaklar asosida ekalogik ta’lim tarbiya berish, ularga tabiatni asrashni o‘rgatish, ijodiy tafakkurini o‘stirish, nutqiy korreksion ta’lim samaradorligini oshirish, mayda qo‘l matorikasini va bilish intellektini rivojlantirish.

Kerakli jihoz: O‘rmon dekaratsiyasi; faoliyat markazida bolalar bilan ishlash uchun kerakli jihozlar:

- rangli qog‘ozlar, yelim, qaychi, skoch.
- to‘proq, yelim idishlar, rangli tasmachalar.

Log: Bolajonlar, bugun sizlar bilan sehrli tabiat qo‘yniga sayohatga chiqamiz. Sayohatimiz sehrli mujizakor tabiat qo‘ynida bo‘ladi. Sayrga nima bilan borishni hohlaysiz?

1. Samalyot bilanmi? -il-il.

2. Poezd bilanmi? -t-t-t.

3. Ot bilanmi? – ha.

(tanglak qoqib bajariladi)

Shunda chol va kampir : Eh bizlar kechga qolmadekmi! Ey chol biz ham nevaralarimiz bahonasida o‘rmonga aylanib kelamiz**.**

Boshlovchi: Albatta sizlar ham birga sayrga chiqishingiz mumkin. (zal bo‘ylab, musiqa jo‘rligida o‘rmonga boradilar)

Log: Sayohatga chiqqanda

Tartib bilan yur o‘rtoq,
Kattalarni ko‘rganda
Doim salom ber o‘rtoq.
Yo‘ldan o‘tmoqchi bo‘lsang
Avval o‘ng tomonga boq.
Yo‘l o‘rtasida turib
So‘ngra chap tomonga boq
Mashinalar tez yursa
Shoshma nafas rostlab boq.
1) Dala yuliga chiqib oldek
Tor yo‘lakdan o‘tdek.
Tepalikka chiqamiz.
2) Tojdor turna
Tumshug‘ini burdi
Ko‘kragini kerib yurdi.
3) Sirpanchiq maysazorda
Sirpanib yurib qoldek
Sirpanchiq yulda sirpanib
Pingvingcha bo‘lib oldek
Ko‘lmakchadan sakrab o‘rdek.
4) Avval kichkina bo‘lib biz
Tizzamizni quchamiz.
Kiyin katta bo‘lib biz
Daraxtdek bo‘y cho‘zamiz.
O‘rmonda o‘sar daraxt
Shohlari ko‘p qat-qavat.
Shamolda tebranadi
Shivirlab qo‘shiq aytadi.
Barglar qarsak chalishdi
Sekin qo‘shiq boshlashdi.
Sha-sho-shu-shi
Ash-osh-ush-ish
Sha-sha-sha-sham, shamol
Shu-shu-shu-shula-ashula
Shi-shi-shina-mashina.
O‘rmonga kelganda shu vaqt chol sehrli qalpoqcha topib oladi.
Chol: Voy men yo‘lakdan qalpoqcha topib oldim.
Kam: Ey chol, hech tinch yurmadingizda. Eski qalpoq sizga nimaga kerak?

Chol: Kampir eski bo‘lsa ham butungina ekan, kiysa bo‘ladi, qara yarashdimi? (shu vaqtda daraxtlar shivirlaydi, qushlar uchadi)

Chol: Ey bu sehrli qalpoq ekan, daraxtlar, qushlar tilga kirdi, eshit kampir.

1.Daraxt: Bolajonlar kelishdi, ular bizning bag‘rimizga o‘ynagani kelishdi, men juda xursandman.

2.Daraxt: Ey ko‘p ham xursand bo‘lma, ba’zi sayohatchilar bizning jonimizga qanchalik ozor berishlari esingdan chiqdimi?

3.Daraxt: Ha-ya, ayrim shux bolalar qushlarga tosh otib, shoxchalarimizni sindirib, rosa ozor beradi. Men juda xafaman.

1. Daraxt: Atrofga qara qancha axlat, bularni bari sayohatchilar kelib ketgach paydo bo‘ladi. (qari o‘rmon bir xursindi-yu, chuqur tin oldi)

2. Daraxt: Mana shu tunka ham bir vaqtlar chiroyli, yosh, ko‘rkam daraxt edi, bemehir kimsalar joniga ozor berishib, shunday tunkaga aylantirib qo‘yishdi.

To‘nka: (yig‘lamsirab) Eh so‘ramang, qanday sarvqomat daraxt edim, o‘tgan-ketganlar soyamga dam olishar edi, atrofimda qushlar uchar edi, o‘t-o‘lanlar o‘sardi. Endi-chi?

Bosh: Bolajonlar bizning bugungi o‘rmon qo‘ynida sayohatimiz, unga xursandchiliklar, shirin-shirin estaliklar bilan yodiga qolsin. Biz o‘zimizning dardimiz bilan uning dardiga malham bo‘laylikda, ishimizni mehnatdan boshlaylik.

Bola: Opa buni nima qilamiz? Bular keraksiz narsalar-ku.

Birinchidan: atrof mihitni tozalaymiz.

Ikkinchidan: Bularni zavod va fabrikalarda qayta ishlab, biz uchun kerakli narsalar tayyorlashadi.

Bola: Bu qanday bo‘ladi?

Bosh : Hozir men sizlarga chiqindilarni qayta ishlaydigan zavod va fabrikalarni ko‘rsataman. Marhamat tomosha qiling. Bu yerda qog‘ozlar, salfetkalar qayta ishlab, do‘konlarga sotuvga chiqariladi. Biz ulardan yana keragicha foydalanamiz. Bolajonlar ko‘rdingizmi, siz hozir qanchalik foydali ish qildingiz. (qayta ishlayotgan zavodlar ko‘rsatiladi, qog‘oz, yilim idishlar qayta ishlab, yangi shaklda chiqariladi)

Bosh : Bolajonlar, endi bizdan shu tunka ham hafa bo‘lmasin. Uni ham chiroyli qilib bezab, dam olish uchun kursi qilib qo‘yaylik.

1. Daraxt: Biz daraxtlar tabiatning tuxfasidirmiz. Yashil barglarimiz havoni kislarod bilan tuyintirsa, tanamizdan insonlar uchun kerakli jihozlar, tarixni yozish uchun mo‘ljallangan qog‘ozlar ishlab chiqariladi (barglarini shig‘illatib xursand bo‘ladi)

1. Markaz: Qurish- yasash.

Daraxt tagiga borib qushlar uchun baklashkadan donxo‘rak, suv ichish uchun idish tayyorlab, daraxtga ilib qo‘yadi.

2. Markaz: San’at.

Tunkani bezash uchun koʻzcha, qoshcha, buruncha, ustiga koʻrpacha va har xil barglar qirqib tayyorlab yopishtiriladi.

3. Markaz: Fan va tabiat.

Tuproqqa har xil qushlar, hayvonlar izlari. (nam sochiq, zararsizlanrituvchi gel)

Bosh: Bolajonlar, barakallo! Sizlardan oʻrmon juda xursand boʻldi. Daraxtga qushlar oziqlanishi uchun idishchalar ildingiz, hayvonlar va qushlar izlarini chizib topdingiz. Bizdan ular juda xursand boʻlishdi. Tunkavoy kerakli jihozga aylandi. Sayohatga kelganlar bu kursiga oʻtirib dam oladilar.

Bolajonlar, sizlar bogʻchadan juda koʻp bilimlar olibsizlar, barakallo! (mashgʻulotga yaxshi qatnashgan bolalarga ragʻbat beriladi)

Log: Tovush talaffuzi boʻyicha artikulyatsion gimnastika mashqlar, miyyoriy talaffuz etishga oʻrgatish. Bizning quvnoq kayfiyatimizdan keksa oʻrmon uygʻonib shovullab qoldi, oʻrmonda baland-baland daraxtlar shamolda tebranib, oʻz qoʻshiqlarini aytishyapdi:

Avval kichkina boʻlib biz,
Tizzamizni quchamiz.
Kiyin katta boʻlib biz,
Daraxtdek boʻy choʻzamiz.
Oʻrmonda oʻsar daraxt,
Shoxlari koʻp qavat-qavat.
Shamolda tebranadi,
Shivirlab qoʻshiq aytadi- sh-sh-sh (harakat bilan)

Daraxt: Voy-voy bugun men juda xursandman. Sizlar yaxshi sayohatchi ekansiz, bizlarni juda xursand qildingiz, sizlarga rahmat!

Psixolog: Xidirova S. Oʻyin: “Sirli oʻrmon”, “ Kecha va kunduz”

Bosh: Bolajonlar, bugungi sayrimiz sizga yoqdimi, mazza qildingizmi? Mana endi sayrimiz yakuniga yetdi. Oʻrmon chetida otlarimiz kutib turibdi. Endi sehrli oʻrmon bilan xayrlashamiz.

MAKTABGACHA TA’LIM DARSLARIDA BOLALAR ZAKOVATLARINI O‘STIRISHDA ILLUSTRATSIYALAR VA HARAKATLI O‘YINLARNI O‘RNI VA AHAMIYATI

Feruza Alijonovna Xusanova
Marg‘ilon Pedagogika kolleji
maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295968

Annatatsiya: Maktabgacha ta’lim darslarida bolalar zakovatlarini o‘stirishda illustratsiyalar va harakatli o‘yinlarni o‘rni haqida, o‘sib kelayotgan yosh avlodga biz nimalar bera olishimiz haqida so‘z borgan

Kalit so‘zlar: Tarbiyachi, maktab, bog‘chada, samaradorlik, sifat, ko‘nikma, yosh avlod, serg‘ayrat.

Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda barchamizga ma’lumki, o‘sib kelayotgan yosh avlod siz va bizga qaraganda ancha aqli va ularni diqqat e’tiborini osongina jalb qilish ko‘pgina tarbiyachilarga muomo tug‘diradi. Shuning uchun bo‘lsa kerak hozirgi davr maktabgacha tarbiyachilar va bolalar oldiga katta talablar qo'ymoqda, bu talablarning eng asosiysi - darsning samaradorligi, uning sifatliligi, tarbiyalanuvchilarning bilim va ko'nikmalariga, bog‘chadagi turli xil o'quv mashg'ulotlari, ularni tashkil qilinishi va u orqali yosh avlodlarni turli bilim va ko'nikmalarni egallab olishidir. Bugungi kunda ta'lim jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar va illustratsiyalarni o'rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid turli rasmlar, grafikalar, ko‘rgazmali qurollardan foydalanish dars jarayonini yana-da qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi, buning uchun esa tarbiyachi o'z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman» deya o'ziga savol berishi ya'ni, an'anaviy ta'limdan qochib, noan'anaviy ta'lim berishga intilishi lozim. Ma'lumki, ta'lim bu o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligidagi faoliyat turi bo'lib, dars orqali o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida yoshlarga yetkazadi, bolalar esa uni o'zlashtirib olishi natijasida undan foydalanish kompetensiyalariga ega bo'ladi. Yangi bilimlarni o'rganish jarayonida esa maktabgacha ta’lim o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishlari tabiiy hol masalan, ma'lumotlarni qabul qilish, ularni qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etish kabi jarayonlarda amalga oshadi. Turli xildagi rasmlar va illustratsiyalar bolalar diqqat etiborini tortishda yaxshi samara beradi bundan tashqari ko‘rgan shakllarni o‘zlari chizib ko‘rishi ham bolalarda yangi qiralarni ochilishiga sabab bo‘ladi.

Ilk yoshdagi bolalar guruhlarida bolalarga bir yarim yoshdan boshlab qalam berish mumkin. Lekin bolalar qilayotgan harakatining tasviriy ma'nosiga 1 kichik guruhdan boshlab tushuncha boshlanadi. 1 kichik guruh (2 yoshdan 3 yoshgacha).

Bu davrga kelib, nutqi o'sadi, tasavvur doirasi kengayadi, materiallar bilan mustaqil harakat qilishi faollashadi. Bu guruhda tarbiyachi bolalarni qilayotgan harakatlarini kuzatishga o'rgatadi. Chizayotgan turli chiziqlar bilan predmetlarning turlarini bilishga, ularni ayrim narsalarga o'xshatishga o'rgatadi. Bolalarga savollar bilan murojaat qiladi, sen nimani chizding, deb bolaning chizgan ishini qaysi predmetga o'xshashligini aniqlaydigan ko'plab savollar beradi. Bolaning harakati ixtiyorsiz bo'ladi. Hamma bolalar bir vaqtda o'z harakati natijasida hosil bo'lgan ishida predmet o'rtasidagi o'xshashlikni aniqlay olmaydi, bu xususiyatning o'sishi o'z-o'zidan nutqining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Ular tarbiyachi ko'rsatgan ishlarida oddiy predmet va hodisalarni tasvir etadi. Masalan, yomg'ir yog'yapti, qor yog'yapti, barglar uchyapti, daryoda suv oqmoqda kabi. 3-yilda asta-sekin bolalarda ranglarga qiziqish ortadi. Ular turli ranglardan foydalanib, uni predmetga o'xshatadi.

Bundan tashqari maktabgacha yoshlarda ularda topqirli, hozir javoblik hususiyatlarini oshirishda harakatli o‘yinlarni beqiyosdir. Nafas mashqlari, yurish turlari va sakrashlar, oyoq va qorin mushaklarini, gavda va umurtqani, oyoq va tovon bo‘g‘inlari mushaklarini tarbiyalashga qaratilgan mashqlar, chaqqonlik va jasurlik hamda muvozanat sifatlarini rivojlantiruvchi mashqlar, quvnoq bolalarning harakatli o‘yinlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy harakat turlarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. O‘rgatishning ushbu bosqichida harakat malakalari va ko‘nikmalari ko‘lamining kengayishi, jismoniy fazilatlar (tezlik, chidamlilik, tezkorlik va boshqalar)ning rivojlanishi bilan bog‘liq holda ham mashqlarni yaxlit, ham harakat texnikasi elementlarini alohida-alohida muvaffaqiyatliroq o‘zlashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Besh-olti yoshli bolalarda o‘z oldilariga qo‘yilgan vazifalarni ongli tushunib yetish, vaziyatni baholash, o‘z harakatlarini boshqara bilishga muayyan tayyorgarlik bo‘ladi, shuning uchun, og‘zaki ko‘rsatma berish va tushuntirish yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat faoliyatida mustahkam bilim va ko‘nikma shakllantirish mumkin bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim muassaslari uchun yaratilgan ta’lim-tarbiya dasturi, Maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan Davlat talbalariga muvofiq barcha guruhda bolalar yurish, yugurish, muvozanat saqlash, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqishga o‘rganib, uni takomillashtirib boradilar, bu borada ularga harakatli o‘yinlar ro‘li katta bo‘ladi. Misol uchun quvlashmachoq, uzoqqa sakrash, arqon sakrash, yurish va yugurish mashqlarining vazifasi qo‘l va oyoqlar harakatlanayotganda muvozanat yaxshi saqlagan holda yengil, erkin harakatlar qilishni o‘rgatishdir. Ushbu mashqlar bolalarni jismoniy holatlarini yaxshilab, ularda qon aylanish holatlarini yaxshilaydi. Maktabgacha ta'limda darslarni illustratsiyalar

va harakatli o‘yinlar orqali tashkilanishi o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, har tomonlama barkamol va sog‘lom yuksak ma'naviyatli avlodlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir tarbiyachi ijodkor bo'lishi kerak, u har bir o'quv soatiga puxta tayyorlanib yangilik bilan kirishi kerak, chunki har darsda takrorlanadigan bir xillik o'quvchini darsga qiziqishini susaytiradi, natijada dars samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi № PQ-3931-sonli Qarori.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.

MATEMATIKANI O‘QITISHNING BA’ZI BIR ASPEKTLARI

Sevara Shavkat qizi Quronboyeva
Xorazm viloyati Shovot tumanidagi 40-maktabning
matematika fani o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295970

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika kursini o'qitishdagi muammolar ko'rib chiqilgan. Dasturda matematika uchun ajratilgan vaqt hajmining qisqarishi bilan bog'liq bo'lgan aspektlar ajratilgan. Oliy ta'lim muassasalari talablari va maktabda matematik tayyorgarlik darajasi o'rtasidagi uzilish keltirilgan. OTMda matematikani o'qitish metodikasining ba'zi bir muammolarini yechish mumkin bo'lgan yo'llar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, matematika, o'quv jarayoni, aqliy faoliyat.

Matematika insoniyat tarixida turli hayotiy masalalarni yechishda azaldan qo'llanib kelingan. Insonning amaliy ehtiyojlari bilan bog'liq sodda hisoblashlar va o'lchashlar bajarilgan. Ob'ektlarni tanlash va ularni ma'lum tartibda joylashtirish kabi matematik masalalar har doim insonni qiziqtiriradigan sohalardan hisoblangan. Matematikaning berilgan ob'ektlardan ma'lum shartlarni qanoatlantiruvchi kombinatsiyalar tuzishni o'rgatuvchi bo'limiga kombinatorika deb ataladi. Kombinatorika yordamida o'rganilayotgan hodisalarning matematik modeli tuziladi. Ma'lumki, hodisa ehtimolini topish matematik formulalar bilan ifodalanadi. Bu esa biror o'rganilayotgan jarayonning (hodisaning) matematik modelidir. Hodisa ehtimolini o'rganishda, avvalo, kombinatorika tushunchasini kiritish zaruriyati tug'iladi. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika fanini o'rganishda kombinatorika masalalari o'quvchilarni bu fanlarga qiziqtiradigan asosiy motivlardan hisoblanadi.

Masalalarni yechish matematikani o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalarni yechmasdan matematika fanini o'zlashtirishni mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Matematika darslarida masalalar yechish nazariyani amaliyotga tadbiq etishning eng yaxshi va ravon yo'lidir. Faqatgina quruq matematik nazariya, uning tadbiqlarisiz uzoqqa bora olmaydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash kerakki matematika fanining har bir mantiqiy qoidasining albatta amaliyotdagi o'rni mavjud. Bu mavjudlikni tadbiqlari faqatgina matematik masalalar yordamida yuzaga chiqadi. Sodda va murakkab masalalar, bilimlarni o'zlashtirishga, olingan bilimlarni mustahkamlash va mukamallashtirishga xizmat qiladi. Matematik masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositasi bo'lib, odatda o'z ichiga "yashirin informatsiya" ni oladi. Bu muamoni hal etish masala yechuvchidan

taklif, tahlil va sintez, mustaqil murojaat qilish, faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va boshqalarni talab etadi. Masalalarni yechishda matematika faniga bo'lgan qiziqish oshadi. Mustaqilik, erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilish kabi xislatlar rivojlanadi.

Bugungi kunda iqtisodiyot, sanoat va texnik bilimning rivojlanish jarayonlari eng zamonaviy vositalar, yuqori samaradorlikdagi texnologiyalarni ishlab chiquvchilar va shuning bilan birga matematik metodlarni egallagan yangi avlod mutaxassislariga talablarning ortishi bilan xarakterlanadi. Material ishlab chiqarish va jamiyatni oliy ta'limda mutaxassisligi bo'yicha xalqaro standartlar darajasida ishlash qobiliyatiga ega, doimiy kasbiy o'sishga tayyor bo'lgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash uchun sotsial buyurtma shakllantiradi. Kasbiy ta'limning asosiy maqsadi - mehnat bozorida raqobatbardosh, kompetentli, mas'uliyatli, o'z mutaxassisligini erkin egallagan, mutaxassisligi bo'yicha jahon standartlari darajasida samarali ishlash qobiliyatiga ega, sotsial va soha mobilligida doimiy professional o'sishga tayyor bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash. Matematika kursi oliy ta'limda o'rganiladigan majburiy fan hisoblanadi va boshqa umumta'lim, umuminjenerlik va maxsus fanlarni o'zlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Matematika aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishda, tafakkurni tarbiyalashda, talabaning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Matematika kursini o'qitishning samarali metodlarini qidirish - bu OTM o'qituvchilari ishining muhim yo'nalishlaridan biridir. Bugungi kunda Oliy matematika o'quv fani sifatida texnik, iqtisodiy, gumanitar mutaxassisliklar o'quv rejalarida muhim o'rin egallagan. Ammo, matematika qonunlari va postulatlari ko'plab yillar davomida o'zgarmay kelsada, afsuski uni o'qitishdagi muammolar yo'qolmaydi. Oliy maktab pedagoglariga, matematika o'qitish metodikasi va ta'lim jarayoni barcha ishtirokchilari uchun, matematik bilim va holatning zamonaviy bosqichi xususiyatlari yaxshi ma'lum:

- matematika uchun ajratilgan soatlar hajmining kamligi;
- maktab bitiruvchilarining matematik bilim darajasi bilan oliy ta'lim talablari yuqori darajada farqlanishi;
- OTM bitiruvchilari matematik bilimi va zamonaviy ilm va texnologiyalarning obyektiv talablari orasidagi uzuilishning chuqurlashishi.

O'quv jarayoniga ma'ruza matnlari, amaliy mashg'ulotlarni olgan matematika bo'yicha o'quv komplekslar kiritilgan. Bunda mustaqil ishlash uchun katta hajmdagi masalalar kiritilgan, o'z-o'zini rivojlantirish va nazorat qilish uchun turli materiallar, ijodiy topshiriqlar berilgan. Bu o'quv komplekslariga mustaqil o'qish uchun maxsus ishchi daftarlar (elektron ko'rinishda uzatish mumkin bo'lgan fayl) kirishi mumkin. Bundan tashqari, bunday qo'llanmalarni ishlab chiqishda ishtirok etishi mumkin bo'lgan talabalar bo'lishi mumkin. Bunday metodik komplekslar evaziga ma'ruza talaba bilan o'qituvchi o'rtasidagi faol dialogga aylanishi mumkin. Bu esa o'z

navbatida mustaqil ishni zarur yo'nalishga burish imkonini beradi. O'quv jarayonida talabalarning o'qishga intilishlarini qo'llab-quvvatlash va saqlash muhim. O'qitishning samaradorligini oshirish uchun talabalarning mustaqil ishini tashkil qilishdan tashqari, quyidagi metoddan ham foydalanish mumkin. O'quv yili boshida talabalarga maktab matematikasining turli bo'limlarini olgan matematik test taklif qilish. Test natijalari bo'yicha talabalarning tayyorgarlik darajasi aniqlanadi, bo'shliqlar va har bir talaba va guruh bilan individual ishlash yo'nalishi ishlab chiqiladi. Kirish ma'ruzasida kurs tarkibi bilan tanishadilar, barcha materiallar bloklarga ajratiladi. Har bir blokni o'rganish ma'lum bir guruh talabalar bilan amalga oshiriladi. Keyinchalik bu talabalar uni faol o'qitish metodlaridan foydalanib, materialni o'zlashtirish darajasini nazorat qilgan holda qolgan talabalarga tushuntiradilar.

Foydalangan adabiyotlar:

1. A.A.Ismailov, N, Karimov, B.Q.Xaydarov, Sh. Ismailov, Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash, uslubiy qo'llanma, Toshkent, "Sharq" nashriyoti, 2019-yil, 120 bet.

2. Актуальные проблемы преподавания математики в техническом ВУЗе: материалы второй межвузовской научно-методической конференции. - Омск: Полиграфический центр КАН, 2012. - 188 с.

3. Методика и технология обучения математике. Курс лекций: пособие для вузов / Под науч. ред. Н.Л.Стефановой, Н.С.Подходовой, - М.: Дрофа, 2005. - 280 с.

YOSHLARDA MULOQOT MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI

Nilufar Omonova
Termiz davlat Universitetining tayanch doktorant
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295972

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim olyotgan yoshlarda muloqot motivatsiyasi, uning mazmun mohiyati bugungi kundagi afzalligi o‘rganiladi. Hamkorlik munosabatini o‘rnatishda o‘qituvchining va o‘quvchining faoliyati zaruriyat ekanligi aytib o‘tiladi. Bugungi kunda hamkorlik asosida muloqot motivatsiyasini rivojlantirishda uzluksiz ta’limning har bir bo‘g‘inini be’tibor qoldirmaslik, muloqot turlari va muloqot muhitini to‘g‘ri tashkil etishni mukammal bilishimiz zarurdir. Buning uchun esa pedagog o‘quvchi bilan muloqot muhitini yarata olishi, so‘zlashishi, muloqotni samarali usullaridan foydalana olishni doimo o‘rganib borishi ahamiyatlidir. Chunki bu pedagogga darsni samarali tashkillashtirish imkonini beradi. Shunga ko‘ra maqolada pedagogik muloqotning turlari, usullaridan unumli foydalanish asosida ta’lim-tarbiya jarayoniga muloqot motivatsiyasini rivojlantirish omillarining olib kirishning ahamiyatlilik darajasi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, motivatsiya, o`quvchi, o‘qituvchi, odob, axloq, muloqot, bilim, tarbiya, ta’lim, shakllantirish, rivojlantirish.

Mustaqil ona yurtimizda bugungi kunda ijtimoiy hayotning barcha sohalarini demokratlashtirish jarayonini yanada rivojlantirish, iqtisodiy o‘sish sur’atlarini taraqqqiy ettirish va uning samaradorligini oshirish, xalqimiz ma’naviy-ma’rifiy salohiyatini yuksaltirish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Ma’naviyat va ma’rifat bugun o‘zining taraqqiyot yo‘lidan buyuk kelajak sari odimlab boryotgan xalqimizga o‘z ezgu maqsadlariga erishishi uchun ulkan quvvat manbai bo‘lib xizmat qilayotgani shubhasizdir. Mustaqilligimizning dastlabki kunlardanoq ma’naviyat, ma’rifat, fan, ta’lim bilan bo‘gliq ishlar yurtimizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Buning natijasi o‘laroq O‘zbekiston butun dunyoga o‘zining demokratik qadriyatlarga sodiq, tinchliksevar va bunyodkor mamlakat ekanligini allaqachon ko‘rsata oldi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko`lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz.

Biz o`z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug` maqsadni qo`ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug`beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan

muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog`lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish g`oyamizning asosiy ustunlari bo`lib xizmat qilishi lozim"[21] kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu esa hamkorlikda o`qitish ta'lim vositasida talabalarda muloqot motivatsiyasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirish, bo`lajak o`qituvchining muloqot motivatsiyasi modelini talab etadi.

USULLLAR

Bugun ta'lim dargohlarida amalga oshirilayotgan hamkorlik asosida muloqot motivatsiyasining rivojlanishi talaba-yoshlarda ong, g'urur, ma'naviyatning shakllanishida birlamchi rol o'ynaydi. Shu bois hamkorlikda muloqot tarbiyasi pedagogikaning turkumi fanlarining muhim yo'nalishi sifatida o'rganiladi. Mustaqillik yillaridan buyon motivatsiya, muloqot kabi tushunchalarning ma'no-mohiyatini yoshlar ongiga singdirish uchun ko'plab ma'naviy, axloqiy tadbirlar o'tkazilib ular orqali tarbiya muloqot motivatsiyasining muhim tamoyili ekanligiga e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Insonning ma'naviy qiyofasi uning muloqot motivatsiyasida ifodalanadi. U o`zining his-tuyg`usini, ichki tug`yonini, orzu umidlarini muloqot jarayonida bayon etadi. Shuning uchun ham jamiyat taraqqiyoti, insonlarning yaxlit holda shakllanishi, ularning bir-birlari bilan o`zaro muloqotsiz, hamkorliksiz, o`zaro ta'sirsiz vujudga kelmaydi.

MULOQOT — uchrashish, ko`rishish; qabul qilish, *eski turkiy tildagi ko`rinishi:* **uchrashuv; musohaba.**[22]

Muloqot motivatsiyasi – Kommunikativ motivatsiya.

Kommunikativ motivatsiya – yuksak darajadagi muloqot ko`nikmalariga egalik.[23]

Muloqot — kishining ichki va tashqi olamini namoyon etuvchi o`zaro munosabatlarning muhim shakli. Muloqot jarayonida kishi o`zining tashqi olam, jamiyatning turmush tarzi, uning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayoti haqidagi qarashlari, tasavvuri va hissiyotini ifodalaydi.

Jamiyat a'zolarining o`zaro ijtimoiy munosabatlari, turmush sharoitlari o`zgarishi bilan ularning moddiy olam haqidagi tasavvuri, tushunchalari, dunyoqarashlari, odob va axloq me'yorlari ham o`zgaradi. Bunday o`zgarish kishilarning umumiy manfaatlari, xayrixohligi asosida ro`y beradi.

Kishilik jamiyati paydo bo`lishi bilan odamlar o`rtasida muloqotga ham ehtiyoj

[21] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Lex.uz

[22] «O'zbekiston entiklopediyasi» 4 jild T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 102 b.

[23] Pedagogik atamalar lug'ati T.: Fan nashriyoti 2008. – 124 b

sezildi. Jamiyat a'zolarining bir-birlari bilan o`zaro muloqotlari shu jamiyatning har tomonlama taraqqiyotiga zamin bo`ldi. Har bir tarixiy davrning o`ziga xos muomala odobi, qonun-qoida me'yorlari mavjud bo`lganidek, erkaklar va ayollar, ota-onalar hamda farzandlar, yigit-qizlar o`rtasidagi muloqotga ham ehtiyoj paydo bo`ldi.

Bizning jamiyatimiz a'zolari o`rtasida qanday muloqot turlari mavjud?

Ular jamiyatimizning kichik bo`g`ini hisoblangan oiladagi ota-ona, katta kishilarning o`zaro muloqotlari, ota-ona va farzandlarning, qiz bolalar va o`g`il bolalarning, oila a'zolarining, qo`ni-qo`shni, qarindosh-urug`lar, do`sti-o`rtoqlar bilan muloqoti, o`qish jarayonida jamoat joylarida, turli to`y tantanalarida, madaniy xordiq chiqarish maskanlarida, transportda kishilarning o`zaro muloqotidan iborat. Bizning sharqona odobimizda ulug` allomalarimiz, fozil-u fozilalarimiz muloqot motivatsiyasi, qonun-qoidalari va o`gitlarni yaxshi bilganlar, xalqni xushmuomalalikka, o`zaro mehr-muruvvatga, axloq-odobga chaqirganlar.

Bizning mutlaq motivatsiyasimizda xalqimizning asrlar davomida saqlanib kelgan urf-odatlari, an'analari, axloq me'yorlari mujassam bo`lib, maqollar, hadislar, hikmatli so`zlar, pand-nasihatlar, axloq-odob durdonalari shakllaridan xalqni ma'naviy yetuklikka boshlab keladi.

Axloq-odob haqidagi hadislardan birida "Hamma ishlaringizda to`g`ri bo`ling, odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo`lsin",[24] - deyilib, barcha toifadagi odamlar xushxulq, samimiy, to`g`ri bo`lishga da'vat etiladi.

Muloqot-pedagog faoliyatini eng muhim professional qurolidir. Pedagogik muloqot-qulay psixologik muhit yaratish maqsadida o`qituvchining o`quvchi bilan dars va undan tashqaridagi haqiqiy muloqotidir. Noto`g`ri pedagogik muloqot o`quvchida qo`rquv, ishonchsizlik tug`diradi, diqqati, xotirasi va ish qobiliyatini susaytiradi, nutq me'yorini buzadi. Natijada, o`quvchilarda steriotip fikrlar vujudga keladi. Ularni o`qishga va mustaqil o`rganishga, fikrlashga bo`lgan qiziqishlar susayadi. Oqibat natijada, o`quvchilarda o`qituvchiga, uning faniga nisbatan muayyan salbiy munosabatlar uzoq vaqt shakllanib qoladi.

Hamkorlikda fikrlash uchun sharoitlar yaratish zarur. Rollar almashinishi yordamida muloqot o`rnatish ularda u yoki bu ijtimoiy shakllanib qolgan hatti-harakatni dasturlaydi (o`qituvchi -o`quvchi).

Ijtimoiy rollar almashinuvi shaxsni har tomonlama namoyon bo`lishini ta'minlaydi, niqobni olib tashlab boshqa kishi roliga kirish va shu bilan insonni inson orqali idrok qilish jarayoniga ta'sir ko`rsatadi. O`qituvchilar o`quv-tarbiyaviy jarayonda shaxs-rol shaklidan foydalanadilar, darsning ayrim elementlarini bajarishga o`quvchilarni taklif qiladilar, har bir o`quvchini o`qituvchi rolini bajarishga imkon beradilar. O`z shaxsi qimmatini namoyon qilish ham muloqot funksiyasi sifatida namoyon bo`ladi. Bunda o`quvchilar tomonidan o`z shaxsi (men)ni, qadr-qimmatini,

[24] Imom G`azzoliy "Ihyou ulumid-din" (Din ilmlarini jonlantirish) T.:«Movarounnahr» nashriyoti, 2007. 144 b

shaxsini munosib baholash va kelajagini tasavvur eta olish uchun intilishlarini ta’minlash o`qituvchining asosiy vazifasidir.

Muloqotning eng muhim funksiyalaridan biri-hamdard bo`lishdir. U boshqa kishi hissiyotlarini tushunish, boshqalar nuqtayi nazarini ma’qullash qobiliyatini shakllantirish jarayonida amalga oshadi va jamoadagi munosabatlarni me’yorga keltiradi. Bunda o`quvchini, uning istaklarini tushunish va bular asosida o`quvchiga ta’sir etish zarurligi anglash o`qituvchi uchun juda muhimdir.

Muloqot funksiyalarini bilish o`qituvchilar uchun dars va undan tashqarida o`quvchilar bilan bo`ladigan muloqotlarni yaxlit jarayon sifatida tashkil etishga yordam beradi.

Darsga tayyorgarlik ko`rayotganda muloqotning barcha funksiyalaridan kompleks foydalanashga erishish zarur. Darsni rejalashtirayotganda faqat axborot berish haqida emas, balki o`quvchilarning o`z shaxsini namoyon qilishlarini va o`z shaxsiy qobiliyatini ham ko`rsata olishga sharoit yaratishni ham rejalashtirishi zarur.

Bunda ayniqsa, o`qituvchi yordamiga muhtoj bo`lgan o`quvchilarga alohida e’tibor berish, har bir o`quvchini qiziqtirish usullarini, hamkorlik va ijodkorlikka asoslangan mehnatni tashkil etishni oldindan o`ylab qo`yish lozim. Muloqot bo`yicha yirik mutaxassis olim Kan-Kalik fikricha, professional pedagogik muloqot tarkibi quyidagilarlardan iborat: sinf-guruh bilan bo`ladigan muloqotni pedagog tomonidan modellash (loyihalash); o`zaro ta’sir ettirishning dastlabki onlarida bevosita faol muloqot olib borish (kommunikativ hujum); pedagogik jarayon davomida muloqotni boshqarish; amalga oshirilgan tahlil qilish va uni kelgusi faoliyat uchun modellash.

Muloqotning har bir elementlarini muvaffaqiyatli bajarish uchun quyidagilarga e’tibor berish zarur. Modellash bosqichi-sinf (guruh) o`quvchilarning o`ziga xos quyidagi xususiyatlarini, ularni bilish qobiliyatlari xarakteri, qiyinchiliklar ehtimolligi, ish sur’atini bilishni talab etadi.[25]

Darsga tayyorgarlik ko`rishda uning mazmunini oldingi dars mazmuni bilan bog`lash va u faqat o`qituvchi nuqtayi nazaridan emas, balki o`quvchi shaxsi tomonidan ham o`ylanib, turli variantlarda tayyorlanishi zarur. Bu haqda pedagogik texnologiyada batafsil ma’lumot beriladi. «Kommunikativ hujum» - o`z-o`zidan ma’lum bunda o`qituvchi o`quvchilarni tezda jalb qilish texnikasini bilishi, dinamik ta’sir va o`zini salobatli qilib ko`rsatish usullarini egallashi zarur.

Muloqotni boshqarish bosqichida o`quvchilar tashabbusini ma’qullash, dialogik muloqot olib borish, haqiqiy sharoitga moslab o`z fikrlariga tuzatishlar kiritish zarur. Muloqotni tahlil qilish uning maqsadi, mazmuni va natijasini taqqoslashdir.

NATIJALAR

Tabiiyki, o`qituvchi muloqotni, o`quv-tarbiyaviy jarayonni tashabbuskori va yetakchisi bo`lishi zarur. Buning uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

[25] Pirimov. T “O’qituvchi nutq motivatsiyasi” Ilmiy-o’quv qo’llanma Q.: 2000. -56 b

- “Biz” sezgisini vujudga keltirish;
- O`quvchilarga ta’sir etishda shaxs aspektlarini kiritish;
- O`zini sinf (guruh) haqida ijobiy fikrga ega ekanligini his ettirish;
- Faoliyatning aniq maqsadlarini ko`rsatish;
- O`quvchilarning ichki hissiyotlarini tushunish va ularga buni sezdirishi;
- Ayrim o`quvchilarga nisbatan shakllanib borayotgan steriotip fikrlarni o`zgartirish.

Bularning hammasi yosh o`qituvchi faoliyatida samarali muloqot o`rnatishda to`siqlarga barham beradi.

Pedagoglar tomonidan turli tipdagi rahbarlarning aniq ijtimoiy-psixologik qiyofasi yaratilgan. Ularning jamoa bilan muloqot texnikasi doimo tahlil qilib boriladi. O`qituvchi ham rahbar sifatida tarbiyalanuvchilar faoliyatini boshqaradi, ular bilan turli xil muloqotda bo`ladi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib pedagogik muloqotni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

–o`zaro ijodiy faoliyatga qiziqtirishiga asoslangan muloqot;
–o`zaro do`stlikka asoslangan muloqot;
–muloqot-masofa;
–muloqot-qo`rqitish;
–muloqot-hazil-mutoiba.

Muloqot motivatsiyasi-boshqalarni tushunishga bo`lgan ehtiyoj va qobiliyatni shakllantirish, o`zini tushunishga ehtiyoj tug`dirishdir. Muloqotdagi kamchiliklar:

–ehtiyotsizlik, shaxsiyatparastlik, suhbatdoshini ortiqcha majburlash;
–passivlik, o`zini juda yuqori va past qo`yish;
–haddan tashqari jonbozlik ko`rsatish.[26]

Bir so`z bilan aytganda pedagogning muloqot motivatsiyasi doimo ishlov berilishini talab qiladi.

Muloqot-insonlarning ma’lum bir jamoda yoki guruhda hamkorlikdagi faoliyatlari jarayonida vujudga keladigan ehtiyojlaridan bo`lib, faoliyatlari davomida o`zaro munosabatlarga kirishishi jarayoni hisoblanadi.

Muloqot motivatsiyasi xamma joyda kerak. Ish joyda, transportda, uyda umuman shaxs bo`lib o`z meniga ega insonlarda mavjud, shuning uchun ham biz kim bilan qanday muloqot (muomala) qilishni bilishimiz kerak. Insonning qanchalik bilimli, aql-zakovatli ekanligi uning muloqoti orqali namoyon bo`ladi.

Odamlar butun ichki dunyosini, maqsadini, muomala va munosabatlarini bir-birlariga so`z yordamida yetkazadi, amalga oshiradi. Shu tufayli muloqotda kishilarning muomalalari yoqimli bo`lishi zarur. Bundaylarni odamlar yoqtiradi, hurmat qiladi. Muloqot ham o`ziga xos san’atdir. Bu san’atni mukammal o`rganish

[26] (Заполнитель1)

har bir insonga zarur. Shu bilan birga, ona tilini mukammal o`rganmoq har bir insoning muqaddas burchidir. Tilni bilgach: uni ishlata bilish san'atini egallamoq inson uchun zarurdir.

Muloqot jarayonida shirinso`zlik va go`zal nutq hech qachon, hech qayerda sotilmaydi. Bunga erishmoqlikning birgina yo`li bor, bu ham bo`lsa tinimsiz shirin so`zlashash mashq qilmoqlikdir. Bu esa asosan ko`p kitob o`qish yo`li bilan amalga oshiriladi. Muomala insonning kimligini ko`rsatuvchi yuzidir.

Izlanishlarning ko`rsatishicha, pedagogning o`quvchilarga nisbatan bo`lgan ijobiy munosabati, ularga tiniq, bosiq tonda murojaat qilishi o`quvchilarda erkinlikni his qilishda yordam beradi. O`quvchilarga noto`g`ri munosabatda bo`lish ularda ishonchsizlik kam gap bo`lishiga, o`quvchilarda laganbardolik kabi yomon fazilatlar shakllanishiga olib keladi. Muloqotga ta'rif bersak, bu so`zlashuv, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va fikr olishuv, og`zaki nutq shakli bo`lib, ikki yoki undan ortiq shaxslarni so`zlashuvidir.

Muloqot faqat insonlarga xos bo`lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir-birlariga nimanidir aytish istagi tug`iladi. Muloqot-odamlar o`rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog`lanishlar rivojlanishining ko`p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko`rsatuvchilar o`rtasida axborot ayirboshlashni o`z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihati hisobga olinadi. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o`zaro birgalikdagi harakati - nutq jarayonida faqat so`zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham ayirboshlashdan iborat. Masalan, munosabatga kirishar ekanmiz, u bizni qoniqtirsa imo-ishora bilan muloqotda bo`lamiz.

Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo`lamiz. Aynan muloqot davomida uning haddi-harakatlarini kuzatamiz, uning o`zini tutishi va hakozalar tufayli, muloqotdoshimizga qaysidir ma'noda fikrimiz o`zgaradi. Demak muloqot insonning muhim jihatlaridan biri sanalib insonning muloqot ma'daniyati kishilarda salbiy va ijobiy fikrlarni paydo bo`lishini ta'minlaydi.[27]

Muloqot odobi insonni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi jarayondir. Muloqot odobi bolalikdan shakllanadi. Bola ulg`ayishi bilan muloqot odobi darajasi kengayib boradi. Muloqot odobi kishi faoliyatini belgilovchi jarayon bo`lib, uni barcha xatolardan saqlaydi. Natijada uning xulqiy go`zalligi ortadi.

Islom dinida belgilangan muloqot odobi mezonlari umuminsoniy muloqot odobi mezonlari bilan chambarchas bog`liqdir. Chunonchi, «Qur'oni Karim» Inson kamolotining asosiy dasturidir. Unda insonni yuqori cho`qqiga ko`tarishga ahamiyat

[27] M. Maxsudova "Muloqot psixologiyasi" Turon-iqbol. Toshkent 2006 y -76 b.

berilgan. «Qur'oni Karim» ning har bir oyatida kishining kundalik hayotida muloqot odobi mezonlariga og`ishmay amal qilishini ko`rsatadi.

Adab so`zi arabcha bo`lib, hayotimizga singib ketgan, muloqot odobi odamning ma'naviy yetukligi, ma'naviy mezonidir. Muloqot odobi deganda biz tarbiyali degan tushunchani anglaymiz. Muomalali kishi el o`rtasida e'zozlidir. Muloqot odobi insoniy fazilat kishi qadrini baland qiluvchi qimmatli sifatidir. U ta'lim - tarbiyaning asl mevasidir. Aqlning suyanchig`i hisoblangan muloqot odobi barcha fazilatlarning sha'ni va xikmatidir. Dono xalqimizning "Adab bozorda sotilmas", "Muloqot odobi kishi uchun ulug`lik va fazilatdir", "Muloqot odobi yo`qning aqli ham yo`q" kabi naqllari bejiz aytilmagan.[28] Shunday ekan, aql va muloqot odobi bir-biriga bog`liq, insonda xar ikkovi mavjud bo`lsagina o`sha inson kamol topadi.

O`zbekistonning mustaqilligi tufayli ota bobolarimiz axloq-muloqot odobi haqidagi hikoyatlari, naql va rivoyatlari yosh avlodda qadriyatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, muloqot odobi va axloqiy ezgulik, insoniylik kabi ma'naviy qadriyatlar shaxs kamolotida dasturamal bo`lib kelmoqda.

Axloq-ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, har bir kishining jamiyat va oiladagi yurish–turishi, tartib qoidalarining yig`indisi sifatida gavdalanadi. Demak, jamiyatga, oilaga, mehnatga bo`lgan munosabatda axloq namoyon bo`ladi. Inson xatti-harakatidagi, xulqidagi yo`nalishlar, eng muhim belgilar mujassamlanib, shaxs faoliyatida, uning kamol topishida xulq qoidasining asosi bo`lib qoladi. Axloq faqat tartib intizom o`zini tutishi bilan chegaralanmasdan inson muloqoti o`zgalar bilan munosabatni qay tarzda olib borish jarayonida namoyon bo`ladi. Shunday ekan o`quvchilarda muloqot odobini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o`rinda o`quvchilar bilan muloqot qilishning o`ziga xos xususiyatlarini keltirib o`tmoqchimiz:

1.O`quvchilar bilan muloqot qilish motivatsiyasining individual shaxsiy xususiyatlarini o`rganishi:

- o`quvchilar shaxsiy xususiyatlarini mustaqil tahlil qilish;
- o`quvchilar ichki imkoniyatlariga har tomonlama tavsif berish;
- o`qituvchining muloqot motivatsiyasini to`g`ri tashkil etishi.

2.Shaxsiy muloqotda ro`y beradigan kamchiliklarni darhol bartaraf etishi:

- kamchiliklarga barham berish choralarini darhol izlab topish;
- har qanday vaziyatda o`quvchilarga qo`pollik qilmaslik;
- o`quvchi shaxsini mensimaslik kabi salbiy holatlarni bartaraf etish.

3.O`qituvchi o`zi uchun muloqot motivatsiyasining eng qulay bo`lgan uslublarini tanlab olishi:

- pedagogik faoliyatiga monand muloqot motivatsiyasi modelini ishlab chiqishi;
- o`z-o`zini kuzatish bilan muloqotdagi yutuq va kamchiliklarini muntazam

[28] Husanov. B, G'ulomov. B "Muomala motivatsiyasi" T.: Ta'lim nashriyoti 2009 y -80 b

taqqoslab borishi;

- muloqotda ma’naviyatimiz, urf-odat va an’analarimiz imkoniyatlaridan doimiy foydalanish.

4.Muloqot motivatsiyasida pedagogik faoliyat qonuniyatlaridan chetga chiqmaslik:

- har bir o`quvchining individual xususiyatlariga mos muloqot tizimini ishlab chiqishi;
- muloqotning tarbiyaviy ta’sirini va samarasini e’tirof etish;
- muloqot motivatsiyasi asosida pedagogik mahoratni namoyish etish.[29]

Yuqorida keltirilgan xususiyatlar ta’lim jarayonida hozirgi zamon o`quvchilarida muloqot odobini tarbiyalashning asosiy shart-sharoitlarining birlamchisi deb bildik negaki yoshlarimizning individual xususiyatlariga mos holda muloqotni tashkil etish ta’limiy va tarbiyaviy tamonlama berilayotgan bilimlarning samaradorligida muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarni hamkorlik asosida muloqot motivatsiyasini rivojlantirish, avvalo, ularning muloqot motivatsiyasining o`zgarishi natijasida namoyon bo`ladi. Bunda hamkorlikda o`qitish har bir o`quvchini kunlik qizg`in aqliy mehnatga o`rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o`quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg`usini vujudga keltirish, o`z kuchi va qobiliyatiga bo`lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda ma’suliyat hissini shakllantirishni ko`zda tutadi. Buning uchun hamkorlik asosida muloqot motivatsiyasini rivojlantirish talab etiladi.

Hamkorlikda o`qitish texnologiyasi har bir o`quvchining ta’lim olishidagi muvafaqqiyati guruh muvofaqqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o`quv topshiriqlarini to`liq va sifatli bajarishga o`quv materialini to`liq o`zlashtirishga yordam beradi.

Muloqot faqat insonlarga xos bo`lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir-birlari bilan muloqotda bo`lish ehtiyoji tug`iladi. O`zaro muloqot esa, tabiiyki, kishilik jamiyati vujudga kelishining eng asosiy unsuri hisoblanadi.

Talabalarda hamkorlik texnologiyasi va muloqot motivatsiyasini rivojlantirish uni rivojlanishiga ta’sir etuvchi turli omillardan xalos etib, talaba o`qituvchi o`rtasida do`stona, erkin muloqot yaratish shart-sharoitlarning amalga oshirilishi zarurdir.

O`qituvchilarning - ta’lim jarayonidagi tarbiya beruvchilarning samarali metodik yondashuv asosida ish ko`rishlari ya’ni hamkorlik texnologiyasini to`g`ri qo`llay olish yoshlarda tushunchani o`stirish barobarida ta’limning har bir bo`ginida tizimlilikka asoslangan holda nutqini o`stirib muloqot motivatsiyasini oshirish imkonini beradi.

Bunday shart-sharoitlar o`quv dasturlari va qo`llanmalarda berilgan mavzular mazmunini o`quvchilarga yetkazish asosida amalga oshiriladi. Bu imkoniyatlardan

[29] A. Xoliqov “Pedagogik mahorat” T.: “Iqtisod-moliya” 2010 y 82 b

foydalanishda zamonaviy metod va vositalarga murojaat qilinsagina o`z samarasini berishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan muloqot haqidagi ma'lumotlardan xulosa shuki yoshlardagi sog'lom muhit-sog'lom muloqotni shakllantirish manbaidir. Jamiyatda har bir yoshning motivatsiyasimizga bo'lgan bilimini, tafakkurini shakllantirish, hurmat e'tiborni takomillashtirish muloqot motivatsiyasini amalga oshirishda tayanch bo'ladi.

MUNOZARA

Tahlillardan foydalanib muloqot motivatsiyasini bugungi davrda jonlantirish va muloqot faolligini oshirishda quyidagi taklif va talablar tizimiga duch keldik:

-Yoshlarni erkin muloqot motivatsiyasini rivojlantirish bilan birgalikda fikrlarini erkin ayta olish layoqatini oshirish;

-Yosh kadrlarni tayyorlash va so'z boyligini oshirishda turli zaruriy adabiyotlarni o'qib o'rganish va o'z ustida ishlash motivatsiyasini tarbiyalash;

-So'zning qudrati va ta'sir atish zaruriyatini anglab uni ishlatishning ahamiyatlilik darajasini yoshlarning rivojlantirish, ularning amaliy hayotida tashkil etish;

-Darslar jarayonida to'g'ri tashkil etilgan hamkorlik va muloqot motivatsiyasini shakllantirish orqali o'quvchida so'zlash muloqatchchanlik qobilyatini rivojlantirish;

Davr yoshlarimizga tarbiyani to'g'ri berish asosida nutqni, tafakkurni, dunyoqarashni va muloqotchanlikni rivojlantirishni talab qilmoqda. Demak o'qituvchilarning ya'ni ta'lim jarayonidagi tarbiya beruvchilarning samarali metodik yondashuv asosida ish ko'rishlari yoshlarda tushunchani o'stirish barobarida ta'limning har bir bo'ginida tizimlilikka asoslangan holda tarbiyani berish va nutqini o'stirib muloqot motivatsiyasini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. (Mirziyoyev)O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Lex.uz
2. Imom G`azzoliy "Ihyou ulumid-din" (Din ilmlarini jonlantirish) T.:«Movarounnahr» nashriyoti, 2007. 144 b
3. «O'zbekiston entiklopediyasi» 4 jild T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 234 b.
4. Pedagogik atamalar lug'ati T.: Fan nashriyoti 2008. – 156 b
5. Pirimov. T "O'qituvchi nutq motivatsiyasi" Ilmiy-o'quv qo'llanma Q.: 2000. -136 b.
6. A. Xoliqov "Pedagogik mahorat" T.: "Iqtisod-moliya" 2010 y 520 b.
7. M. Maxsudova "Muloqot psixologiyasi" Turon-iqbol. Toshkent 2006 y -355 b.
8. Husanov. B, G'ulomov. B "Muomala motivatsiyasi" T.: Ta'lim nashriyoti 2009 y -118 b.

INFRATUZILMALARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Zamira Salijanovna Umurzakova
Andijon mashinasozlik instituti katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295974

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiyotni rivojlantirishda infratuzilmalarni rivojlanishi haqida yozilgan. Bunda ijtimoiy va maishiy infratuzilmalar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Infratuzilma, ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy, ishlab chiqarish, takror ishlab chiqarish.

Infratuzilmalarning ijtimoiy, maishiy, bozor shakllarida esa bu jarayon yanada murakkab “masofa”ni bosib o‘tib, ularning ba’zilarida (ijtimoiy va maishiy infratuzilmalarda) yaratilayotgan qiymat ishchi kuchi takror ishlab chiqarishi orqali, ba’zilarida (bozor va maishiy infratuzilmalarda) esa resurslar, ishlab chiqarish quvvatlari va bozor mexanizmlari tizimida namoyon bo‘ladi.

Shuning uchun ham infratuzilma tushunchasiga ta’rif berilganda ayrim tadqiqotchilar uni tovarlar shakli va ishlab chiqarish jarayonlariga bevosita aloqador bo‘lmagan, shuningdek, ishlab chiqaruvchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri foyda (yoki daromad) keltirmaydigan “jamiyat sarf xarajatlari” sifatida baholasalar, ayrim tadqiqotchilar ishlab chiqarish amalga oshirilishini va samaradorligini ta’minlashning zaruriy xarakterdagi shartlar (yo‘llar va kommunikatsiyalar tarmog‘i, transport vositalari va qatnovi, yer qurilishi va boshq.) majmuasi, deya e’tirof etadilar. Bu guruh tadqiqotchilar fikricha, infratuzilmalar tizimining samarali tashkil etilishi bozor xo‘jaligi sharoitidagi korxonalar xarajatlarini qisqartirish, kapital harakati jarayonini yengillashtirish, jamiyat miqyosidagi talab va bandlik darajasini oshirish, shuningdek, foyda normasini ko‘paytirish imkonini beradi.

Korxonalar yoki mikrodarajadagi infratuzilmalar esa mahsulot ishlab chiqarish jarayonida qat’iy zarur va shart hisoblangan, ayni paytda o‘z kuchi va imkoniyati bilan barpo etish juda ham qimmat bo‘lgan, shuning uchun ham davlat va boshqa ixtisoslashgan korxonalar tomonidan tashkil etiladigan xizmat va inshoatlarni o‘z ichiga oladi. Ularga suv ta’minoti, elektro-eenergiya, ishlab chiqarish chiqindilarini tashib chiqarish, yuk qatnovi, ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktsiya ishlari, bank va moliya xizmatlari va boshqalar kiritiladi.

Xuddi g‘arb iqtisodiy tadqiqotchilik tizimida bo‘lgani kabi, yaqin xorij, jumladan, rossiyalik bir qator olimlar ilmiy ishlarida ham, qolaversa, milliy tadqiqotchilikda ham infratuzilmalarga yagona, umumiy fikrdagi qarash mavjud

emas. Jumladan, ayrim rossiyalik olimlarning fikricha, infratuzilmalar – bu ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarining yordamchi, ko‘maklashuvchi tarmoqlardir.

Bu kabi ta’riflar infratuzilmalarning unga berilgan barcha tavsiflar uchun umumiy bo‘lgan mohiyatan asosiy bosh ob’ektga xizmat ko‘rsatuvchi yordamchi faoliyat turi sifatidagi roliga asoslanadi.

SHu o‘rinda ta’kidlash joizki, infratuzilmalarga berilayotgan tavsiflarning xilma-xillik ko‘p hollarda tadqiq etilayotgan ob’ekt yoki faoliyat sohasining yetakchiligini ta’minlashga bo‘lgan bo‘lgan moyillik ta’siriga uchraydi. Ya’ni, ayrim tadqiqot ishlarida moddiy ishlab chiqarish sektorini o‘rganilish jarayonida ularda kechadigan munosabatlardagi infratuzilmalarning o‘rni tadqiq etiladi va bunda tabiiyki, infratuzilmalar tarmoqosti (yoki ko‘makchi soha) soha sifatida baholanadi.

Ayrim tadqiqotchilar esa garchi infratuzilmalarning o‘zini yoki uning muayyan bir yo‘nalishini o‘rgansalarda, ko‘p hollarda uni yo qandaydir hudud, mintaqa darajasiga, yo iqtisodiy davr ichiga yoki munosabatlar tizimi darajasiga bog‘laydilar. Bu esa yana yuqorida ta’kidlangan holatni, infratuzilmalarning davlat iqtisodiy siyosati e’tibori qaratilgan yoki iqtisodiy munosabatlar amal qiladigan ob’ekt yoxud shunday elementlardan biri sifatida baholanishiga sabab bo‘ladi.

Infratuzilmalar tizimidagi ishlab chiqarish munosabatlari xizmatlar ko‘rsatish va ishlar bajarish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. SHunga ko‘ra, yuqorida ta’kidlanganidek, xizmat ko‘rsatish iqtisodiy faoliyatning muhim ko‘rinishi hisoblanib, u mahsulot ishlab chiqarish tushunchasidan farqli o‘laroq, xizmat ko‘rsatishda sarflanayotgan mehnat ishlab chiqarish jarayonining o‘zida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotiladi. Bu o‘z navbatida tizimda iqtisodiy faoliyatni tashkil etishni bir muncha soddalashtiradi hamda arzonlashtiradi. Tizimda katta qiymatdagi asosiy va aylanma mablag‘larga ehtiyoj sezilmaydi.

Xizmat ko‘rsatish tushunchasini iqtisodiy nuqtai-nazardan ifodalashda, ushbu faoliyatning natijasini tovar sifatida tasavvur qilamiz. Xizmat ko‘rsatish faoliyati natijasida iste’molchilarning shaxsiy va umumiy ehtiyojlari qondiriladi. Avvalo bu yerda ehtiyojni qondirish deganda iste’molchining jismoniy, iqtisodiy, ma’naviy holatni o‘zgartirish tushuniladi, ya’ni, xizmat ko‘rsatish faoliyati davomida yoki uning natijasida ishlab chiqaruvchi iste’molchining jismoniy va ma’naviy holatini, kayfiyatini o‘zgartiradi.

Xulosa qilib aytganda, xizmat infratuzilmalarini rivojlaninishi bilan aholini mehnatga layoqatli qismini ish bilan ta’minlash xamda aholigi xizmat turlarini rivojlanishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Makkonnel Kempbell R., Bryu Stenli L. Ekonomiks: Printsipы,

problemы i politika. V 2 t.: Per. s angl. 11-go izd. T.2 – M., Respublika, 1992. - 400s.

2. Gukova A.V. Proizvodstvennaya infrastruktura v ekonomike regiona. – M., “Ekonomika”, 2001 g. -235 s.

INFORMATIKA TARIXI

Xudayberganov Nodirbek Otajonovich
Xorazm viloyati yuridik texnikumi axborot texnologiyalari va o‘qitishning texnik vositalari bo‘limi yetakchi mutaxassisi
Ibragimova Zulayho Karimboyevna
Xorazm viloyati yuridik texnikumi “Umumta’lim fanlari” kafedrasi mudiri
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295979

Annotatsiya: Mazkur maqolada hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan axborot haqidagi fan bo‘lmish informatika, uning rivojlanish tarixi to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: informatika, mikroprotsessor, axborot, kibernetika, texnik vositalar, dasturiy vositalar, algoritmli vositalar**.**

Ma’lumki, bugungi kunda informatika so‘zi keng qo‘llaniladi, biroq, hamma ham ushbu atamaning mazmun-mohiyatini to‘liq anglamaydi. Shunday ekan, informatika so‘zining ma’nosi va uning kelib chiqishini kengroq bilib olsak, foydadan holi bo‘lmaydi.

Informatika 60-yillarda Fransiyada elektron hisoblash mashinalari yordamida axborotni qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchi sohani ifodalovchi atama sifatida yuzaga keldi. Informatika atamasi lotincha **informatic** so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, tushuntirish, xabar qilish bayon etish ma’nolarini anglatadi. Fransuzcha informatique (informatika) so‘zi axborot avtomatikasi yoki axborotni avtomatik qayta ishlash ma’nosini anglatadi. Ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda bu atamaga Computer science (kompyuter texnikasi haqidagi fan) sinonimi mos keladi.

Informatikaning inson faoliyatining mustaqil sohasi sifatida ajralib chiqishi birinchi navbatda kompyuter texnikasining rivojlanishi bilan bog‘liq. Bunda asosiy xizmat mikroprotsessor texnikasiga to‘g‘ri keladi, uning paydo bo‘lishi 70-yillar o‘rtalarida ikkinchi elektron inqilobini boshlab berdi. Shu davrdan boshlab hisoblash mashinalarining element negizini integral chizma va mikroprotsessorlar tashkil etdi. Informatika atamasi nafaqat kompyuter texnikasi yutuqlarini aks ettirish va foydalanish, balki axborotni uzatish va qayta ishlash jarayonlari bilan ham bog‘lanadi.

Informatika axborotni qayta ishlash, ularni qo‘llash va ijtimoiy amaliyotning turli sohalariga ta’sirini EHM tizimlariga asoslangan holda ishlab chiqish, loyihalash, yaratish, baholash, ishlashning turli jihatlarini o‘rganuvchi kompleks ilmiy va muhandislik fani sohasidir.

Informatika bu jihatdan axborot modellarini ko‘rishning umumiy metodologik tamoyillarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan. Shu bois axborot uslublari obyekt, hodisa, jarayon va hokazolarni axborot modellari yordamida bayon etish imkoniyatiga egadir.

Informatikaning vazifalari, imkoniyatlari, vosita va uslublari ko‘p qirrali bo‘lib, uning ko‘plab tushunchalari mavjud. Ularni umumlashtirib quyidagicha talqinni tavsiya etadilar.

Informatika va kibernetika tushunchalarida ko‘pincha chalkashliklar uchrab turadi. N. Vinner tomonidan kibernetikaga kiritilgan asosiy fikr inson faoliyatining turli sohalarida murakkab dinamik tizimlarni boshqarish nazariyasini ishlab chiqish bilan bog‘liq. Kibernetika kompyuterlar mavjudligi yoki yo‘qligidan qatiy nazar mavjuddir.

Informatika yangi axborotni ancha keng kibernetika kabi turli obyektlarni boshqarish vazifalarini amaliy hal etmay, o‘zgartirish va barpo etish jarayonlarini o‘rganadi. Shu bois informatika haqida kibernetikadan ancha keng fan sohasi, degan tasavvur hosil bo‘lishi mumkin. Biroq, boshqa jihatdan informatika kompyuter texnikasi bilan bog‘liq bo‘lmagan muammolar yechimi bilan ifodalanmaydi, bu, shubhasiz, uning umumlashtiruvchi xususiyatini cheklaydi.

Informatika kompyuter texnikasi rivojlanishi tufayli yuzaga keldi, unga asoslanadi va usiz mavjud bo‘la olmaydi. Kibernetika kompyuter texnikasining barcha yutuqlaridan unumli foydalansa ham, lekin obyektlarni boshqarishning turli modellarini yaratgan holda o‘zicha rivojlanaveradi. Kibernetika va informatika tashkiliy jihatdan bir-biriga juda o‘xshash bo‘lsa ham, lekin:

• **informatika** — axborot va uni qayta ishlovchi texnikaviy, dasturiy vositalari xususiyatlariga asoslanishi;

• **kibernetika** esa — obyektlar modellarining konseptsiyalarini ishlab chiqish va ko‘rishda, xususan, axborotlardan keng foydalanishi jihatidan farqlanadi.

Informatika keng ma’noda insoniyat faoliyatining barcha sohalarida asosan kompyuterlar va telekommunikatsiya aloqa vositalari yordamida axborotni qayta ishlashi bilan bog‘liq fan, texnika va ishlab chiqarishning xilma-xil tarmoqlari birligini o‘zida namoyon etadi.

Informatikani tor ma’noda o‘zaro aloqador uch qism — ***texnik vositalar (hardware), dasturiy vositalar (software) va algoritmli vositalar (brainware)*** sifatida tasavvur etish mumkin.

O‘z navbatida informatikani ham umuman, qismlari bo‘yicha turli jihatlardan: xalq xo‘jaligi tarmog‘i, fundamental fan, amaliy fan sohasi sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

Informatika ***xalq xo‘jaligi tarmog‘i*** sifatida kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish va axborotni qayta ishlash zamonaviy texnologiyasini

ishlab chiqish bilan shug‘ullanadigan xo‘jalik yuritishning turli shakllaridagi korxonalarning bir turda jamlanishidan iborat bo‘ladi. Informatikaning ishlab chiqarish tarmog‘i sifatidagi o‘ziga xosligi va ahamiyati shundaki, xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari mehnat samaradorligi ko‘p jihatdan unga bog‘liqdir. Bundan tashqari, bu tarmoqlar me’yorida rivojlanishi uchun informatikaning o‘zida mehnat samaradorligi ancha yuqori sur’atlarda o‘sib borishi lozim, chunki hozirgi davrda jamiyatda axborot ko‘proq so‘nggi iste’mol predmeti sifatida namoyon bo‘lmoqda: odamlarga dunyoda ro‘y berayotgan voqealar, ularning kasbiy faoliyatiga doir predmet va hodisalar, fan va jamiyatning rivojlanishi haqida axborot zarur. Mehnat samaradorligining bundan keyingi o‘sishi va farovonlik darajasini ko‘tarish, katta hajmdagi multimedia axborotini (matn, grafika, videotasvir, tovush, animatsiya) qabul qilish va ishlashga yangi intellektual vositalar va «inson mashina» interfeyslaridan foydalanish asosidagina erishish mumkin. Informatikada mehnat unumdorligi oshishi suratlari yetarli bo‘lmasa, butun xalq xo‘jaligida mehnat samaradorligi o‘sishining anchagina kamayishi ro‘y berishi mumkin. Hozir dunyodagi barcha ish joylarining 50% ga yaqini axborotni qayta ishlash vositalari bilan ta’minlangan.

Xulosa qilib shuni aytamanki, Vatanimizda informatika fani hozirgi kunda eng tez rivojlanayotgan fanlardan biri bo‘lib, jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Aripov, M.Muhammadiyev. Informatika, informasion texnologiyalar. Darslik. T.: TDYuI, 2004 y.
2. С.С.Ғуломов ва бошқалар. Ахботор тизимлари ва технологиялари. Дарслик. Тошкент, “Шарқ”, 2000 й.
3. M.Mamarajabov, S.Tursunov. Kompyuter grafikasi va Web-dizayn. Darslik. T.: “Cho‘lpon”, 2013 y.
4. B.Mo‘minov. Informatika. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur-bo‘stoni”, 2014 y.
5. www.virtualolam.uz

УЗУМ ЎСИМЛИГИ ВА УНИНГ ШИФОБАХШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Ҳайдаров Жаҳонгир Абдурахмонович
Ўсимликлар карантини ва ҳимояси илмий – тадқиқот институти директори
Эшонқулов Бахром Акромович
Ўсимликлар карантини ва ҳимояси илмий – тадқиқот
институти стажёр тадқиқотчи
Исмонов Азизбек Мухаммадсолиевич
Фарғона политехника институти Ёшлар билан ишлаш,
маънавият ва маърифат бўлими услубчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.7220446

Аннотация: ушбу мақолада узумнинг минг дардга даъво эканлиги ва унинг серҳосил навлар тўғрисида маълумотлар берилган. Қуритилган меваси, тайёрланиши, қайси касалликларда ишлатилиши айтиб ўтилган. Шунингдек, Бепуштликда ёрдам беради. Ҳинд олимлари узум эркаклар бепуштлигида ёрдам беришини таъкидлашмоқда. Улар бу борада тажриба ўтказиб, бир гурух эркакларда табиий антиоксидант ҳисобланган ликопеннинг шифобахш хусусиятини синаб кўришади.

Калит сўзлар: узумнинг шифобахшлаги, узум навлар, табиий антиоксидант, ҳалқ табобати, маданий ўсимликлар.

Узумчилик нафақат Республикамиз қишлоқ хўжалигининг энг қадимий ва сердаромад тармоғи, балки миришкор халқимизнинг севган касбкорларидан бири ҳисобланади. Юртимиз ҳўл мевалар билан бир қаторда қуруқ мева ва майиз етиштиришда жаҳон миқёсида етакчилик қилади. Давлат реейстрига мувофиқ бугунги кунда Республикамиз ҳудудида қуйидаги узум навлари экишга тавсия этилган. Алеатико, Андижонча қора, Гўзал қора, Баня ширей, Жанжал қора, Султоний, Китоб сурҳоки, Пушти Тойифий, Тарнов, Тошкентча, Қизил хурмоли, Оқ хусайни ва ҳаказо.

Тупроқни тайёрлаш. Токларнинг яхши ўсиши, хосилдорлиги ерни сифатли ишлашга боғлиқ. Бунда ёш боғ қатор ораларига чопиқ қилинадиган экинлар экиш яхши натижа беради. Тупроқ донадорлиги, унинг унумдорлигини оширишда боғ қатор ораларига кўкат ўғит (сидерат) экиш мақсадга мувофиқдир. Хосилдор боғлар тупроғи кузда 25-30 см чуқурликда шудигорланади. Шудгор эрта бахорда дискли боронада бороналанади. Шахсий таморқа боғларда эса дарахт атрофи, туп оралари чуқур қилиб чопилади. Шудигор эрта бахорда бороналанмаса, тупроқ наминнг бир қисми тезда буғланиб, намлик захираси камаяди. Ўсув даврида боғлар тупроғи вақти-вақти

билан юмшатиб турилади, бегона ўтлардан тозаланади. Бахорда қатор оралари ҳайдаб қўйилган бўлса, култивация қилинади.

Таркиби ва ишлатилиши. 30% гача қанд, 2,5-3% органик кислоталар, витаминлар, оқсил, пектин, минерал тузлар мавжуд. Уруғи таркибида 20% гача ёғ, 8% гача ошловчи моддалар, леситин ва ванил шуларни сақлайди.

Абу Али ибн Сино буйрак, қовуқ, жигар, меъда ичак йўли касаликларида оғриқ қолдирувчи, барглари билан бош, кўз касаликларини даволайди. Қурутилмаган барг шираси билан дизентерия, поя шохлари кули билан тери касалликларини даволаган. Халқ табобатида узум турли буйрак, қовуқ, жигар, юрак, меда ичак касалликлари. Вабосил, подагра, бачадон касалликларини даволашда, сийдик ва ўт ҳайдовчи, қон оқишни тўхтатувчи, иштаха очувчи ва қувват берувчи сифатида ишлатилади. Ток барги дамламаси ёки қайнатмаси билан томоқ оғриганда томоқ чайилади. Қурутилган барг кукуни бачадондан қон оқишини тўхтатадиган дори сифатида 2-4 граммдан ичилади.

Илмий табобатда меъда касалликларида, қабзият ҳолларда, модда алмашинуви бузилганда, камқонлик, нефрит, срункали бронхит ва бошқа касалликларда истеъмол қилинади. Ҳаддан озиган одам қувватсиз киши учун ва яна ўпка силида, иштаха очадиган сифатида тавсия этилади.

Дори тайёрлаш ва фойдаланиш. «Натуроза» деган препарат олиниб, у кўп қон йўқотган одамлар учун венадан юборилади. «Витохол» токнинг баргидан олиниб, у жигар касалликларида ишлатилади. эрта баҳорда барглари йиғиб олинади ва майдалаб кукун тайёрланади. Юқоридаги касалликларда 2 – 4 грамм сув ёки сут билан ичилади. Майиз меваси, барги, поясидан дамлама ва қайнатма 10 грамми 200 мл сувга тайёрланиб ичилади. Овқатдан олдин 50 граммдан 3 маҳал ичилади.

Майиз меваси 100 грамм, пиёз шираси 100 грамм, иккаласи аралаштирилиб, 5-10 минут паст оловда мил-мил қайнатилади ва сақланади. Малҳамдан кунига 3-4 маҳал томоқ бўғилишида 1-2 ош қошиқдан ичилади.

Узумнинг шифобахш хусусиятлари ҳақида эшитмаган одамнинг ўзи бўлмаса керак. Аммо унинг бу хусусияти биз ўйлагандан анча кенгроқ бўлиб, улар ҳақида айтиб ўтишни маъқул кўрдик. Шундай қилиб:

Узум мевасида радиопротекторли, нурга қарши, бактерикцит, антиоксидант, нейрорағбатлантирувчи, тонусни кўтарувчи ва бошқа функсионал хусусиятларга эга камида 300 та бирикма мавжуд. Сизга таниш бўлган биофланоидлар, моносахаридлар, пектин моддалари ва органик кислоталардан ташқари, узум таркибини С, А, B_1, B_2, B_5, B_6, B_9, Е, РР, Р витаминлари, натрий, калсий, фосфор, магний, калий, марганец, темир, рух, мис ва бошқа кўплаб моддалардан ташкил топган ҳақиқий «коктейл» дейиш мумкин.

Узум билан даволаш амоелотерапия деб номланади. Узум организмдаги моддалар алмашинувини яхшилайди, сийдик ҳайдовчи, юмшоқ ич сурувчи ва тер ҳайдовчи хусусиятга эга. У нафас олиш йўлларидаги шилимшиқ модданинг ажралиб тушишини рағбатлантиради ва балғамни тупуриб ташлашни енгиллаштиради. Шу боис узумни ларингит, фарингит, трахеит, бронхит, астма, плевритларда истеъмол қилиш жуда фойдали.

Юрак учун фойдаси. Юқорида айтиб ўтганимиздек, узумдаги биофлаваноидларнинг фойдали таъсирининг чегараси йўқ.

Биринчидан, қизил узумда ажойиб резвератол биофлавоноиди мавжуд. У қонда «яхши» холестерин, яъни юқори зичликдаги липопротеинлар миқдорини оширади ва треглицеринлар, ҳаммага холестерин номи билан маълум бўлган паст зичликдаги «ёмон» липопротеинлар миқдорини 50% га камайтиради. Демак, узумни ёқтирадиган кишиларда атеросклерозга чап бериб, кексайган пайтида ҳам яхши хотирани сақлаб қолиш имкони бор.

Бепуштликда ёрдам беради. Ҳинд олимлари узум эркаклар бепуштлигида ёрдам беришини таъкидлашмоқда. Улар бу борада тажриба ўтказиб, бир гурух эркакларда табиий антиоксидант ҳисобланган ликопеннинг шифобахш хусусиятини синаб кўришади. Олимлар ушбу антиоксидантнинг ҳимоя таъсири репродуктив тизим фаолиятидаги бузилишларда ҳам ўзини намоён этади, деб тахмин қилишади. Тажриба давомида 30 нафар кўнгилли уч ой мобайнида кунига икки марта икки миллиграмдан ликопен моддасини қабул қилишади. Маълум бўлишича, бир курс экисперимental даволашдан кейин уларнинг 20 тасида сперматозоидлар сони ошган, тўртта ҳолатдан учтасида уларнинг фаоллиги кучайган, 63% ҳолатда эса, ҳужайралар шаклининг кўрсаткичлари яхшиланган. Бундан ташқари, олтита ҳолатда олдин бепушт деб тан олинган эркак фарзандли бўлган. Тадқиқотчилар, ликопен ҳақиқатдан ҳам келиб чиқиши номаълум бўлган бепуштликни даволай олишига ишончлари комил.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. А.А.Рибаков,С.А.Остоухова - «Ўзбекистон мевачилиги» Ўқитувчи 1981
2. М.М.Мирзаев, М.К.Собиров - «Боғдорчилик» Т: «Меҳнат» 1987
3. Абу Али ибн Сино «Тиб қонунлари»
4. Мирзаев М.М., Джавакянц Ю.М., Раззоқов М.Ж. Мевали дарахтлардан юқори ҳосил етиштириш бўйича тавсиянома. Тошкент, 2006. - Б.11-12.
5. Шредер П.П. номидаги боғдорчилик, узумчилик ва виночилик илмий текшириш институ-ти. Ўзбекистонда мева, узум ва резавор мева етиштириш технологияси. Тошкент, 1976. - Б. 25-40.

ЎЗБЕКИСТОН ЎСИМЛИКЛАР ДУНЁСИНИНГ ХИЛМА – ХИЛЛИГИ ВА УЛАРДАН ОҚИЛОНА ФОЙДАЛАНИШ

Ҳайдаров Жаҳонгир Абдурахмонович
Ўсимликлар карантини ва ҳимояси илмий – тадқиқот институти директори
Эшонқулов Бахром Акромович
Ўсимликлар карантини ва ҳимояси илмий – тадқиқот институти стажёр тадқиқотчи
Исмонов Азизбек Мухаммадсолиевич
Фарғона политехника институти Ёшлар билан ишлаш, маънавият ва маърифат бўлими услубчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.7220463

Аннотация: ушбу мақолада ўсимликлар дунёсининг инсон ҳаёти давомида қанчалик қимматбаҳо бойлик эканлиги ёритиб берилган. Ўисликлардан оқилона фойдаланиш, чучук сувни қадрига етиш, ҳайвонот ва набодот оламни асраб авайлашимиз ва келажак авлодга етказишимиз алоҳида таъкидлиб ўтилган. Шунингдек, Орол денгизи глобал муаммога сабаб бўлаётгани ва у ерда ҳосил бўлган тузларни атмосферага кўтарилиб кетмаслиги ёритиб берилган.

Калит сўзлар: яшил ўсимликлар, шамол эррозияси, табиий заҳира, доривор, манзарали ва маданий ўсимликлар.

Инсон ҳаёт гултожи бўлса, унга ҳаёт берувчи яшил ўсимликлардир. Булар биргина инсон ҳаётидагина эмас, балки табиатдаги мавжуд барча қурт - қумурсқалардан тортиб то улкан умуртқали ҳайвонлар ҳаётида ҳам ғоят катта аҳамиятга эгадир. Чунки, уларсиз тирик организмнинг яшаши мумкин эмас. ўсимликлар бизни озиқ – овқат, кийим – кечак, дори – дармон, қурилиш материаллари учун хом ашё, ёқилғи, чорва моллари учун ем – хашак; чорва моллари эса бизга гўшт, сут, тери, ёғ каби инсон учун зарур бўлган маҳсулотларни етказиб беради, қолаверса, тирик организм учун ҳаётий зарур ҳисобланмиш ҳавони ҳам тозалаб етказиб беради. Мутахассисларнинг аниқлашича, бир гектардаги ўрмонзор кунига 280-300 кг карбонат ангидриддан фойдаланиб, инсон учун керакли органик моддалар (ёғ, оқсил, витаминлар ва хоказо) тўплашдан ташқари 180-220 кг гача нафас олиш учун соф ҳаво-оксигенни етказиб берар экан. Бундан ташқари, улар деярли барча минтақалардаги тупроқ қопламини сув ва шамол эрозиясидан, қолаверса ўзлари ўсаётган жойлардаги тупроқнинг сув режимини ҳам бир меъёрда сақлаб турадилар.

Кейинги йилларда матбуотда, радио ва теле дастурларда дунёнинг кўпчилик мамлакатларида, шу жумладан, бизнинг республикамиз табиатида экологик танглик, ерларимизни экологик инқирозга учраётгани тўғрисида маълумотлар берилмоқда. Бу албатта кўпчиликни ташвишга солиши аниқдир.

Таниқли олим академик А.Г.Бабаевнинг маълумотига кўра, планетамизнинг деярли 30% ҳудуди қурғоқчил минтақада жойлашган бўлиб, унинг 145 млн.гектари суғориладиган, 170 млн.гектари лалмикор ва 3,6 млрд.гектари табиий ўтлоқлар ва яйловлардан иборатдир. Бу минтақада Ер юзида яшовчи халқларнинг деярли 1 млрд. аҳолиси истиқомат қилиб, шу ҳудудда тирикчилигини ўтказар экан. Лекин кейинги 50 йиллар давомида, бу минтақада антропоген ва техноген омиллар таъсирида серҳосил ерларнинг маълум бир қисми инқирозга учраб, ҳосилдорлик пасайиб кетаётир. Мисол тариқасида 1989 йил 13 мартда «Правда востока» газетасида босилган собиқ СССР Олий Советининг махсус комиссияси Бухоро вилоятининг шимолий қисмида жойлашган Учқудуқ, Томди, Конимех ва Ромитан, Пешку туманининг «Қизил равот», «Жангелди» қоракулчилик хўжаликларининг яйловларини текшириб кўришганда жами бўлиб 7 млн. гектар яйловни Орол денгизининг қум-тузи босиб фойдаланишга яроқсизлиги аниқланган. Демак Орол фожиаси, шу кунга келиб республикамиз ҳудудларида оғир экологик тангликни олиб келгани исботланди. Умуман олганда республикамиз бўйича ҳозир деярли 10 млн. гектар табиий яйловлар инсон ёрдамига муҳтождир.

Бизларнинг кейинги 2013-2014 йилларда комиссия кўрсатган ҳудудларда махсус олиб борилган кузатишларга қараганда, бу ўтлоқларнинг ҳозирги аҳволи деярли 15 йил вақт ўтишига қарамасдан илгари ҳолатига келган эмас. Чунки, бу жойларда илгари тарқалган кўп йиллик ва бир йиллик майин озуқабоп ўсимликларнинг таркиби камайиб кетган. Сақланиб қолган бута ва бутачаларнинг сони ва сифати ҳам яхши эмас. Чунки, уларнинг ривожланиши, қолаверса гуллаб мевалашига шу даврда ҳаво оқими билан ёғилаётган қум-туз заррачалари тўсқинлик қилаётир. Бундан ташқари, ерости сувлари ҳам пасайиб кетган. Хуллас, бу пайкалларни фитомелиорация усули билан яхшилаш керак.

Агар Марказий Осиё флораси 8000 турдан зиёдроқ бўлса, шуларнинг ярмидан кўпроғини – 4500 турни республикамизга хос гулли ўсимликлар ташкил этади. Булар орасида 2000 дан зиёдроғи ем- хашак (таркибида кўпчилик бута – дарахтлар, сув ўтлари, замбуруғлар, лишайниклар, мохлар кирмайди), 1000 га яқини бол (асал) берувчи, 700 – доривор, 650 – эфирмойли, 530 – бўёқбоп, 450 - тери ошловчи, 350 - инсон учун зарур озуқа берувчи ўсимликлар, 270 – манзарали гуллар, 200 дан зиёдроғи хушбўй зиравор, 100 га яқини сапонин сақловчи ва деярли шунча тур ёнғоқ данакли хилма – хил мевалардан иборатдир. Лекин бу мавжуд биологик хилма – хилликдан собиқ шўролар

даврида ўтказилган сиёсат, айниқса қишлоқ хўжалиги соҳасининг ҳамда шу соҳага тегишли экологик омиллардан нотўғри фойдаланиши, инсонни табиатдан устун қўйилиши натижасида республика биологик ресурсларига жиддий зарар етказилди. Мисол тариқасида Орол денгизини қуриши ва унинг оқибатларини кўрсатиш мумкин.

Илгари биз кўпинча келажакни ўйламасдан, адир ва паст тоғ ёнбағирларини ҳайдаб дон ва бошқа экинлар экдик. Тез-тез бўлиб турадиган қурғоқчилик йилларидан кейин бу пайкаллар ўсимликсиз ташландиқ ерларга айланиб, шамол ва сув эрозияси таъсирида ҳар хил ҳажмда жарликларга айлантирдик. Бундан ташқари, шу ерларнинг кўрки ҳисобланган кўпчилиги сиз билан бизнинг тўйимли озуқамиз ҳисобланган ёввойи ёнғоқ, олма, нок, анор, хурмо, дўлана, писта, қатронғи, зира, тобулға, арча каби қимматбаҳо бута ва дарахтларни кесиб юбориш натижасида уларнинг майдони йил сайин камайишига олиб келдик. Масалан, илгари Ғарбий Ҳисор тоғи ва унинг Тўпаланг ва Сангардак дарёлари ҳавзаларида кенг тарқалган ёввойи анжир, анор, хурмо, писта, ёввойи узум, чилон жийда каби ноёб ўсимликлар ҳозир деярли йўқолиш арафасида турибдилар. Худди шундай ҳолат кўпчилик ем-хашакбоп ўтлар, доривор, бўёқбоп, эфир мойли, ошловчи, манзарали, зиравор каби фойдали ўсимликларнинг майдони ва уларнинг заҳираларини камайиб бориши ачинарлидир. Чунончи, ҳозир чорва моллари учун қимматбаҳо ем – хашак ўсимликлардан ёввойи Гроссгейм бедаси (Medicago grosheimii Vass.), Гордягин қатрони (Grambe gordjaginii Spray. et M. Pop.), оқтов чалови (Stipa aktauensis Roshev.), Жиззах карраги (Cousinia dschisakensis Kult.), зиракўт (Onobrychis tavernieffolia Stocks. et Boiss.) ва бошқаларни кўрсатиш мумкин. Ёки бир вақтлар адир ва тоғларимизда кенг тарқалган сапонинли ва доривор беҳ- етмак, базулбанг, сувурўти, оқпарпи, омонқора, танидли Максимович чуҳраси, эфирмойли мармарак, Эрон зираси, ёввойи пиёзлардан – пиёзи анзур, Пском пиёзи, ёввойи саримсоқ, қолаверса баҳорда Ватанимиз чўли, адирлар ва тоғларида хилма-хил тусда алвон ёйиб инсон дилини хушнуд қилаётган ёввойи лолаларимизни айтмайсизми! Ўзбекистонда бу баҳор маликаларининг қизил, сариқ, тарғил, оқ рангли 20 дан зиёдроқ тури бўлиб, буларнинг майдони кун сайин камайиб кетаяпти.

Республикамиз ўзининг барқарор ривожланиши учун мавжуд биологик хилма-хилликни сақлаш муҳимлигини назарда тутиб, 1995 йилда Халқаро Конвенцияга қўшилди. 2000 йилдан буён БМТ нинг Ривожлантириш Дастури (ПРООН), Глобал экологик жамғарма Ўзбекистон Республикаси билан ҳамкорликда “Нурота - Қизилқум” биосфера резерватини яратиш лойиҳаси бўйича иш олиб бораётир. Яратилажак биосфера резерватининг умумий майдони бир миллион гектардан ошикроқ бўлиб, у Самарқанд вилоятининг

Пойариқ, Қўшробот, Навоий вилоятининг Нурота, Конимех ва Жиззах вилоятининг Фориш туманларини ўз ичига олади. Бу ҳудудларда дунёнинг бошқа жойларида учрамайдиган ноёб биологик хилма-хилликни, Нурота тоғ тизмаси ва Қизилқум чўлининг ўсимлик ва ҳайвонот дунёсини, шу жумладан Қизилқум тоғ Северцов қўйи (Ovis polli severtzovi Nas.)- архарини, Қизилқум чўл газели – жайронини (Gazella subgutturosa Guld.) сақлаб қолиш мақсадида яратилаётган ушбу биосфера резерватини келажакда ЮНЕСКО нинг “Инсон ва жамият” дастури асосидаги умумжаҳон қўриқланадиган ҳудудлар тизимига киритиш мақсадга мувофиқдир.

Республикамизда 15 минг турдаги ҳайвонлар, 4500 га яқин ўсимликлар рўйхатга олинган. Шулардан 184 турдаги ҳайвонлар, 301 турдаги ўсимликлар республикамиз “Қизил китоби” нинг кейинги нашрига киритилган. Бунинг учун республикамиз ҳудудида 9 та қўриқхона, 2 та миллий боғ мавжуд. Ушбу юқорида келтирилган ҳайвон ва ўсимликларни маълум бир қисми шу қўриқхона ва миллий боғ ҳудудида учрайди. Бундан қатъий назар, бу муҳим масала тўғрисида барчамиз бош қотиришимиз лозим. Республикамизда бу муҳим масалага жиддий эътибор бериб келаётган «Экосан» халқаро жамғармаси фаоллари мавжуд муаммолар ечими хусусида тавсиялар ишлаб чиқараётган бир пайтда атроф-муҳит, қолаверса бизнинг яшил дўстларимиз ҳисобланган хилма-хил ўсимликлар дунёсига ҳам бефарқ қараш керак эмас. Чунки, биз келгуси авлод олдида ўз бурчимизни бажаришимиз керак.

Адабиётлар:

1. Бабаев А.Г. Советский опыт по борьбе с опустыниванием него значение для африканских стран. Проблемы освоения пустынь, 1989, с.6.

2. Ўзбекистон Республикаси «Қизил китоби». Тошкент. «Chinor», ENK, 1998.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИНИ БАРПО ЭТИШДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ УМУМЖАҲОН ДЕКЛАРАЦИЯСИНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАЗМУНИ-МОҲИЯТИ Умид Эркинович Фозилов	4
2.	ZAMONAVIY RAXBAR SHAXSI MADANIYATI VA MA’NAVIYATI HAQIDA QARASHLAR Husniddin Norqo‘chqor o‘gli Qobilov Izzat Toshtemirovna Ergasheva	9
3.	ОСНОВНАЯ ЗАДАЧА РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА Мухаммаджон Тошхонов Бобур Турдалиев	13
4.	BOSHLANG‘ICH TA’LIMDAGI BOLALARDA ESTETIKANI RIVOJLANTIRISH USULLARI Nishonova Zuhra Aubakirovna	17
5.	ГАРМОНИЯ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ ВОСТОЧНЫХ И ЗАПАДНЫХ УЧЕНЫХ Хилола Нъютонова	22
6.	O‘ZBEK QISSALARIDA KONFLIKT Raximov Shuxratbek Amanboyevich, Mamadaliyeva Mashhuraxon Erkinjon qizi	30
7.	ҚОВУННИНГ ФУЗАРИОЗ СЎЛИШ КАСАЛЛИГИ. (ФУЗАРИОЗ ВИЛТ) Анваржон Хайдаров Аҳаджон Жамолов Аброржон Эргашев	35
8.	SOLENOIDAL VEKTOR MAYDONLARNING LI ALGEBRASI Ergashali Axadjon o`g`li Akramov	38
9.	ЧИҒАТОЙ ТУРКИЙЧАСИ ВА УНДА ЁЗИЛГАН АЙРИМ ҚЎЛЁЗМАЛАР ҲАҚИДА Ф.Джуманиязова	41
10.	MEHNAT RESURSLARINI ISH BILAN BANDLIK MUAMMOSI Dildora Zaylobiddinova	49
11.	QISHLOQ XO‘JALIGIDA ISHCHI KUCHINI TAQSIMLASH VA QAYTA TAQSIMLASH Gulmira Abduxalilovna Zufarova	53
12.	YER VA SUVDAN OQILONA FOYDALANISH Nuriddin Zaylobiddinov	57
13.	YUQORI MALAKALI MUTAXASSISLAR TAYYORLASHDA ISHLAB CHIQARISH VA TA’LIM INTEGRATSIYASINI RIVOJLANTIRISH Mavludaxon Saidova	61
14.	DARS JARAYONIDA OQITISHNING KO‘RGAZMALI USULLARINI SAMARALI QO‘LLASH Mehrangiz Abrayeva	66
15.	VOYAGA YETGAN ORGANIZMDA QON YARATILISHI Durdona Aliyeva	70
16.	MTT TARBIYALANUVCHILARINI MASHG‘ULOTLAR JARAYONIDA EKOLOGIK TARBIYALASH METODIKASI Usmonova N. Ro‘ziyeva Z.	74
17.	MAKTABGACHA TA’LIM DARSLARIDA BOLALAR ZAKOVATLARINI	79

	O‘STIRISHDA ILLUSTRATSIYALAR VA HARAKATLI O‘YINLARNI O‘RNI VA AHAMIYATI Feruza Alijonovna Xusanova	
18.	MATEMATIKANI O‘QITISHNING BA’ZI BIR ASPEKTLARI Sevara Shavkat qizi Quronboyeva	82
19.	YOSHLARDA MULOQOT MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI Nilufar Omonova	85
20.	INFRATUZILMALARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH OMILLARI Zamira Salijanovna Umurzakova	94
21.	INFORMATIKA TARIXI Xudayberganov Nodirbek Otajonovich Ibragimova Zulayho Karimboyevna	97
22.	УЗУМ ЎСИМЛИГИ ВА УНИНГ ШИФОБАХШ ХУСУСИЯТЛАРИ Ҳайдаров Жаҳонгир Абдурахмонович Эшонқулов Бахром Акромович Исмонов Азизбек Мухаммадсолиевич	100
23.	ЎЗБЕКИСТОН ЎСИМЛИКЛАР ДУНЁСИНИНГ ХИЛМА – ХИЛЛИГИ ВА УЛАРДАН ОҚИЛОНА ФОЙДАЛАНИШ Ҳайдаров Жаҳонгир Абдурахмонович Эшонқулов Бахром Акромович Исмонов Азизбек Мухаммадсолиевич	103

Eslatma! “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Bosh muharrir

Abdumannonov Islomjon Ikromjon o‘g‘li

Mas’ul muharrir

Isroilov Ozodbek Saydullajon o‘g‘li

Nashrga tayyorlovchi

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li

“Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali, 2022-yil. 109 bet.
© Talqin va tadqiqotlar, 2022
© Mualliflar jamoasi, 2022